 • C5 valerian kislota  $CH_3 - CH_2 - CH_2 - CH_2 - COOH$   
 • C4 yog' kislotosi  $CH_3 - CH_2 - CH_2 - COOH$   
 • C3 propion kislotosi  $CH_3 - CH_2 - COOH$

- C2 sirka kislotosi  $CH_3 - COOH$
- C1 chumoli kislotosi  $HCOOH$

• Metan  $CH_4$ , uglerod dioksid  $CO_2$ , suv,  $H_2S$ ,  $N_2$


2.2-rasm. Anaerob parchalanishda moddalar almashinuvi mahsulotlari (organik kislotalar).

Organik moddalarni alohida tarkibiy qismlarga ajralishi (parchalanishi) va metanga aylanishi faqat nam muhitda sodir bo'lishi mumkin, chunki bakteriyalar faqat erigan shakldagi moddalarni qayta ishlashi mumkin. Shunday qilib, qattiq substratlarni fermentasiya qilish (bijg'itish) uchun (ba'zan quruq fermentasiya deb noto'g'ri ataladi) suvg'a ehtiyoj mavjud.

Bugungi kunda fanga hajmi 1/1000 mm bo'lgan, turli muhitlarda yashashga qodir ko'pgan 10 ga yaqin *methanococcus* va *methanobacterium* turlari ma'lum.

Ko'pinish jarayonida har bir bakteriya guruhini bijg'ish (moddalar almashinuvi) mahsulotlari keyingi bakteriyalar guruhi uchun ozuqa moddasi sifatida ishlaydi (2.2-rasm). Organik moddalarning fazaviy parchalanishi bir xil tezlikda sodir bo'lmaydi. Turli xil bakteriyalar guruhlari turli tezlikda ishlaydi (2.3-rasmiga qarang). Aerob bakteriyalari etarlicha oziqlanganda ular 20 daqiqa÷10 soat (generatsiya vaqt) da massasini ikki baravar ortirsada, anaerob bakteriyalarda bu ancha sekin kechadi. Sirka kislotosining paydo bo'lishi fazasi sekinroq amalga

oshadi. Bakteriyalarga ozuqa moddalarini parchalash va o'z massasini ikki baravar ko'paytirish uchun bir necha kun kerak bo'ladi. Shuningdek, metan bakteriyalari orasida sust bakteriya turlari mavjud ko'pib, birinchi navbatda, sof va faol bakteriyalar buning uchun 3-5 kunni talab qiladi. Qolganlarning barchasi bir necha soatdan uch kungacha sirkalik kislotosini metanga parchalaydi.



2.3-rasm. Bakteriyalar avlodlarining yashash davri

Bir necha soatdan 2 kungacha bo'lган davrda organik moddalarning dastlabki qayta o'zgartirilishiga sabab ko'puvchi kislota hosil qiluvchi bakteriyalar eng tezkor ishlaydi. Ideal holatda, parchalanishda fazalararo moddalar konsentratsiyasida, ya'ni ozuqa moddalarini olish va ularning bo'linishi o'rtaida dinamik muvozanat o'matiladi. Eng ko'p uchraydigan xatolik bakteriyalarni tez parchalanadigan substrat bilan haddan tashqari to'yintirishdir, bu esa kislota hosil qiluvchi bakteriyalar tufayli kislotalarning to'planishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, pH darajasi keskin pasayishi mumkin, bu holda boshqa


bakteriyalar nobud ko'padi. Bundan tashqari, ishlab chiqarilgan moddaning ortiqcha konsentratsiyasi ularni rivojlantiradigan bakteriyalar guruhining ko'payishiga to'sqinlik qiladi.

Dinamik muvozanat, shuningdek, substratning oson parchalanishi bilan ham belgilanadi (2-4-rasmga qarang). Masalan, shakar va kraxmal, ularning oddiy strukturasiga ko'ra juda tez parchalanadi va fermentatorda qisqa vaqt oralig'ida ko'pishi yetarlidir. Substratning strukturasi qanchalik murakkab bo'lsa, parchalanish shuncha uzoq davom etadi. Sellyuloza va gemisellyuloza keng va murakkab tuzilishiga ega va asta-sekin parchalanadi. Lignin, o'simlikning yoshi bilan bogliq ravishda ortib boruvchi daraxt tarkibidagi moddasi – bakteriyalar tomonidan juda yomon parchalanadi, chunki u hattoki, kislotalarga ham qarshilik ko'rsatish xususiyatiga ega.


Substratning parchalanish tezligi fermentasiya uchun texnik zarur vaqtga bevosita ta'sir qiladi. Shunday qilib, biogaz qurilmasini rejalashtirayotganda, fermentasiya uchun qaysi substrat yoki qanday substratlar ishlatalishini aniq belgilash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, fermentatorda organik moddalarning ko'pishini nafaqat fermentasiya uchun texnik vaqt belgilaydi, balki iqtisodiy ko'rsatkichlar ham bu o'rinda juda muhimdir. Agar biz yog'ochga boy ko'pgan materialni qayta ishlamoqchi bo'lsak, metan olish uchun fermentatorning hajmi juda katta ko'pishini ta'minlash kerak. Bu esa iqtisodiy nuqtai nazardan mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Fermentasiya vaqtini anaerob bijg'ish, parchalanish dinamikasi va ma'lum bir substratning parchalanish tezligi bilan belgilanadi.

Agar fermentator substrat bilan qayta yoki yangi to'ldirilgan bo'lsa, unda parchalanish jarayonining alohida fazalaridan o'tib, biogaz asta-sekin hosil bo'ladi. Kunlik ishlab chiqarilgan biogaz miqdori maksimal darajaga yetgunga qadar oshib boradi. Oson parchalanuvchi substrat kulminatsiya darajasiga yetgan vaqtida qayta ishlanadi va bakteriyalar uchun faqat parchalash qiyin bo'lgan moddalar qoladi. Shunday qilib, mavjud bo'lgan barcha material parchalanmaguncha yoki substratni boshqa parchalab ko'pmaydigan darajaga yetmaguncha kunlik ishlab chiqarilgan

gaz miqdori kamayadi. Ushbu biogaz hosil bo'lish jarayoni *davriy usul* sifatida yuritiladi.



**2.4-rasm. Moddalar guruhining parchalanish tezligi**



**2.5-rasm. Fermentasiya vaqtining gazning chiqishi va miqdoriga ta'siri.**

Bugungi kunda bosqichma-bosqich ishlov berish jarayonidan foydalanish qabul qilingan bo'lib, unda substrat kun davomida reaktorga porsiyalab muntazam berib boriladi va bu o'z navbatida o'zgarmas miqdorda davomiy biogaz ishlab chiqarishga olib keladi (2.5-rasmiga qarang).

1 kg organik substratdan gaz ishlab chiqarish asta-sekin fermentasiya (bijg'ish) vaqtining ortishi bilan asta-sekin o'sib boradi, dastlab tezroq keyin esa jarayon davomiylik vaqtining ortishiga teskari ravishda kamayib boradi. Oqibatda jarayon shunday kritik chegaraga duch keladiki, ishlab chiqariladigan gaz miqdori kamayib ketadi va natijada substratning fermentatorda uzoq vaqt qolishi iqtisodiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiq ko'pmaydi. Ya'ni, amalda hech qachon organik moddalarning to'liq parchalanishi amalga oshmaydi.

#### **Bir va ko'p bosqichli jarayon**

Biogaz qurilmalarining aksariyat qismida parchalanish jarayonlari parallel ravishda sodir bo'ladi, ya'ni ular na hajm, na vaqt bo'yicha ajratilmaydi. Bunday texnologiyalar *bir bosqichli* deb nomlanadi (2.6-rasm).


Tez parchalanishi tufayli oksidlanishga moyil bo'lgan substratlarga gidroliz va oksidlanish uchun ham alohida rezervuarni nazarda tutish tavsiya etiladi. Ya'ni rezervuarda parchalangan mahsulotlar muayyan o'lchovli miqdorda fermentatorga

uzatib boriladi (*ikki bosqichli* texnologiya). Eng asosiy missiya bakteriyalarning samarali ishlashi uchun maqbul yashash sharoitlarini (asosan pH darajasi) yaratish va saqlab turishdir. Shu orqali biogaz ishlab chiqarishni ko'paytirishga erishish mumkin. Masalan, vinochilik chiqindilari fermentasiyasi uchun fazalarning bunday ajratilgan holda amalga oshirish maqbuldir. Bundan tashqari, bunday alohida rezervuar ajratilishi tufayli ishlatilmagan gazlardan biofiltr orqali faqat metan miqdori yuqori bo'lgan gazlarni ajratib olish mumkin.

Fazalarni ajratish bakteriyalar faollik sharoitlariga eng mos va afzalliklariga ega bo'lsa-da, bunday ikki bosqichli texnologiyalar keng qo'llanilmaydi. Ikkinci rezervuar, aralashtirish tizimlari, isitish tizimlari va nasoslar uchun qo'shimcha yo'qotishlar faqat ayrim turdag'i substratlar uchun o'zini oqlashi mumkin. Boshqa tomondan, amalda, bir-biriga o'zaro bog'langan ikkita rezervuarlarni uchratish mumkin. Bunday hollarda, birinchi rezervuar qisqa muddatli bijg'itish va tez parchalanadigan substratlardan foydalanish uchun mo'ljallangan isitish, aralashtirish qurilmalari bilan jihozlangan haqiqiy fermentator vazifasini bajaradi. Amalda isitgichsiz fermentator hisoblanuvchi va birinchisiga ulangan ikkinchi rezervuarda gaz juda tez parchalanmaydigan substratlardan hosil bo'ladi va mos ravishda unda fermentasiya jarayoni uzoqroq davom etadi.



**Bir bosqichli jarayon**



2.6-rasm. Bir va ko'p bosqichli jarayonlar.

## 2.2. Bakteriyalarning yashash muhiti

Ushbu ko'p bosqichli anaerob jarayonlarda bakteriyalar yaxshi ishlashi va faol bo'lishi uchun ularga quyida tavsiflangan ma'lum yashash sharoitlarini yaratish kerak.

### Nam muhit

Metan bakteriyalari substratlar suvda yetarli darajada eriganida yashashi va ko'payishi mumkin (kamida 50% suvni o'z ichiga oladi). Aerob bakteriyalar, ba'zi bijg'ituvchi va zamburug'lardan farqli o'laroq, ular qattiq fazada mavjud bo'lolmaydi.

Shu sababli, qattiq texnologiya deb ataladigan texnologiyalar uchun materialni namlash kerak, garchi dastlab substrat nam bo'lganmi yoki namlash yoki aralashtirish natijasida hosil bo'lganmi, muhim emas.

### Havo kirishining oldini olish

Bir qator mikroorganizmlar organik substratlarni parchalanishining anaerob jarayonlarida ishtirot etadi. Ishtirot etadigan bakteriyalarning taxminan 50 foizi aerobik va kislorod talab qiladi. Faqatgina metan bakteriyalarigina anaerobikdir. Agar substratda kislorod bo'lsa, masalan, yangi go'ngda, birinchi navbatda aerob bakteriyalar undan foydalanadi. Bu biogazni shakllantirish jarayonining birinchi bosqichida sodir bo'ladi. Shu sababli, oltingugurtdan tozalash uchun maqsadli ravishda havo kiritish paytida yoki nazorat teshiklarini ochganda oz miqdordagi kislorod zararli emas. Oksidlash-tiklash potensial ahamiyatga egadir. Bu potensial

ionlarning elektronni qabul qilishga tayyorlik darajasini bildiradi. Anaerob bakteriyalarning ko'payishi uchun bu potensial juda past darajada bo'lishi kerak (-0.1 V). Kislorod yuqori oksidlash-tiklash potensialiga ega bo'lganligi sababli (+1.78) bu dastlab anaerob bakteriyalar uchun zararli bo'ladi. Ammo, kam oksidlash potensialga ega bo'lgan moddalar yetarli bo'lsa, anaerob jarayon kislorod mavjud bo'lganda ham sodir bo'lishi mumkin.


### Yorug'lik kirishining oldini olish

Yorug'lik bakteriyalar uchun halokatli bo'lmasa ham, bu jarayonni sekinlashtiradi. Jarayonga yorug'likning ta'sirini yo'qotish uchun yorug'lik o'tkazmaydigan qoplama yoki qopqoqdan foydalanish mumkin.

### O'zgarmas harorat

Metan bakteriyalari o'z faolligini 0-70 °C harorat oraliq'ida namoyon qiladi. Agar harorat ortsa ular nobud bo'la boshlaydilar, faqat 90°C gacha haroratda yashashi mumkin bo'lgan bir nechta ba'zi shtammlardan tashqari. Minus haroratlarda ular tirik qoladilar, ammo o'z faoliyatini to'xtatadilar. Adabiyotlarda 3-4° C li ko'rsatkich haroratning eng past chegarasi sifatida ko'rsatilgan.

Fermentasiya jarayonining *tezligi* haroratga o'ta bog'liqdir. Harorat qanchalik yuqori bo'lishi, parchalanishning tez sodir bo'lib, gaz ishlab chiqarish hajmi shunchalik yuqori bo'lishi bilan prinsipial ahamiyatga egadir. Shu tarzda parchalanish vaqt qisqaradi (2.7-rasm).



2.7-rasm. Ishlab chiqariladigan mahsulotga fermentasiya harorati va vaqtining ta'siri.


Haroratning oshishi bilan biogaz tarkibidagi metan miqdori kamayadi. Buning sababi shundaki, yuqori haroratlarda substratda erigan karbonat angidrid gazsimon fazaga o'tib (biogaz tarkibiga kirib), nisbatan metan miqdori kamayadi. Ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan gaz miqdori fermentasiya vaqtiga to'g'ri proporsioanal bo'ladi. Bakteriyalarning tegishli shtammlari o'zini yaxshi his etadigan uchta tipik harorat rejimlari mavjud:

- 20-25°C dan past haroratlarda psixofil shtammlar;
- 25-45°C haroratda mezofil shtammlari;
- 45 °C dan yuqori haroratlarda termofil shtammlar.

Ko'pgina qurilmalar mezofil rejimida ishlaydi. Qurilma generatoridagi bunday ortiqcha issiqlik hosil qilib ishlatilishi davomida yuqori haroratlari fermentatorlar tendensiyasi kuzatilmoqda. Germaniyada amalda ko'pgina biogaz qurilmalari 38-42 °C haroratda ishlaydi (2.8-rasm). Uzoq fermentasiya vaqtini va kam miqdorda gaz ishlab chiqarilishi tufayli psixofil ish rejimi endilikda bu kabi muhim rol o'ynamay qolmoqda. Bu esa termofil rejimda ishlaydigan qurilmalarga talabni oshirmoqda va birinchi navbatda katta o'lchamli qurilmalar

avtomatlashtirilgan boshqaruvi tizimlari bilan jihozlanmoqda.

Fermentator haroratining bakteriyalar faolligiga ta'siri 2.8-rasmda ko'rsatilgan. Harorat qancha yuqori bo'lsa, bakteriyalar uning o'zgarishiga sezgir bo'ladi, ayniqsa ularning yashash vaqtini qisqa muddatli bo'lsa. Buni egri chiziqning nisbatan tor maksimumidan va termofil rejimda uning keskin pasayishidan yaqqol ko'rish mumkin. Mezofil rejimida kunlik haroratning 2-4 °C ga o'zgarishlari bakteriyalarga deyarli ta'sir ko'rsatmasa ham, termofil rejimda bunday chetlanishlar 1 °C dan oshmasligi kerak. Zichligi kichik substratni (ko'p miqdordagi kislrorodga ega, g'ovak) yoki juda sovuq materialni joylashtirish, shuningdek, aralashtirgichni bir necha soat davomida (ayniqsa qishda) to'xtatish haroratning bunday o'zgarishlariga olib kelishi mumkin.



2.8-rasm. Bakteriyalar faolligiga haroratning ta'siri. Haroratga bog'liq ravishda glyukoza bakteriyalari bilan oksidlanishdagi o'rtacha kislotalilik darajasida ko'rsatilgan.

Qizig'i shundaki, qayta tiklanadigan xom ashyo bilan ishlaydigan bunday qurilmalarda xom ashyonini yoqishdan ko'ra yuqori harorat to'planishi kuzatiladi. Bundan tashqari, anaerob jarayon, kompostlash (chiritish) dan farqli o'laroq,

ekzoternik emas; ko'proq energiya metanda to'planadi. O'simliklar kabi oson ishlov beriladigan substratning katta miqdori mos ravishda issiqlik chiqishi bilan qaytarib bo'lmaydigan oksidlanish reaksiyalariga olib keladi. Shunday qilib, makkajo'xori fermentasiyasi paytida harorat 37 °C dan 42 °C gacha ko'tariladi. Albatta bunday effekt qurilmaning issiqlik sarfini kamaytiradi va bu jarayon har bir qurilmaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobiga har biri uchun alohida kechadi.

Yuqori haroratlarda ishlash maxsus avtomatlashgan tizimlarini o'matishni va biogaz qurilmasini aniq nazorat qilishni talab qiladi. Hozirgi kunda, qishloq xo'jalik korxonalarining faoliyatiga biogaz qurilmalarining to'liq integratsiyalashuvi haqida gap ketganda, mezofil rejim kamroq muammo tug'diradi. Bugungi kunda tendensiya shundan iboratki, fermentatorning yuqori harorat rejimlarida ishlashi qurilma ekspluatatsiyasining alohida faoliyat turiga aylandi va tegishli malakaga ega bo'lgan personallarni talab qiladi.





Uzoq vaqt davomida (1 oy yoki undan ko'proq) bakteriyalar yangi temperatura rejimiga o'rGANADILAR, shunda har bir ishlab chiqaruvchi o'zi uchun eng maqbul variantni tanlashi mumkin bo'ladi.

### pH darajasi

pH miqdori 4,5-6,3 bo'lgan kislotali muhitda gidrolizlovchi va kislota hosil qiluvchi bakteriyalar o'zining eng optimal faolligiga erishgan bir paytda, sirka kislotasi va metan hosil qiluvchi bakteriyalar faqat neytral yoki kuchsiz ishqoriy pH 6,8-8 darajasida yashay oladi. Quyidagilar barcha bakteriyalar uchun amal qiladi: agar pH darajasi eng optimal darajadan oshsa, ularning hayotiy faolligi pasayadi va bu biogaz hosil bo'lismeni sekinlashtiradi. Bir bosqichli texnologiyalarda metan hosil bo'lishi uchun pH darajasini stabil saqlab turish kerak (optimum 7). pH darajasiga yuklangan substrat miqdori va uning turiga ko'ra ta'sir qilish mumkin. Tez oksidlanadigan substratlar pHning keskin pasayishiga olib keladi; shuning uchun ular faqat cheklangan miqdorda va asta-sekin qo'shilishi kerak.

Substratlar pH darajasini amortizatsiyalash qobiliyatiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Agar H<sup>+</sup> konsentratsiyasi ortsa, unda substratlar uni muayyan cheklangan

miqdorga tenglashtirishi va erkin ionlarni o'zlarini bilan bog'lashlari mumkin. Shu sababli, umumiy holda pH darajasi barqaror bo'lib qoladi. Faqat bog'lovchi va tenglashtiruvchi qobiliyati tugaganidan keyin pH darajasi ko'tarila boshlaydi. Har qanday holatda ham, H<sup>+</sup> tarkibining bunday sekin o'lchanadigan o'zgarishi bakteriyalar rivojlanishining sustlashuviga va shu bilan birga gaz shakllanishining buzilishiga olib keladi. pH o'lchovlari shu tarzda amaldagi haqiqiy vaziyatdan orqada qolmoqda. Bu jarayonni boshqarishning arzon usuli bo'lsa-da, pH darajasini o'lchash asosida jarayonni o'z vaqtida nazorat qilish mumkin emas. Bunda bufer xususiyatlarini<sup>1</sup> o'lchash yanada samaralidir (2,5-bo'limiga qarang). Bufer effekti uchun karbonat va ammoniy buferlari birinchi navbatda muhimdir:



Agar karbonatli buffer bir necha kislotali muhitda faollashtirilgan bo'lsa, u holda pH darajasi yuqori bo'lgan ammoniy buferi ishlatiladi. Go'ngda buferli moddalar ko'p miqdorda bo'ladi. Shuning uchun, go'ng pH tarkibining katta tebranishlarni yumshatishi va ortiqcha kislotani yaxshi ushlab turishi mumkin.

Qayta tiklanadigan xom ashyoda bunday muhim bufer potensiali mavjud emas. Umuman olganda, ularda yuqori pH darajasi bo'lgani uchun ammoniy bufer muhim rol o'yinaydi. Turg'un fermentasiya jarayonlarida pH darajasi mustaqil ravishda bosqariladi.

### Oziq moddalar bilan ta'minlash

Bakteriyalar hujayralarni shakllantirish uchun ozuqa moddalarini, vitaminlari, eriydigan azotli birikmalar, minerallar va mikroelementlarni talab qiladi. Ushbu moddalar suyuq va qattiq go'ngda yetarli miqdorda mavjud bo'ladi. Ularning

<sup>1</sup> Bu eritmaning pH o'zgarishiga qarshi turish qobiliyatidir. Amlashmalarning bu xususiyati buferli xususiyat deb ataladi va bunday aralashmalarning eritmalari bufer deb ataladi.

yeterli miqdori pichan, makkajo'xori (yangi yoki konservalangan), oziq-ovqat qoldiqlari, oshxona chiqindilari, hayvonlarning ichaklari, bardalar<sup>2</sup> va sut mahsulotlarida mavjud – bu barcha mahsulotlar boshqa substratlar qo'shilmasdan toza shaklda achitilishi mumkin. Substratlarni aralashtirishning oriyentir qiymati sifatida quyidagi ozuqaviy nisbatlarni namuna sifatida olish mumkin:

$$C:N:P = 75:5:1 \text{ yoki } 125:5:1$$

$$C:N = 10:1 \text{ yoki } 30:1$$

$$N:P = 5:1$$

$N:P$  – nisbat uglevodlarning azotga nisbatan umumiyligi nisbatini ko'rsatadi. Fosforning bir foizi azotning 5 foizi va uglerodning 75-125 foiziga mos keladi. Uglerodning azotga optimal nisbati 30:1 va 10:1 ga teng. Agar bu nisbat 8:1 darajasiga qadar tushib ketsa, substratda yuqori ammoniy miqdori tufayli yoki ammiak sabab bakteriyalar rivojlanishi sekinlashadi ("Moddaning rivojlanishiga xalaqitlar" ga qarang). Har bir substrat yoki substratlar aralashmasi uchun moddalarning nisbatini hisoblash mumkin (2.1-jadvalga qarang).

Substratlar aralashmasini dastlabki baholashda shunday hisob-kitobni amalga oshirish mantiqan to'g'ri bo'ladiki, uning yordami bilan azotning yuqori konsentratsiyasi tufayli rivojlanish jarayonining kechikishini o'z vaqtida aniqlash mumkin bo'lsin.

Optimal bakterial faollik uchun oz miqdordagi og'ir metallar va mikroelementlarga ham ehtiyoj mavjud. Shu bilan birga, og'ir metallar rivojlanishni to'xtatuvchi yoki hatto toksik ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Ularning harakatlanish chegarasining qanchalik aniq emasligi bizga 2.2-jadvalda ko'rindi.

Nikel, kobalt, molibden, volfram va temir enzimlar hosil bo'lishi uchun bakteriyalar alohida zaruriydir. Bakteriyalarning hayotini optimal qo'llab-quvvatlash uchun ozuqa moddalarini aralashmasiga minimal talablar 2.3-jadvalda keltirilgan. Bundan kelib chiqadiki, biogaz hosil bo'lish jarayoni past yoki yuqori konsentratsiyali ozuqa moddalarining keng doirasi bilan sodir bo'lishi mumkin. Bu

fakt ma'lum vaqt o'tgach amaliyotda tasdiqlangan, ya'ni bakteriyalar, hatto noqulay yashash sharoitlariga moslasishi mumkin.

#### *Substratlar aralashmalarida ozuqa moddalarining nisbatini hisoblash*

Oziq moddalar miqdori [g/kg QM]	C	N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	
Yirik qoramol go'ngi (QCh)	40	3,2	1,6	Nisbat: S:N:P = 25/2/1
Makkajo'xori silosi (MS)	96	3,9	0,7	Nisbat: S:N:P = 137/5,6/1
S:N:P aralashmasini hisoblash				
Qoramol chirindisining 1 foizi va makkajo'xori silosi 0,7 foizi misolida  Aralashmadagi foydali moddalarining miqdori = $\frac{(KS * KS \text{ foizi}) + (QCh * QCh \text{ foizi})}{KS \text{ foizi} + QCh \text{ foizi}}$				
Namunaga asosan $C = ((96 * 0,7) + (40 * 1))/(1 + 0,7) = (67,2 + 40)/1,7 = 63$ .				
Xuddi shunday tartibda N va P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> tarkibi ham hisoblanadi				
Aralashma namunasi uchun hisoblash natijasi:				
Ozuqa moddalarini tarkibi		C	N <sub>um</sub>	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>
Substrat aralashmalarini [g/kg]:		63,33	3,49	1,22
				Nisbat C:N:P = 52/3/1
Ozuqa moddalarini nisbati C:N = 1 7/1				Nisbat N:P = 3/1
Oziq moddalar aralashmasi maqbul va ruxsat etilgan chegaralarda bo'ladi.				
C:N nisbat asosan pastki uchdan bir qismida bo'ladi, shuning uchun qo'shimcha azotli substrat yetkazib berishda ammoniakning ko'pligi sababli rivojlanish kechikishiga e'tibor berish kerak.				

*2.1-jadval: Substratdagi yoki substratlar aralashmasidagi ozuqa moddalarining nisbatini hisoblash.*

<sup>2</sup> Vinochilik va pivo tayyorlash yoki etil spirti ishlab chiqarishdagidan quyuq holdagi chiqindi.

*Biogaz jarayoniga og'ir metallarning cheklovchi va toksik ta'siri*

	Cheklovchi ta'siri mg/l	Toksik ta'siri mg/l	Kerakli konsentratsiya mg/l	Ruxsat etilgan konsentratsiya mg/l
Mis (Cu)	40-250	170-300		
Kadmiy (Cd)	150-600	20-600		0,12
Rux (Zn)	150-600	250-600		32
Nikel (Ni)	10-300	30-1000	0,006-0,5	4
Qo'rg'oshin (Pb)	300-340	340	0,02-200	12
Xrom III (Cr)	120-300	260-500	0,005-50	8
Xrom VI (Cr)	100-110	200-420		
Kobalt (Ko)			0,003-0,06	
Molibden (Mb)			0,005-0,05	
Selen (Se)			0,008	
Marganes (Mn)			0,005-50	
Simob (Hg)				0,08
Temir (Fe 2+)			1-10	

2.2-jadval. Og'ir metallarning biogazning zarur konsentratsiyasiga cheklovchi va toksik ta'siri.

Ko'pgina mikroelementlar oltingugurt bilan birga barqaror sulfidlarni hosil qiladi va shuning uchun ularning yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Temirning yetishmasligi o'simliklardagi kabi substrat rangining yorqinroq bo'lishi bilan bilib olish mumkin. Mikroelementlar yetishmasligining qimmatli tahlilini boshqa barcha omillar (ammiak, oltingugurt tufayli kechikishlar, ortiqcha kislotalilik, substratning yetishmasligi, texnika kabi) allaqachon sinovdan o'tgan

va jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida istisno qilinganda amalga oshirish kerak.

Metanogenet uchun minimal fizik-kimyoviy talablar

Atrof-muhit omillari	
pH darajasi	6,5-8,0
Tuzning mavjudligi (o'tkazuvchanligi)	2,5-25 mS/sm
Harorat	8-55°C
Elementlar	Konsetrasiya
Kislород	< 1 ppm <sup>1)</sup>
Vodorod	6 Pa
Umumiy uglerod	0,2-50 g / l KKI <sup>2)</sup>
Natriy	45-200 ppm
Kaliy	75-250 ppm
Magniy	10-40 ppm
Oltингугурт	50-100 ppm
Temir	10-200 ppm
Nikel	0,5-30 ppm
Kobalt	0,5-20 ppm
Molibden, volfram, selen	0,1-0,35 ppm
Rux	0-3 ppm
Kimyoviy birikmalar	
Fosfat	50-150 ppm
Miqdoriy nisbat	
C:N:P:S	(butun jarayon)

1) Parts Per Million (ppm). 1 milligram/kilogram (mg/kg) = 1 ppm; 1 milligram/liter (mg/l) = 1 ppm; 1 microgram/gram ( $\mu$ g/g) = 1 ppm; 0.0001 % = 1 ppm.

2) Kislороднинг kimyoviy iste'moli (KKI) – namunadagi organik birikmalarning oksidlanishiga sarflangan kislород (yoki boshqa oksidlovchi modda) miqdorini ko'rsatadigan suvdagi organik moddalar tarkibining ko'rsatkichi.

2.3-jadval: Biogaz hosil bo'lishiga minimal fizik-kimyoviy talablar.

*Biogaz jarayoniga og'ir metallarning cheklovchi va toksik ta'siri*

	Cheklovchi ta'siri mg/l	Toksik ta'siri mg/l	Kerakli konsentratsiya mg/l	Ruxsat etilgan konsentratsiya mg/l
Mis (Cu)	40-250	170-300		
Kadmiy (Cd)	150-600	20-600		0,12
Rux (Zn)	150-600	250-600		32
Nikel (Ni)	10-300	30-1000	0,006-0,5	4
Qo'rg'oshin (Pb)	300-340	340	0,02-200	12
Xrom III (Cr)	120-300	260-500	0,005-50	8
Xrom VI (Cr)	100-110	200-420		
Kobalt (Ko)			0,003-0,06	
Molibden (Mb)			0,005-0,05	
Selen (Se)			0,008	
Marganes (Mn)			0,005-50	
Simob (Hg)				0,08
Temir (Fe 2+)			1-10	

*2.2-jadval. Og'ir metallarning biogazning zarur konsentratsiyasiga cheklovchi va toksik ta'siri.*

Ko'pgina mikroelementlar oltingugurt bilan birga barqaror sulfidlarni hosil qiladi va shuning uchun ularning yetishmovchiligi yuzaga kelishi mumkin. Temirning yetishmasligi o'simliklardagi kabi substrat rangining yorqinroq bo'lishi bilan bilib olish mumkin. Mikroelementlar yetishmasligining qimmatli tahlilini boshqa barcha omillar (ammiak, oltingugurt tufayli kechikishlar, ortiqcha kislotalilik, substratning yetishmasligi, texnika kabi) allaqachon sinovdan o'tgan

va jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida istisno qilinganda amalgalashirish kerak.

Metanogenetik uchun minimal fizik-kimyoviy talablar

Atrof-muhit omillari	
pH darajasi	6,5-8,0
Tuzning mavjudligi (o'tkazuvchanligi)	2,5-25 mS/sm
Harorat	8-55°C
Elementlar	Konsetratsiya
Kislород	< 1 ppm <sup>1)</sup>
Vodorod	6 Pa
Umumiyliglerod	0,2-50 g / l KKI <sup>2)</sup>
Natriy	45-200 ppm
Kaliy	75-250 ppm
Magniy	10-40 ppm
Oltingugurt	50-100 ppm
Temir	10-200 ppm
Nikel	0,5-30 ppm
Kobalt	0,5-20 ppm
Molibden, volfram, selen	0,1-0,35 ppm
Rux	0-3 ppm
Kimyoviy birikmalar	
Fosfat	50-150 ppm
Miqdoriy nisbat	
	2000:15:5:3
C:N:P:S	(butun jarayon)


1) Parts Per Million (ppm). 1 milligram/kilogram (mg/kg) = 1 ppm; 1 milligram/liter (mg/l) = 1 ppm; 1 microgram/gram ( $\mu$ g/g) = 1 ppm; 0.0001 % = 1 ppm.

2) Kislородning kimyoviy iste'moli (KKI) – namunadagi organik birikmalarning oksidlanishiga sarflangan kislород (yoki boshqa oksidlovchi modda) miqdorini ko'rsatadigan suvdagi organik moddalar tarkibining ko'rsatkichi.

*2.3-jadval: Biogaz hosil bo'lishiga minimal fizik-kimyoviy talablar.*

## Xom ashoning sirtining yuzasi

Substrat qanchalik oz bo'lsa, shuncha yaxshi bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Bakteriyalarning o'zaro ta'sirlashuvi uchun yuza qanchalik katta bo'lsa va substrat qanchalik tolali bo'lsa, bakteriyalar substratni parchalanishi oson va tezroq bo'ladi. Bundan tashqari, suzib yuruvchi qobiq yoki cho'kindi hosil bo'lmasa substratni aralashtirish va isitish osonroq kechadi. Maydalangan xom ashyo fermentasiya davrining davomiyligi bilan ham hosil qilinajak gaz miqdoriga ta'sir qiladi. Demak, fermentasiya davri qisqa bo'lishi, material shunchalik yaxshi maydalangan bo'lishi kerak (2.9-rasm).



2.9-rasm. Substratni maydalashning gaz hosil bo'lishi va fermentasiya vaqtiga ta'siri (Xelfrix, Oksner, 2003).

Fermentasiya vaqt yetarlicha uzoq davom etsa ishlab chiqarilgan gaz miqdori yana ko'payadi. Amaliyotda maydalab yanchilgan don mahsulotlaridan foydalanim 15 kun ichida natijaga erishilgani kuzatilgan.

## Substratni bir maromda uzatish

Bakteriyalarni haddan tashqari to'ydirib yubormaslik uchun qisqa vaqt oralig'ida substratni fermentatorga bir tekisda berish ma'quldir. Material qanchalik oson parchalansa, substratni shunchalik tez uzatish kerak. Shu tarzda haroratning keskin pasayishining oldini olish mumkin. Ilgari qabul qilinganidek, fermentatorni

kuniga bir yoki ikki marta to'ldirish bugungi kunda juda kam uchraydi, faqat yuqori bufer effektiga ega (masalan, hayvonlarning ekskrementi)<sup>3</sup> substratlarda yoki juda oz miqdordagi substrat to'ldirilgan fermentatorlarda bunday bo'lishi mumkin. Bugungi kunda ko'p uchraydigan, fermentatoriga katta miqdorda substrat yuklanadigan qurilmalarda yuqori quvvatga erishish uchun bir soatlik interval bilan uzatish favqulodda muhimdir. Bunday interval uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan uzatish tizimlari bioenergetika bozorida mavjud (4-bo'limga qarang: Protsessual texnika).

## Substrat uzatish

Metan bakteriyalari ta'sirida tezda parchalanish jarayoni faqat hosil bo'lgan biogazni substratdan tezda chiqarib yuborish sharti bilan amalga oshishi mumkin. Agar gaz fermentatoridan chiqarilmasa, unda ko'p bar o'lchovdag'i, yuqori bosim hosil bo'lishi va bu hatto zarar keltirishi mumkin.

Yuqori oquvchan xususiyatlari substratlarda kichik havo pufakchalari sirtga mustaqil ravishda ko'tariladi. Bugungi kunda 18% va undan yuqori tarkibli quruq moddalar<sup>4</sup> bilan ishlash tendensiyasi gaz chiqarib yuborilishni kechiktirishi natijasida substrat xamirturush xamiriga o'xshab shisha boshlaydi hamda fermentatorning qopqog'ini ko'tarishi mumkin (2.10-rasm). Shunday qilib, substratni aralashtirish nafaqat qobiq va cho'kindi paydo bo'lishining oldini olish, balki ishlab chiqarilgan gazni chiqarib yuborish uchun ham muhimdir. Substrat qanchalik quyuq bo'lsa, uni shuncha tez-tez aralashtirish lozim bo'ladi (4-bo'limga qarang. Aralashtirish texnikasi).

## Cheklovchilar

Bir qator moddalar, moddalar almashinuvi va mikroorganizmlarning ko'payishini sekinlashtirishi yoki butunlay to'xtatishi mumkin:

- Ba'zi moddalar hujayra membranasini yoki bakteriyalar tuzilishini shikastlaydi (kir yuvish kukuni va boshqalar).

<sup>3</sup> Ekskrement (lot. Excrementum – chiqindi, chiqarib yuborish) – tashqi muhitga tashlanishi kerak bo'lgan tananig chiqindilari. Hayvonlar siydiqi, najasi, oshqozoni mahsuloti, chiqargan natasi kabilar.

<sup>4</sup> Quruq mudda (quruq moddalar miqdori) yoki quruq moddalarning og'irligi – aralashmadagi qattiq moddalarning foizini anglatadi. Ushbu nisbat qanchalik baland bo'lsa, substrat shuncha quruq bo'ladi. QM tarkibini o'lchash uchun birlig [%].

- Boshqa moddalar hujayra moddalar almashinuvি fermentlarini yo'q qiladi (og'ir metallar va boshqalar).



2.10-rasm. Aralashirgichning shikastlanishi, substratning ko'piklanishiga olib keldi va yog'och konstruksiya va plynokasini yirtib tashladi (Karlshoff 2004).

#### *Substrat tarkibidagi QM qanday aniqlanadi?*

Substrat tarkibidagi QMni hisoblash uchun ma'lum bir kalit ma'lumotlar talab qilinadi:

- ✓ toza suyuqlikning zichligi (aksariyat hollarda biz suv miqdori nazarda tutiladi);
- ✓ sof qattiq modda zichligi (quruq qoldiq);
- ✓ sinov substratining zichligi

Tegishli komponentlarning zichligi [kg / m<sup>3</sup>] bilan o'lchanadi.

Suyuq substratdagi quruq moddani hisoblashi formulasi.

$$QM \text{ miqdori } [\%] = \left( \frac{\rho_{\text{suyuqlik}}}{\rho_{\text{substrat}}} - 1 \right) * 100\%$$

Moddalarning zararli ta'siri konsentratsiyaga juda bog'liq. Bu shuni anglatadiki, asosiy omil ma'lum bir moddaning to'liq mayjud emasligi emas, balki uning boshqa modda guruhlariga nisbatan konsentratsiyasıdir.

#### • Kislород

Kislород yetarlicha boyitilmagan maydalangan substrati bilan kirib, metan bakteriyalariga zarar etkazishi mumkin.

#### • Antibiotiklar, kimyoterapeutik va dezinfektsiyalash vositalari

Antibiotiklar, kimyoterapeutik va dezinfektsiyalash vositalari fermentasiya jarayoniga to'sqinlik qilishi va ayniqsa, ularning yuqori konsentratsiyasi

jarayonning to'liq to'xtashiga olib kelishi mumkin. Bu, agar barcha chorva mollari bir vaqtning o'zida dezinfektsiyalansa, yuz berishi mumkin. Bunday holda, ombordan to'g'ridan-to'g'ri saqlash sig'imiga olib boruvchi o'tish yo'lli muammoni hal qilishga yordam beradi. Ayrim hayvonlarga qo'llaniladigan dorilar odatda bunday salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Amaldagi vositalar o'rtasida katta farq bor. 2.4-jadval shuni ko'rsatadiki, yuqori konsentratsiyalarda ham zararli bo'lмаган moddalar mayjud, boshqalari esa past konsentratsiyalarda ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

#### Antibiotiklarning hayvonlar ozuqasida metan hosil bo'lishiga ta'siri

Guruh	Sotuvdag'i mahsulot nomi	Biologik faol modda	C <sub>max</sub> mg/l	Konsentratsiya mg/l	Metan 100% = Nominal
Antibiotiklar		Bacitracin	29	100 10 3	68% 68% 80%
	Flavophospholipol	Flavomycin	11	50	104%
	Avatec	Lasalocid	6	100 10 3	25% 102% 105%
	Rumensin	Monensin	8	5 2 0,5	35% 35% 38%
	Spiramix			50	44%
		Spiramycin	29	10 2,5	46% 46%
	Tylan	Tysolin	23	100 10 3	65% 67% 80%
Sintetik dorivor kimyoyiv	Stafac	Virginiamycin	29	50 10 3	46% 73% 81%
	2 (Arsen + Fur.)	Animedica S-	144	100 10 3	54% 88% 90%
		Furazolidon	144	200	41%

	3 (Arsen + Fur. + Sulf.)		50	93%
	Sulfadimezin	144	100	101%
			20	99%
			3	102%
Dezinfektsiyalash vositalari	Bayo-N-ox	Olaquindox	100	4%
			10	32%
			1	35%
	Decaseptol 11% 10%	Xloroform CS <sub>2</sub> fenollar	0,3* 0,03*	11% 10%
	Indicin 3	Aldegidlar Alkogol	0,03*	0,16* 0,016*
	Master Mix Environ	Fenollar	0,02*	14% 83%
				94% 92%
	Orbivet	Aldegidlar Alkogol	0,03*	27% 60% 87%
				0,5* 0,1* 0,01*
	Thegodor 73	Aldegidlar To'rtlik ammoniyli birikmalar	0,03*	37% 63% 87%


\*) ml / l; C<sub>max</sub> = fermentatorda nazariy jihatdan mumkin bo'lgan maksimal konsentratsiya

2.4-jadval: Antibiotiklarning hayvonlar ozuqasiga, sintetik kimyoviy moddalar va statcionar dezinfektsiyalash vositalarining uzoq muddat foydalanishida metan hosil bo'lishiga ta'siri.

#### • Organik kislotalar, karbon kislotalar, yog' kislotalari


Organik kislotalarning anaerob parchalanishi jarayonida hosil bo'lgan organik kislotalarning to'planishi ham teskari va jarayonni to'xtatuvchi ta'sir ko'rsatadi (2.2-rasm). Uchuvchi yog' kislotalari deb ham ataladigan organik kislotalarning nisbati bizga jarayonning holati to'g'risida ma'lumot beradi. Biogaz hosil bo'lishining barqaror jarayonida organik kislotalar (sirka kislotasi ekvivalenti deb ham ataladi) miqdori 2000 mg/l dan past bo'ladi. Yangi yoki juda oson

parchalanadigan substratlarni juda tez uzatilishi tufayli tezkor oksidlanish va 16000 mg/l gacha kislotalar to'planishi mumkin. Bundan tashqari, sirka kislotasining propion kislotasiga nisbati salbiy o'zgaradi (2.11-rasm).



2.11-rasm. Barda uzatish (kiritish) tufayli organik kislotalarning o'zgarishi.

Agar darajasi 3000 mg/l dan oshsa va propion kislotasi uchun 300 mg/l bo'lisa, Velingerning so'zlariga ko'ra, jarayon buzilishi yuzaga keladi. Kislotalarning to'planishi natijasida ularning ko'p miqdordagi konsentratsiyasi tufayli bakteriyalarning to'xtalishidan boshlab, pH darajasi kamayishi, bakteriyalar rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi va parchalanish jarayonining to'liq to'xtashiga sabab bo'ladigan qator reaksiyalarga olib keladi. Bunga faqat substrat yetkazib berishni to'liq qisqartirish bilan kurashish mumkin. Bundan tashqari, avval qabul qilinganidek, kuniga bir marta bir marta substrat uzatish organik kislotalarning kuchli to'planishiga olib keladi, ammo ular kun davomida parchalanadi (2.12-rasm).



2.12-rasm. Substratni uzatish chastotasining organik kislotalar yig' indisiga ta'siri.

Kavsh qaytaruvchi mollarni boqish amaliyotidan ma'lumki, hazm qilish uchun sirkal kislotasining propion kislotasiga nisbati 3:1 bo'lishi kerak. Qoida bo'yicha, quruq massa ratsionidagi xom tolalarning tarkibi 18-20% ga tushganda bunga erishiladi. Agar bu nisbatga erishish ta'minlanmasa, kavsh qaytaruvchi hayvonlarda sisentrik atsidoz<sup>5</sup> boshlanadi va biogaz qurilmalarida bakteriyalar rivojlanishining kechikishi va o'ta oksidlanishga olib keladi.

Ammo shunga qaramay, bakteriyalar kislotalar konsentratsiyasiga moslashishi mumkin, chunki bakteriyalar juda yaxshi moslashish qobiliyatiga ega. Amalda, yuqori konsentratsiyali kislota bilan ishlaydigan va gaz ishlab chiqarish qobiliyati yuqori bo'lgan ko'plab qurilmalar ma'lumki va bunday holatlarda astasekin yangi muhitga moslashish juda muhim.


### Vodorod sulfidi

Tarkibida oltingugurt bo'lgan substratlar (asosan oqsillar) parchalanishida deyarli barcha tirik mavjudotlar uchun o'ta zaharli bo'lgan vodorod sulfidi ( $H_2S$ )

hosil bo'ladi.  $10^4$  dan kichik konsentratsiyadayoq uni aynigan tuxumning yoqimsiz hidi orqali aniqlanishi mumkin, agar konsentratsiya yuqoridagi qiymatdan oshsa, hid yo'qoladi, ammo gaz juda zaharlilikcha qoladi (2.5-jadval). Bunday toksik ta'sir 2005 yil noyabr oyida biogaz qurilmasining qabul qilish binosiga vodorod sulfidi buluti kirib to'planganida ko'p odamlarning hayotiga zomin bo'ldi yoki zaharladi. Gaz kelib chiqishi qurilma tufayli emas, balki go'ng tashiydigan yuk mashinasi sababli edi.

pH darajasi qancha past bo'lsa, substratda va biogazda  $H_2S$  foizi shunchalik yuqori va toksik potensiali ham shunchalik yuqori bo'ladi. Agar gazdagi  $H_2S$  miqdori 2000 ppm yoki 50 mg  $H_2S$  eritmasi miqdoridan dan oshsa, bakteriyalar rivojlanishining kechikishi kutiladi. Substratda ajraladigan uglerod birikmalarining miqdori qancha yuqori bo'lsa (suyultirish effekti) risk shuncha kamroq bo'ladi.

Otingugurtli substratlarda vodoroddan vodorod sulfidi hosil qilish uchun foydalananadigan bakteriya shtammlari paydo bo'lishi mumkin. Ular metan bakteriyalari bilan vodorod uchun raqobatlashadi. Shunday qilib, metan hosil bo'lishi kamayadi va hosil bo'lgan vodorod sulfidi metan bakteriyalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi (2.13-rasm).



2.13-rasm. pH ning vodorod sulfidi konsentratsiyasiga va bakteriyalar rivojlanishining kechikishiga ta'siri.

<sup>5</sup> Kavsh qaytaradigan hayvonlardagi kasallik. Kasallik katta qorin tarkibidagi pH ning kislotali tomonga siljishi bilan tavsiflanadi. Tsikratik atsidoz kavsh qaytaruvchi hayvonlar ko'p miqdorda eriydigan uglevodlarga ega ozuqani iste'mol qilganda rivojlanadi. Bular makkajo'xori, suli, arpa, bug'doy, qand lavlagi, kartoshka, olma, yashil o't va boshqalar. Kasallik hosil yig'im-terimdan keyin dalalarda o'tlayotganida va oqsil ozuqasi etishmovchiligi sharoitida ommaviy xarakterga ega.

Vodorod sulfidining konsentratsiyasi pH darajasiga qarab gazsimon yoki suyuq holda bo'ladi.

Shunga qaramay, oltingugurt substratning muhim ozuqaviy elementi hisoblanadi, chunki u bakterial biomassani shakllantirish uchun zarurdir.

Vodorod sulfidining ta'siri	
Havodagi konsentratsiyasi ppm (part per million – har milliontaga to'g'ri keluvchi ulush) da $1\text{ ppm} = 0.0001\%$	Ta'siri
0,03-0,15	Sezgi organlarida buzilishlar, aynigan tuxum hidi
15-75	Ko'zlar va nafas yo'llarining achishishi, ko'ngil aynish, quşish, bosh og'rig'i, muvozanatni yo'qotish
$\Delta 150-330$	Sezuvchi nerv tolalarining falajlanishi
$0,015-0,03\%$	Zaharlanishdan o'lim (bir necha soatdan keyin)
$> 375$ $\Delta 0,038\%$	Xushdan yo'qotish va 30-40 minut davomida nafas olish to'xtatishi oqibatida o'lim sodir bo'lishi
$> 750$ $0,075\%$	Bir necha daqiqa davomida nafas olish to'xtatishi oqibatida tezda o'lim sodir bo'lishi
1000 dan boshlab $\Delta 0,1\%$	


2.5-jadval. Vodorod sulfidining ta'siri

#### Ammiak

Azot o'z ichiga olgan substratlar (oqsilga boy substratlar, masalan beda yoki qush axlati) anaerob parchalanishi natijasida ammonium ( $\text{NH}_4^+$ ) hosil bo'ladi.

Umumiyliz azot tarkibining taxminan 50-60% fermentlangan substratda ammiakli azot shaklida saqlanadi.

Bu, o'z navbatida, eritma (dissosiatsiya) ammiak bilan ( $\text{NH}_3 + \text{H}^+ = \text{NH}_4^+$ ) nisbatida bo'ladi, bu asab va hujayralar uchun kuchli zahar hisoblanadi. Uning o'tkir hidini boshqa hech nima bilan aralashtirib bo'lmaydi. Bunday holda, toksik ammoniy foydasiga bo'ladiqan o'zgarishlar pH darajasi va substratning haroratiga bog'liq. Agar pH darajasi va harorat yuqori bo'lsa, muvozanat ammoniy tomon o'zgaradi. Agar pH=7 bo'lsa, unda ammonium-ammiakning nisbati 99:1 ga teng. pH=9 oshishi bilan nisbat 70:30 ga o'zgaradi. Laboratoriya sharoitida Krois (1986)  $\text{NH}_4^+$  ning 3 g/l konsentratsiyasidan boshlab, dastlabki kechikish qayd etilishini isbotladi. Shuningdek, u harorat oshishi bilan ta'sir kuchayishini aniqladi (2.14-rasm). Ko'pincha kechikish sezilarli darajadagi ko'piklanish orqali sodir bo'ladi.



2.14-rasm. Harorat va pH darajasiga bo'g'liq ravishda ammiak ta'siri ostida bakteriyalar rivojlanishining kechikishi.


Biroq, yuqoridagi ko'rsatkichlar absolyut emas. Oldinroq ta'kidlab

o'tilganidek, bakteriyalar ma'lum konsentratsiyaga o'rganib qolishadi, shuning uchun substratda 5 g ammonium-N va ammiak-N 1,15 g gacha bo'lgan, hech qanday kechikishlarsiz optimal ishlaydigan qurilmalar mayjud (Wolfring qurilmalari). Bundan tashqari, tolali material shaklidagi uglevodlarni qo'shilishi natijasida C/N nisbati to'ldiriladi va shu bilan kechikishlarning oldini olinadi. Shuningdek, yetkazib beriladigan substratning kunlik miqdorini kamaytirish suyultirish ta'siriga ega va shu bilan yuklanmani kamaytiradi. Fermentatorda haroratning pasayishi ham toksik xususiyatni kamayishiga olib keladi. O'ta bijg'itligan materialni takroriy etkazib berish holatida ammiak bilan zaharlanish xavfi ortadi. Bunday fermentlangan material C/N orasidagi kichik nisbat bilan tavsiflanadi va ta'sirni kuchaytiradi.

Ammiak deyarli barcha hollarda eritilgan suyuq holatda bo'ladi, bu filtrdan o'tgandan so'ng materialdan qayta foydalanish imkonini beradi. Fermentatorning o'lchamlarini rejalashtirish va uni joylashtirishda yuqorida barcha faktlarni hisobga olish kerak.

#### **Past sifatli substrat va mog'or bosgan material tufayli teskari ta'sir**

Biogaz bakteriyalari etarli miqdorda oziqlanishi kerak. Agar etkazib berilgan substrat sifatsiz bo'lsa, unda bakteriyalarning faoliyati to'xtaydi. Buni misol bilan yaxshi ko'rish mumkin (2.15-rasm). Taxmin qilish mumkinki, nafaqat substratning sifati bakteriyalarning faolligini cheklaydi, balki mog'or zamburug'lari bakteriyalar rivojlanishini sekinlashtiradigan toksinlarni ham chiqaradi.



2.15-rasm. Mog'orlangan material tufayli kechikishlar

#### **Ikkilamchi tarkibiy qismlarning susaytiruvchi ta'siri**

Ikkilamchi tarkibiy qismlar biotsenojni ham cheklashi mumkin:

1. Oltingugurt aralashmalari (issiqxonalarda karam, piyoz va piyoz etishtirishda).
2. Efir moylari (sitrus qobig'i, sarimsoq).
3. Shovul (oksalik) kislota (masalan, har xil turdag'i bedalar).
4. Sianidlar, taninlar va boshqalar moddalar.

Bu, asosan, faqat yuqorida sanalgan substratlar qurilmaga kiritilganda sodir bo'ladi. Lekin asta-sekin boshqa substratga aylanish orqali moslashish ham sabab bo'lishi mumkin.

#### **Og'ir metallarning cheklovchi ta'siri**

Og'ir metallarning toksik xususiyatlari ularning suvda eruvchanligiga bog'liq, bu esa o'z navbatida pH darajasiga bog'liq. Og'ir metallar hujayrali modda almashinuvি fermentlariga ta'sir qiladi va bakteriyalarning hayotiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, cheklovchi va toksik ta'sir o'rtaida aniq chegara yo'q (2.2-jadval). Bu esa yana bakteriyalarning yuqori moslashuvchanligi bilan bog'liq. Og'ir metall ionlari  $H_2S$  bilan eriydigan metall sulfidlarni hosil qilganda ish qobiliyatini yo'qotadi va qattiq cho'kma hosil qiladi.

Tarkibida og'ir metallarning yuqori konsentratsiyasi bo'lgan substratlar uchun (Ko-fermentasiyaga qarang) 2.2-jadval bilan moddalar konsentratsiyasini tahlil qilish va taqqoslash foydali bo'ladi.

### **Jarayonni rag'batlantiruvchi substratlar (oson parchalanadigan substratlar, fermentlar)**

Amaliyot natijalaridan ma'lum bo'lmoqdaki, donli ekinlar, yangi xantal va qand lavlagi qoldiglari kabi oson parchalanadigan substratlarni maqsadga muvofiq va cheklangan miqdorda qo'llanilsa qalin suzuvchi qobiqlar hosil bo'lmaydigan (0,5 m gacha) tez parchalanish effektini kuzatishimiz mumkin. Ushbu effektni engil parchalanadigan substratlarning qo'shilishi bakteriyalar massasining tiklanishiga va ko'payishiga olib kelishi, bu esa keyinchalik og'irroq materialni yaxshiroq va tezroq parchalay olishi bilan tushuntiriladi. Bunday qo'shimchalarни tayyorlashda ularni oziqlantirishni haddan tashqari oshirib yubormaslik kerak, aksincha u peroksidatsiyaga, ya'ni mutlaqo teskari ta'sirga olib keladi. 4 tonna makkajo'xori silosi, 4,8 tonna makkajo'xori va 3 tonna boshqa o'tlar silosidan iborat ratsionda 0,5 tonna don ekin chiqindisini qo'shish maqsadga muvofikdir.

Hozirgi kungacha ham, bugun ham biogaz qurilmalari uchun qo'shimchalar sotilmoqda, bu esa ishlab chiqaruvchilarining fikriga ko'ra, jarayonni barqarorlashtiradi, fermentasiya vaqtini tezlashtiradi va parchalanish darajasini oshiradi, shuningdek gaz ishlab chiqarishni sezilarli darajada oshiradi. Hech shubha yo'qki, bunday substratlar anaerob parchalanishini va bakteriyalarning ishlashini qo'llab-quvvatlaydigan texnologiyalardir. Masalan, fermentlar (masalan, sellyuloza) yoki termal ultratovushli ishlov berish ( $70^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirish) qattiq parchalanadigan tuzilmalarni olib, bakteriyalarga kirishini osonlashtiradi. Silikatlar yoki loyqasimon minerallarining qo'shilishi bakteriyalar joylashish yuzasini va shu bilan birga parchalanish darajasini oshiradi. Shuningdek, mikroelementlarning qo'shilishi (ular yetishmaganda) bakteriyalar faolligining oshishiga olib keladi. Parchalanish yoki gaz ishlab chiqarish darajasining o'sishi turli ishlab chiqaruvchilar tomonidan 10 dan 25% gacha ortishi aytib o'tilgan.

Afsuski, hozirgi kunga qadar taqqoslashning ilmiy natijalari yo'q va qaysi


substratlar buni amalga oshirishi mumkin, u qanday natija beradi va ular qanday aniq harakat qiladi.

2003/2004 yil qish mavsumida Sharqiya Bavariya biogaz uyushmasi (Uolter Danner) sellyulozadan foydalangan va sinovdan o'tkazgan. Gaz ishlab chiqarishda sezilarli o'sish kuzatilmagan bo'lsa-da, substrat yaxshiroq parchalanib, aralashtirish va nasos bilan bog'liq harajatlami kamaytirgan. Amaliyot uchun gaz samaradorligini oshiradigan vositalardan foydalanish qanchalik foydali ekanligini hisoblash tavsiya etiladi. Agar vosita gaz yoki elektr energiyasini ishlab chiqarishni ko'paytirishning foydasiga qaraganda qimmatliroq bo'lib chiqsa, unda bunday vositalardan foydalanish samarali emas. Aks holda, mahsulotni kamida ikki davr mobaynida fermentasiya uchun tekshirish va muvaffaqiyatli natijalardan so'ng sotib olish mumkin. Bunday holda siz vosita samarasini aniq o'lchash uchun odatdag'i ratsionga va uni uzatish usuliga amal qilishga e'tibor berishingiz kerak.

### **2.3. Substratlar va ularning parchalanish jarayoniga ta'siri**

#### **Substrat tarkibi va jarayonning barqarorligi**

Har bir substrat, ozuqa, oziq-ovqat, biologik yoki organik chiqindilar 2.16-rasmida keltirilgan moddalar guruhlaridan iborat. Substratni baholashda faqat quruq massadan, bunday holda faqat uning organik qismidan metan ishlab chiqarilishi mumkinligini hisobga olish kerak. Shuning uchun substratlar aralashmasining tarkibiy qismlarini tanlashda umumiylashtirish massaga nisbatan organik quruq massanining tarkibi birinchi mezonidir. Shu sababli, 1 tonna dondan olinadigan gazning miqdori shu butun o'simlikning silosidan yoki bardalardan foydalangandan ko'ra bir necha baravar ko'p bo'lgani ajablanarli emas, chunku ularda gaz hosil bo'lmaydigan suv miqdori ancha yuqoridir (2.6-jadvalga qarang).



2.16-rasm. Kirchgessnerga ko'ra, substratlarni oqsillar, yog'lar va uglevodlar guruhlariga bo'linishi.

Noorganik komponent – analitik materiallarda *xom kul* deb ham ataladigan, yig'ib olingen ekin hosili va go'ngga yoki organik chiqindilarga tushadigan qum, tuproq, mayda toshlar, ishllov berish dastgohlaridan metall qirindilar va shunga o'xshash moddalardan iborat. Bunday komponentlar biogaz ishlab chiqarish jarayonida nomaqbuldir, chunki ulardan biogaz olish mumkin emas va shu bilan birga ular texnik muammolarga olib keladi (cho'kma hosil qilish kabi). Masalan, lavlagi bunday fraksiyani juda ko'p miqdorda o'z ichiga oladi.

Turli substratlardagi suv miqdori (% hisobida)	
Barda	90-94
Quruq yem, don	12-15

Yashil yem, ildizlar	75-85
Sanoat yemi	10-15
Silos	80
Quruq yashil massa (hashak)	5-12
Senaj	60-70

2.6-jadval. Turli substratlardagi suv miqdori.

Organik moddalar oqsil, yog'lar, shuningdek oson va qattiq parchalanadigan uglevodlardan iborat.

*Yog'lar* – bu, unga bittadan uchtagacha bir xil yoki turli xil yog' kislotalari (karbon kislotalari) biriktirilgan uch belgili glitserin alkogolining turli ko'rinishlari. Ularni mono-, di- yoki triglitseridlar deb ataladi. *Yog'*lar har xil triglitseridlarning doimiy aralashmasidir hamda *yog'* kislotalari va glitserinlarga ajraladi. *Yog'* miqdori o'ta ko'pligi organik kislotalarning to'planishiga olib keladi, shuning uchun pH pasayadi, sirkva kislotasi va metan hosil bo'lishi sekinlashadi.

*Proteinlar (oqsillar)* – aminokislotalardan tashkil topgan murakkab molekulalar. Uglevodlar va *yog'lar* kabi ular uglerod C, vodorod H, O kisloroddan iborat, bundan tashqari ular tarkibida azot, oltinugurt va fosfor mavjud. Proteinlar peptidlarga, so'ngra aminokislotalarga va oxiri organik kislotalarga parchalanadi. Protein va *yog'*ning parchalanishida ratsionning tarkibi uglevodlarning parchalanishi bilan taqqoslanganda unchalik ahamiyat kasb etmaydi.

Uglevodlar guruhi juda *oson parchalanadigan* va murakkab tuzilishga ega, *qiyin parchalanadigan aralashgan uglevodlarga* bo'linadi.

- Monosaxaridlar: shakar, glyukoza, fruktoza
- Oligosaxaridlar (10 tagacha monosaxaridlar): saxaroza (xom shakar), laktosa (sut shakar), maltoza (soloda<sup>6</sup> shakari)
- Polisaxaridlar (yuqori molekuliyar massali): kraxmal, glikogen, selluloza, soloda inulin<sup>7</sup>.

<sup>6</sup> Pivo tavyorlashda foydalilaniladigan donli o'simliklarning undirilgan va maydalangan hosil bo'lgan modda

<sup>7</sup> Inulin,  $(C_6H_{10}O_5)_n$  – polisaxaridlar guruhidagi organik modda, D-fruktoza polimeri.

- Geteropolisaxaridlar (murakkab tuzilishga ega bo'lgan aralash uglevodlar): gemisellyuloza, pektinlar, lignin - bu aslida uglevod emas, balki analitiklar tomonidan uglevodlar guruhiga kiritilgan. Bular o'simliklarning yog' och moddasi va bakteriyalar, kislotalarning parchalovchi ta'siriga chidamli. Odatda lignin hazm bo'lmaydi deb qabul qilingan.

Uglevodlar bakteriyalar tomonidan oddiy shakarga bo'linadi va kam yog'li kislotaligacha (sirka, yog', propionik) parchalanadi. Hosil bo'lgan kislota miqdori va har bir alohida kislotaning foizi miqdori uglevod tarkibiga bog'liq. Kavsh qaytaruvchi juft tuyqlilar hazm qilish jarayonida (ularning oshqozoni juda qisqa fermentasiya davriga ega bo'lgan biogaz qurilmasidan boshqa narsa emas, 2.7-jadval), kraxmal va shakarga boy substratlar propion va yog' kislotasi miqdorining oshishiga olib kelishini bilamiz. Shuningdek, sellyuloza kabi tolaga boy substrat, yog' kislotalari tarkibini sirka kislotasining ustunligi yo'naliishi bo'yicha o'zgartiradi. Bundan tashqari, uglevodlar tarkibi pH ning darajasi va tirik mikroorganizmlar sonini aniqlaydi. Agar oziq-ovqatda juda ko'p kraxmal va shakar bo'lsa, kislotali muhit ta'sirida pH darajasi pasayadi, bakteriyalar soni tez ko'payadi. Bu uglevodlarning yanada tezroq parchalanishiga va fermentatorning o'ta oksidlanishiga olib keladi.

pH darajasi pasayadi. Propion kislotasini hosil qiladigan bakteriyalar soni ortadi, sirka kislotasini hosil qiladiganlar esa, aksincha kamayadi. Shunday qilib, metan uchun boshlang'ich material sifatida sirka kislotasining shakllanishi sekinlashadi. Bunday hollar kavsh qaytaruvchi hayvonlar iste'mol qiladigan oziq-ovqati tufayli kelib chiqadi (oshqozon asidozi<sup>8</sup>), ammo bunda biogaz qurilmasi zarar ko'rmaydi.

Bug'doy, makkajo'xori yoki qand lavlagi kabi shakar yoki uglevodlarga boy bo'lgan substratlardan foydalanilganda ushbu materiallarning yetkazib berilishini diqqat bilan kuzatib borish kerak. Bu, ehtimol, amalda don yoki qand lavlagidan faol foydalanish keng tarqalmaganligining sabablaridan bo'lishi mumkin. Bunday

jarayondan an'anaviy bir bosqichli qurilmalarda foydalanish juda qimmatga tushadi.

### Uglevod birikmalarining bakteriyalarga, pH, parchalanish tezligi va yog'

#### kislotalari birikmalariga ta'siri

#### Ratsiondag'i nisbiy tarkib

	Sellyuloza tarkibli	Kraxmal tarkibli	Qand tarkibli
Mikroorganizmlar tarkibi	Nisbatan past	Nisbatan yuqori	Nisbatan past
pH darajasi	Yuqori (6,5)	Quyi (5,7)	Juda quyi (5,1)
Parchalansh	Sekin	Tez	Juda tez
<b>Yog' kislotasi namunalari</b>			
Sirka kislotasi	Yuqori	Quyi	Quyi
Propion kislotasi	Quyi	O'rtacha yuqori	Yuqori
Yog' kislotasi	Quyi	O'rtacha yuqori	Yuqori

2.7-jadval. Uglevodli birikmalarining kavsh qaytaruvchi hayvonlarning oshqozonidagi bakteriyalarga, pH, parchalanish tezligi va yog' kislotalarining shakllanishiga ta'siri (1987 yildagi Kirchgessner materiallari asosan tuzilgan).


#### Substratning biogaz miqdoriga va biogazning shakllanishiga ta'siri

Har bir guruhdagi moddalar: oqsillar, yog'lar va uglevodlardagi mos ravishda hosil bo'ladigan biogaz, undagi metanning foizi va olingan metanning miqdori aniqlanadi (2.17-rasm).

1/kg, oQMdan biogazning chiqshi;  
% - metanning ulushi.

Substratning biogaz miqdori va sifatiga ta'siri

<sup>8</sup> Acidoz (lat. Acidus - nordon) - organizmning kislota-ishqor muvozanatining kislotalikning ortishi (pH pasayishi) tomon siljishi.




2.17-rasm. Moddalar guruhalining biogaz miqdori va sifatiga ta'siri [78].

Biogazdagagi metanning maksimal miqdori oqsillardan olinadi – 71%; shuningdek, yog'lar – 68% yuqori sifatlari metan hosil qiladi. Eng yomoni natija uglevodorodlarda – atigi 50% metan. Garchi uglevodlar odatda oqsillarga qaraganda 90 litr ko'proq biogaz ishlab chiqarsada, uglevodlar metan ulushi kamligi sababli 1 kg organik quruq moddaga atigi 400 litr metan bilan cheklandi. Yog'lar 1 kilogramm quruq organik modda hisobiga 850 litrgacha metan hosil qiladi – bu yog'larda metanning eng yuqori mahsuldarligi. Proteinlar esa har kilogramm organik quruq moddaga 490 litr metan ishlab chiqaradi. Agar faqatgina hosil bo'lgan metan miqdoriga tayanadigan bo'lsak, tarkibida yog'lar va oqsillar ko'p bo'lgan substratlar aralashmalarini afzal bilish mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, gaz chiqarishning yagona ko'rsatkichi yo'qligi aniq ko'rinish turibdi. Substrat aralashmasining tarkibi o'zgarganda, gaz hosil bo'lishi va uning sifati ham o'zgaradi. Ushbu o'zaro bog'liqlik bir xil substrat uchun gaz hosil bo'lishi bo'yicha ma'lumotlardagi katta tebranishlarda aks etadi (2.18-rasm).

#### Har xil turdag'i substratlardan gazning chiqishi va ularning dispersiyasi



- |  |   |                         |                                       |
|--|---|-------------------------|---------------------------------------|
| 1. YShQ (yirik shoxdi qoramol) qattiq go'ngi         | 6. Shinni (qand lavlagi qayta ishlanishi qoldig'i)  | 12. Bug'doy somoni      | 21. Pivo tayyorlash                   |
| 2. YShQ (yirik shoxdi qoramol) suyuqholatdagi go'ngi | 7. Kartoshka qoldig'i                               | 13. Lavlagi poyasi      | 22. Ot go'ngi (yangi)                 |
| 3. Somon   | 8. Parranda go'ngi                                  | 14. Biochiqindi         | 23. Lavlagi pulpasi (ezilgan lavlagi) |
| 4. Arpa somoni                                       | 9. Suuyq cho'chqa go'ngi                            | 15. Sabzavot qoldiqlari | 24. Qand lavlagi silosi               |
| 5. Cho'chqa oshqozonidagi massa                      | 10. Barglar   | 16. Beda                | 25. Makkajo'xori poyasi (quruq)       |
|  | 11. Kavsh qaytaruvchi huyvonlar oshqozonidagi massa | 17. O'r'ilgan maysa     | 26. Yog' tutgichlardagi               |
|  |   | 18. Makkajo'xori silosi | yog'                                  |
|  |   | 19. O'r'o'lannar silosi |                                       |
|  |   | 20. O'r'o'lannar        |                                       |
|  |   |                         |                                       |

2.18-rasm. Har xil turdag'i substratlardan gaz chiqishi.

#### 2.4. Jarayonni tavsiflovchi parametrlar

##### Fermentasiya kamerasiga substratni yuklash

Fermentasiya kamerasiga substrat yuklash – foydalanuvchi tomonidan har kuni fermentatorga yetkazib beriladigan organik quruq moddani anglatadi. Odatda, bu kuniga fermentator  $m^3$  hajmi uchun to'g'ri keladigan organik modda

<sup>9</sup> Flotatsiya (fr. *flotatsiya, floster - suzish*) – bu foydali qazilmalarni qayta ishslash usullaridan biri bo'lib, u sirtlamning solishturma energiyasidagi farq tufayli mineralarning interfazada qolishi qobiliyatidagi farqga asoslanadi. Flotatsiya paytda gaz pufakehalari yoki yog' tomchilari suv bilan namlangan zarrachalarga yopishadi va ularni yuzaga ko'taradi.

kilogrammlarda belgilanadi. Bijg'itish kamerasing mumkin bo'lган yuklash o'lchami, avvalambor tanlangan fermentasiya harorati va bijg'ish vaqtiga bog'liq bo'ladi. Harorat qancha past bo'lsa va fermentasiya vaqt qanchalik uzoq bo'lsa, fermentatorni yuklash darajasi shunchalik ko'p bo'ladi va shunchalik ko'proq organik moddalarini kiritish mumkin.

Qurilma turiga qarab bijg'itish kamerasing substrat yuklanmasini maksimal darajaga ko'tarish mumkin. Fermentasiya kamerasi yuklanmasi qanchalik ko'p bo'lsa, parchalovchi bakteriyalarning chegaraviy ko'rsatkichlariga yetishish ehtimolligi shunchalik ortadi va shu bilan jarayonni yetarlicha to'yintirish mumkin. Shuning uchun, substrat bilan to'liq to'ldirilgan va ekspluatatsiyadagi qurilmalarga, ayniqsa, ehtiyoj bo'lish kerak.

Amalda, kuniga 2-3 kg *organik quruq modda/m<sup>3</sup>* yuklanadigan fermentatorlar ko'p uchraydi. Bunda gaz chiqishining pasayishi bakteriyalar rivojlanishining kechikishi tufayli boshlanganmi yoki yo'qligini nazorat qilish turish kerak bo'ladi. Agar bijg'ish kamerasing yuklanishi 4-5 kg organik quruq moddadan iborat bo'lsa, unda bakteriyalarning mahsulдорligi pasayadi va bu biogaz hosil bo'lishining pasayishiga olib keladi. Bunda tizim haddan tashqari yuklangan deb hisoblanadi. Jarayon bilan bog'liq muammolar bo'lmasligi uchun 1 kg *organik quruq modda/m<sup>3</sup>* miqdorida yuklama bilan ta'minlansa maqsadga muvofiq keladi.

Fermentatorning substrat yuklanmasi qurilma yuklanishining nazorat parametridir. Biogaz qurilmasi parametrlarini rejalashtirish va ishlab chiqishda buni albatta hisobga olish zarur!

Yotqizilgan va gorizontall shaklda tayyorlangan oqimli fermentatorlarda yuklanma ko'proq bo'ladi; adabiyotlarda bu bo'yicha miqdor kuniga 10 yoki undan ko'p kg *organik quruq modda/m<sup>3</sup>* bo'lishi haqida ma'lumotlar ham bor. Ammo bu miqdor bilan ehtiyoj bo'lish va alohida e'tibor ko'rsatish kerak bo'ladi. Agar bunday konstruksiyaga diqqat bilan qarasangiz, fermentatordan keyin yana bir fermentator, aniqrog'i *qo'shimcha parchalagich* – fermentasiya kamerasini kattalashtirish va shu bilan fermentator yukini kamaytiruvchi qurilma

o'matilganligini ko'ramiz.

Texnologik qo'llanilishiga ko'ra qo'shimcha parchalagich fermentatorga mos keladi va unda texnik xizmat, tozalash ishlari olib borilsa, fermentator sifatida vaqtinchalik foydalanish mumkin. Parchalagich hajmiga qarab substratning ta'sirini 50-80 kunga cho'zish orqali biogaz hosil qilishni ko'paytirish uchun kerak bo'ladi.

, Shuningdek, gorizontal qurilmalarda o'ta bijg'itilgan materialning qaysi qismi substratning yangi qismi bilan aralashtirilgan bo'lsa, substratni suyultirishni ham e'tiborga olish kerak. Yangi va bijg'itilgan material aralashtirilganligi sababli u suyultiriladi va umumiyy massada organik quruq moddalar miqdori kamayadi. Ko'pincha, fermentasiya kamerasini yuklanmasi sifatida faqat kiritilgan materialning tarkibi ko'rsatiladi.

Fermentatorning shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar, unga kuniga kamida 4 kg *organik quruq modda/m<sup>3</sup>* ga yuklanishi tavsiya etiladi.

Fermentasiya kamerasing yuklanmasi *Br* – substratning *kunlik* yuklanadigan miqdori – undagi organik modda miqdorining fermentator umumiyy hajmiga nisbatining foizlardagi ifodasi orqali hisoblanadi (2.8-jadvalga qarang).

*Br = fermentatorning har m<sup>3</sup> hajmiga yetkazib beriladigan kunlik organik quruq modda (oQM), kg*

#### *Fermentatorning yuklanmasini hisoblash*

*Fermentatorga har kuni 6 m<sup>3</sup> makkajo 'xori silosi, 8 m<sup>3</sup> qoramol chiqindisi, 6 m<sup>3</sup> o'tlar silosi va 0,5 tonna donli shrot ni qabul qiladi.*

*Fermentator va qo'shimcha parchalovchi sig'imlar har birining hajmi 800 m<sup>3</sup>, ya'ni umumiyy holda 1600 m<sup>3</sup> fermentatordan samarali foydalanish mumkin.*

*Daslab, substratni hajmiy birlikdan og'irlilik birligiga aylantirish, so'ngra yangi massadan quruq massaga o'tkazish, so'ng uni organik quruq massaga o'tkazish kerak:*

- *Bir tonna qoramol chiqindisining 25% i quruq modda qolgan qismi suvdir.*

- 4,8 tonna ushbu chiqindining 25 foizi 1,2 tonna quruq massa, uning esa 80 foizi quruq organik massa, qolgan qismi kul, minerallar, tosh bo'laklari va boshqalar.

- 1,2 tonnaning 80% 960 kg ni tashkil qiladi.

Aslida olingan 4800 kg chiqindidan atigi 960 kg qismidan biogaz olish mumkin, chunki faqat uning tarkibida organik moddalar mavjud. Qolgan hammasi suv va noorganik moddalar, chiqindining mineral tarkibiy qismlaridir.

Shu tarzda, boshqa substratlar uchun ham hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin.

	Kiritilgan substrat m <sup>3</sup> /d	Maxsus zinchlik kg/m <sup>3</sup>	Kiritilgan yangi massa kg/d	Quruq modda ulushi %	Kiritilgan quruq modda kg/d	Organik quruq modda ulushi %	Kiritilgan organik quruq modda kg/d	Fermentator yuklanmasi organ.QM/m <sup>3</sup> /d
Go'ng	8	600	4800	25	1200	80	960	0.60
Makkajo'xori silosi	6	650	3900	30	1170	94	1100	0.69
O'tlar silosi	6	500	3000	40	1200	89	1068	0.67
Donli shrot	0,7	700	500	87	440	98	426	0.27
Umumiy natija (summa)							3554	
2,2								
Qurilma fermentatoriga jami 2,2 ke organik QM/m <sup>3</sup> /d yuklash mumkin								
Shunday qilib, fermentator o'rtacha yuklanmaga ega bo'ladi va agar zarur bo'lsa uni ko'paytirish mumkin.								

2.8-jadval. Fermentatorning yuklanmasini hisoblashga misol.

Agar fermentatorning ma'lum hajmida, kunlik ta'minlanadigan substrat miqdori oshsa, fermentasiya vaqtini kamayadi. Natijada, bakteriyalarga materialni chiritish (parchalash) uchun kamroq vaqt qoladi va eng yomoni u yerdan "hazm qilinmagan" moddalar chiqadi. Fermentasiya kamerasining yuklamasi va fermentasiya vaqtini bir-biriga mos bo'lishi kerak.

### Fermentasiya vaqtini

Gidravlik fermentasiya vaqtini – bu substratning nazariy jihatdan fermentatororda bo'lishi vaqtini. To'liq aralashirilgan fermentatorlar uchun bu ko'rsatkish o'rtachalashirib hisoblanadi. Substratning harakatlanishi bitta tiqin (tromb) ning harakati sifatida ro'y beradigan fermentator uchun, nazariy fermentasiya vaqtini haqiqiy vaqtga ko'proq mos keladi. Chunki kiritilgan substratning ko'p qismi butun fermentator orqali xuddi bitta tiqin itarilib harakatlanganidek kabi qaraladi. Shuning uchun, aynan shu substratlar to'liq aralashirilgan tizimlarda gorizontal oqimli tizimlariga qaraganda fermentasiya uchun uzoqroq vaqt talab qiladi.


Fermentatorda substratning fermentasiya vaqtini substratning parchalanishiga qarab hisoblanadi. Oson va tez parchalanuvchi substratlar qiyin parchalanuvchilarga nisbatan qisqaroq vaqt talab etiladi (2.4-rasm).

Fermentatorda minimal parchalanish vaqtini o'lcov birligi sifatida mos ravishda bakteriya turining generatsiya vaqtini hisoblanadi. Fermentasiya vaqtini qanchalik qisqa bo'lsa, shunchalik bakterial massasini ham barobar oshirolmaydi, bunda esa o'z navbatida fermentatordagи bakteriyalar sof massasini yo'qotadi va gaz hosil bo'lishi kamayadi. Masalan, ba'zi bakteriyalar guruhi massasini ikki baravar oshirish uchun 10 kungacha vaqt talab etiladi (2.3-rasmga qarang), ya'ni bu vaqt fermentasiya uchun zarur bo'lgan vaqtning quyi chegarasidir.

Fermentasiya vaqtining yuqori chegarasi texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan belgilanadi. Shunday lahzalar paydo bo'ladiki, ishlab chiqariladigan gaz miqdori shunchalik kamayadi va fermentatorning hajmini oshirish ishlab chiqarilgan gazga qaraganda qimmatroqqa tushadi. Fermentatorda substratning bijg'ish vaqtini fermentasiya harorati bilan birga parchalanish darajasiga, gaz chiqishiga va gaz hosil qilishga katta ta'sir ko'rsatadi. Qisqa fermentasiya vaqtini kuchli portlash effektiga olib kelishi ham mumkin (fermentasiya kamerasining har bir m<sup>3</sup> ga nisbatan), chunki bunda tez "taslim" bo'ladigan substratlar avval parchalanadi. Agar yetkazib berilayotgan organik substratning to'liq miqdoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, u holda qisqa fermentasiya vaqtini kam gaz hosil bo'lishi (har

*kg organik QM* ga nisbatan) va kuchsiz, sezilarziz parchalanish darajasi bilan bog'liq bo'ladi. Uzoq fermentasiya vaqt bilan, aksincha, gaz hosil bo'lishi va parchalanish kuchayadi hamda fermentatorning har  $m^3$  ga nisbatan portlash ta'siri kamayadi. Fermentasiya vaqtining gaz hosil bo'lishiga ta'siri, organik quruq modlalar miqdoriga nisbatan 2.19-rasmida ko'rsatilgan. Bundan aniq ko'rinish turibdiki, turli xil hayvonlardan tegishli substratlar o'tasida katta farq mavjud. Termofil rejimda parranda go'ngi fermentasiyaning 30 kunidan keyin sezilarli darajada "gaz hosil qiluvchi xususiyatlarini yo'qtdi" deb hisoblanadi. Shuningdek, qoramol va cho'chqalarning suyuq go'ngi 40 kun, qattiq go'ng 50 kunni talab qiladi. Bundan tashqari, egri chiziqlarning o'zgarishi shuni ko'rsatadiki, gazning katta qismi fermentasiyaning dastlabki bosqichida, oxirgi bosqichda esa oz miqdorda hosil bo'ladi. Amalda, gaz ishlab chiqarishning ozgina ulushiga ega bo'lgan eng so'nggi bosqichlardan voz kechiladi.

Shu kabi bog'lanishlar energetik o'simliklar va boshqa organik chiqindilarning fermentasiyasiga ham tegishlidir.



2.19-rasm. Termofil rejimda substratning turiga bogliq ravishda gaz hosil bo'lishining o'ziga xosligi va fermentasiya davomiyligi (parranda go'ngi, cho'chqa va qoramol go'ngi, shuningdek qattiq go'ngi ham).

Fermentasiya vaqt fermentasiya kamerasi hajmining yetkazib berilgan substratning kunlik miqdoriga nisbatli orqali hisoblanadi.

1985 yildan beri o'rtacha fermentasiya vaqt 35 kundan 51 kungacha oshdi. Ushbu ma'lumotlar biogaz qurilmalarida fermentasiya davomiyligini o'lchash bo'yicha federal dastur joriy etilgandan so'ng olingan, ammo 2004 yilda bu ko'rsatkichlar bundan ham yuqori edi. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, qurilmalarning 55% o'rtacha 60 kundan 120 kungacha bo'lgan fermentasiya davri bilan ishlaydi.

Albatta, iqtisodiy nuqtai nazardan, fermentasiya vaqtini va u bilan bog'liq fermentatorning hajmini iloji boricha aniq hisoblash tavsija etiladi, chunki bu qurilish xarakatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shunga qaramay, fermentasiya vaqt shunday tanlanishi kerakki:

- fermentatorning yuklanishi kuniga 4 kg organik QM/ $m^3$  oshmasin;
- substrat tarkibi va miqdoridagi o'zgarishlar ma'lum chegaralarda qolsinki, bunda qurilmada keyingi ozgarishlarni amalga oshirish imkoniyati saqlanib qolsin.

Shuning uchun, fermentatorning hajmini hisoblashda, rezervuar hajmiga qo'shimcha 20 foiz o'lchamni hisobga olish kerak.

Tez parchalanadigan va o'ta oksidlanishga moyil bo'lgan substratlar, shuningdek azot miqdori yuqori bo'lgan va bakteriyalar rivojlanishida ammiakning halaqitiga olib keladigan substratlar uchun fermentasiya davrining uzoqroq davom etishini hisobga olish kerak.

Suyuq go'ng ko'rinishidagi substrat uchun taxminan quyidagicha fermentasiya davri amal qiladi:

- Jarayon harorati 20-25 °C, fermentasiya 60-80 kun
- Jarayon harorati 30-35 °C, fermentasiya 30-50 kun
- Jarayon harorati 45-55 °C, fermentasiya 15 - 25 kun.

Energetik o'simliklar uchun fermentatorning bijg'ish vaqtini kamida 42 kun bo'lishi kerak. Qishloq xo'jaligini qayta ishslash chiqindilaridan hosil bo'lgan substratlar odatda qisqa, ya'ni 20 dan 35 kungacha fermentasiya davriga ega.

Gazni tahlil qilish laboratoriyalarda, gaz hosil bo'lish tezligi bo'yicha tadqiqotlar substrat turiga qarab asosan 4-6 haftada yakunlanadi, chunki bu muddatdan so'ng hosil bo'ladigan gaz miqdori kamayib ketadi. Laboratoriya da har doim amaliyotga nisbatan yaxshiroq sharoit yaratish ehtimoli bo'lganligidan kelib chiqib agar ushbu davrga yana 2 hafta qo'shsak, qishloq xo'jaligidagi amaliyotlar uchun 50 kunlik minimal muddat ham qoniqarli hisoblanadi.

### Parchalanish darajasi

*Parchalanish darajasi* ma'lum fermentasiya vaqt oralig'ida parchalangan organik quruq moddalarning ulushini ko'rsatadi. Agar substratda lignin yo'q bo'lsa mineralanish holatigacha to'liq parchalanish nazariy jihatdan mumkin bo'ladi. Amalda, to'liq parchalanish juda uzoq vaqt fermentasiya davrini talab qiladi, chunki parchalanish tezligi har doim ham bir xil bo'lmaydi, aksincha, dastlabki bosqichdan o'tgandan so'ng u sezilarli darajada pasayadi va shunga mos ravishda gaz hosil bo'ladi (2.4 va 2.5-rasmlar). Bu shuni anglatadiki, hosil qilingan gazning oxirgi ulushlari (rezervuar hajmiga bog'liq) yuqori harajatlarga to'g'ri keladi. Parchalanishning yuqori darajasi substratning tarkibiga bog'liq bo'lib, u gaz ishlab chiqarish intensivligini aks ettiradi va amalda bu darajaga erishish samaralidir. Amaliyotda parchalanish 30-70% darajasida kuzatiladi. Fermentasiyaning o'rtacha davrida organik moddalarning o'rtacha parchalanishi 60% gacha bo'ladi. Faqat qayta tiklanadigan xom ashyo bilan ishlaydigan qurilmalarda organik quruq moddalarning parchalanish darajasi 80% ga yetadi.

Agar substrat biroz parchalanadigan bo'lsa, unda qurilmaning atrof-muhitga ijobiy ta'siri, ayniqsa yoqimsiz hidlarning pasayishi va korroziv ta'sir deyarli kuzatilmasligi bilan seziladi.

### 2.5. Jarayonni nazorat qilish va boshqarish

Biogaz qurilmasi yaxshi ishlashini qanday aniqlash mumkin? Biogaz ishlab chiqarish yopiq tizimda amalga oshirilganligi sababli, fermentasiya jarayonlarining to'g'ri kechayotganligini aniqlash tashqi faktorlarga bog'liq ekanligi kelib chiqadi.

Ishlab chiqarilgan gaz generatordan foydalangan holda elektr energiyasiga aylantiriladigan biogaz qurilmalari uchun liniyada ishlab chiqarilgan oqim miqdori indikator bo'lishi mumkin. Bunday qurilmalar ma'lum bir quvvatni generatsiyalovchi mashinalar uchun ishlab chiqiladi. Agar doimiy o'zgarmas miqdorda elektr toki ishlab chqarilsa, qurilma yaxshi ishlayotgan hisoblanadi. Shu ma'noda, optimallashtirish bo'yicha muayyan choralar ko'riliши mumkin, masalan, iste'mol qilinadigan energiyani hisobga olgan holda alovida agregatlarning ishlashini o'zaro muvofiqlashtirish, sarf qilinadigan materiallarni kamayishiga mos ravishda profilaktik ta'mir ishlarini optimallashtirish, substratni boshqarish – yetkazib berish ketma-ketligidan boshlab turlarni tanlash, materiallarni saqlash va guruhlarini o'zaro muvofiqlashtirishgacha.

Ammo qurilmani optimallashtirish bosqichini boshlashdan oldin barqaror ish jarayoniga erishish zarur. Kundalik chetlanishlarsiz yuqori darajadagi uzlucksizlikka ega gaz ishlab chiqarish jarayoni barqarorlikning birinchi belgisidir. Eng oddiy holatda esa, gazgolder hajmidagi gazning o'zgarmas ko'rsatkichlari orqali barqaror va bir maromdag'i jarayonni aniqlash mumkin.

Yana bir nazorat qilish usuli – ishlab chiqarilgan biogaz miqdorini hisobkitoblarga ko'ra substrat ishlab chiqarishi kerak bo'lган gaz miqdori bilan taqqoslash. Agar biz ushbu hosil qilingan gazni qurilmaga kunlik yetkazib beriladigan organik substrat ( $oQM/sutka$ ) miqdori bilan taqqoslasak, u holda biz muayyan qurilma uchun biogaz ishlab chiqarishning miqdor ko'rsatkishiga ega bo'lamiz.

Fermentatorning  $m^3$  hajmida hosil qilinadigan  $m^3$  o'lchov birligida ifodalangan oziga xos biogaz miqdori muayyan qurilma uchun boshqaruv parametrlari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Agar ushbu ishslash parametrlari barqaror bo'lsa, unda bizga gazning sifati haqida ma'lumot bermasa ham, jarayon barqaror kechayotgan bo'ladi. Agar ishlab chiqarilgan elektr energiyasi va qayta ishlangan gaz miqdori o'rtaida mutanosiblik aniqlasak, unda gazning sifatini baholay olamiz. Agar tok miqdori iste'mol

qilinayotgan gaz miqdoridan kam bo'lsa, bu biogazning past sifati bilan bog'liq bo'ladi (albatta, generatordagi texnik yo'qotishlarni hisobga olmaganda).

Agar kunlik ishlab chiqarilgan gaz miqdori juda past bo'lsa, buning sababini substratdan yoki ishlatilgan texnikadan ko'rish mumkin.

Substrat tomonidan gazning kamayishiga yoki juda kam miqdorda ishlab chiqarilishiga ta'sir etuvchi faqat to'rtta omil mavjud:

1. Substratning noturg'un tarkibi (tarkibniq o'ta oksidlanishi – juda oson parchlanadigan substratning o'ta ko'p miqdordaligi yoki agar aralashmada azot ko'p bo'lsa, azot tufayli kechikish natijasida);
2. Fermentatori haddan tashqari ko'p yuklash (o'ta to'yintirish);
3. Juda oz miqdordagi substratni yuklash (yetarlicha to'yintirmaslik);
4. Ozuqa moddalarining yetishmasligi yoki zararli moddalarining mavjudligi.

To'liq ishonch hosil bo'lganidan keyingina (1÷3 omillarning ta'sirini istisno qilgan holda), mikroelementlar yoki zararli moddalar kabi bunday o'ziga xos omillarning mavjudligi bo'yicha izlanishlar olib birish mumkin.

Texnik nuqtai nazardan olganda, yetkazib berish (uzatish) tizimlari, aralashtirgich va harorat ko'pincha gaz ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib qoladi. Jarayonni nazorat qilish va tartibga solish uchun ba'zi parametrlarni o'lchash va ularni qayd etib borish kerak. Ayniqsa, quyidagi parametrlar shunga tegishlidir:

- fermentatordagi substratning harorati;
- ishlab chiqarilgan gaz va elektr energiyasi miqdori;
- kunlik yetkazib beriladigan substratlarning turi va miqdori;
- oltengugurt va ammiak miqdorini har kuni o'lchash muayyan substratlar uchun yoki substrat aralashmasi tarkibi o'zgartirganda zarur;
- fermentatorga yuklanmasi va fermentasiya vaqtini muntazam ravishda kuzatib borish;
- yog' kislotalari yoki bufer zahiralarining shakllanishini, yoki gazdagi  $H^+$  ionlarining konsentratsiyasini muntazam ravishda o'lchash, ayniqsa substrat aralashmasi tarkibi o'zgarganda.

Ushbu parametrlarni hisobga olganda, gaz va elektr energiyasini ishlab chiqarish (yoki taqqoslash), fermentator yuklanmasi, fermentasiya vaqt, harorat, gaz sifati, oltingugurt va azot konsentratsiyasi bilan bog'liq jarayonning barcha muhim xususiyatlarini nazorat qilish yoki hisoblash mumkin. Shu bilan birga, nafaqat ma'lumotlar, balki bu jarayon qaysi yo'nalishda rivojlanayotganligini ko'rsatadigan tendensiyalar ham yordam beradi. Ushbu parametrlarni qayd etish va hisoblash uchun korxonani boshqarishni osonlashtiradigan maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari mavjud.

Oldinroq aytib o'tilgan jarayonning barqaror kechishini ta'minlovchi chora tadbirlar bayoni quyida keltirilgan:

- fermentator ichidagi substratning harorati imkon qadar aniq kuzatilishi va termostat yordamida boshqarilishi kerak;
- substratni bir xilda yetkazib berish;
- ko'p miqdordagi sovuq substrat porsiyalarini uzatishdan saqlash;
- asta-sekin va qadamma-qadam substrat tarkibini o'zgartirish (bu hayvonlarning ratsionidagi o'zgarishlarga ham tegishli);
- jarayonning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi moddalarini yuqori konsentratsiyada yetkazib berilishidan saqlanish;
- tez-tez va yetarlicha uzoq vaqt aralashtirish (agar aralashtirish paytida va undan keyin juda ko'p gaz hosil bo'lsa, bu aralashtirishning yetarli emasligini anglatadi).


## 2.6. Biogazning tarkibi va sifati

Metan faqat biogazdan olingan energiya bo'lganligi sababli, gazning sifati, gaz chiqishi va gaz miqdorini tavsiflashda barcha ko'rsatkichlarni metanga tegishli holda qayd etish tavsiya etiladi. Gazlarning hajmi harorat va bosimga bog'liq. Yuqori harorat gaz hajmining kengayishiga va hajm bilan birga calorifik qiymatining ( $kkal/nm^3$ ) kamayishi yoki ortishiga olib keladi.

Bundan tashqari, namlikning oshishi bilan gazning calorifik qiymati ham pasayadi. Gaz chiqishini o'zaro taqqoslashda ular normal sharoitlar bilan bog'liq

bo'lishi kerak (harorat  $0^{\circ} C$ , atmosfera bosimi 1.01325 bar, gazning nisbiy namligi 0%). Umuman olganda, gaz ishlab chiqarish bo'yicha ma'lumotlar har bir kg organik quruq moddaga (oQM) nisbatan litr (*l*) yoki  $m^3$  larda ifodalanadi, bu 1  $m^3$  yangi substratda qanchadir  $m^3$  biogaz mavjud degan kabi ma'lumotlardan ancha aniq va maqsadga muvofiq (2.20-rasm).

Agar boshqa parametrlar ko'rsatilmagan bo'lsa, unda gaz bunday parametrlari bo'yicha ushbu kitobda ko'rsatilgan hisob-kitoblar ma'lumotlari shunday o'lchovda keltirilgan. Ilgari, bu munosabatlarga har doim ham e'tibor berilmagan, bu esa gaz ishlab chiqarishda bunday eski ma'lumotlarning yaroqsizligiga olib keldi, chunki ular harorat, atmosfera bosimi, metan tarkibi, quruq moddalar tarkibi va quruq moddalarning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmas edi.



2.20-rasm. Gazning information muhim xarakteristikalari

Laboratoriya sharoitida ham, bir xil substratlarni tadqiq qilishda ishlab chiqariilgan gaz bo'yicha turli xil natijalar olinadi. Buning sababi esa laboratoriyada bunday o'lchashlarni o'tkazilishida metodlarning turlicha ekanlidir.

Ba'zilar yangi substrat uchun, boshqalari quruq, ba'zilari siloslangan va boshqalari siloslanmagan substrat bilan, 0,5 litrdan 10 litrgacha bo'lgan idishlar

uchun o'lchashlar o'tkazdilar va hk. O'rnatilgan sharoitlariga qarab, natijalar bir-biridan farq qilar edi. Bugungi kunda esa ushbu qo'llanilgan o'lchash metodlarini standartlarga, normalarga moslashtirish masalasi dolzarbdir.

Gaz chiqishini o'lchash, hisoblashning turli usullari va imkoniyatlari haqida ko'pgina ilmiy adabiyotlarda batafsil tavsiflangan.

Gaz chiqish kattaliklarini hisoblash kabi xarakterli parametrlarni aniqlashda o'lchash usullarida katta farq mavjudligi sababli, rejalashtirish bosqichida raqamli qiymatlarning to'g'riligini tekshirish va o'rnatilgan sharoitlariga mos keladigan, asosida real ko'rsatkichlar bo'lishiga qat'iy ishonch hosil qilish kerak.

*Biogazning sifati.* avvalambor, metanning miqdori yoki yonuvchi metan ( $CH_4$ ) ning "foydasiz" karbonat angidridga ( $CO_2$ ) nisbati bilan belgilanadi. Uglerod dioksidi biogazni suyultiradi va uni saqlash jarayonida yo'qotishlarga olib keladi, shuning uchun metanning yuqori miqdori va uglerod oksidining eng past miqdoriga erishish muhimdir.

Odatda biogaz tarkibidagi metan miqdori 50÷75% ni tashkil etadi. O'lchash qoidalariga ko'ra  $CO_2$  tarkibi "Brigon" asbobi yordamida o'lchanadi va kam miqdordagi boshqa gazlami (2-8%) chiqarib tashlaganidan keyin  $CH_4$  tarkibi hisoblanadi.

Biogaz tarkibidagi metan miqdori birinchi navbatda quyidagi mezonlar bilan belgilanadi:

- *Jarayonni o'tkazish:* bir bosqichli biogaz qurilmalarida anaerob parchalanish jarayoni bir fermentatorda, bir bosqichda amalga oshadi va shunday qilib, barcha gazlar gaz aralashmasi sifatida ajraladi. Ikki bosqichli qurilmalarda esa 1-bosqichda hosil bo'lgan gaz atrof-muhitga chiqarib yuboriladigan katta miqdordagi karbonat angidrid va boshqa energetik jihatidan past baholanadigan gazlardan iborat. 2-bosqichda hosil qilingan gaz tarkibidagi metan miqdori 80 foizdan yuqori.
- *Substrat ozuqaviy moddalari tarkibi.* Ishlab chiqarilgan biogazning miqdori va sifati kiritilgan moddalarni miqdori va ularning tarkibiga bog'liq. Oqsillar va yog'larda metan miqdori yuqori bo'ladi. Makkajo'xori kabi uglevodlarga

boy substratlar uchun tarkibdan o'ttacha 53% metan chiqishini kutish mumkin (2.17-rasm).

- Substratning harorati:* Amaliyotga ko'ra, yuqori haroratlari fermentatorda metan hosil bo'lishi past haroratlarga qaraganda ancha past. Bu gazsimon uglevodorod oksidining hosil bo'lishi va eruvchanligi orasidagi farqlar natijasida yuzaga keladi. Qancha ko'p miqdorda  $C0_2$  gazsimon shaklga o'tsa, biogazdagi  $CH_4$  foizi shuncha kam bo'ladi.


Metan va karbonat angidriddan so'ng, vodorod sulfidi ( $H_2S$ ) gazning ajralmas qismi hisoblanadi. Vodorod sulfidi juda agressivdir va korroziyani keltirib chiqaradi, bu birinchi navbatda klapanlar, gaz hisoblagichlari, gorelkalar va dvigatellar bilan bog'liq muammolarga olib keladi. Shuning uchun biogazni oltingugurtdan tozalash kerak (5-bo'lim). Oltingugurtdan tozalangan biogaz deyarli hidsiz bo'ladi.

Bundan tashqari, biogaz tarkibida ammiak, elementar azot, vodorod kabi gazlar umumiy miqdorda 6-8% gacha mavjud (2.21-rasm). Dragger trubkasi yordamida vodorod sulfidi va ammiakni osonlikcha o'lchash mumkin. Bunday trubkalarda ko'p marta foydalanish mumkin.

Biogaz qurilmasidan endigma chiqqan gaz suv bug'iga to'yigan bo'ladi. Bug'da esa biogaz yonish kamerasi va dvigatellarda yoqilganda muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan, hali kam o'r ganilgan erigan moddalarning izlari bo'lishi mumkin. Masalan, Rippersxauzendagi biogaz qurilmasida g'ayrioddii tarzda hosil bo'lgan momiq donalar qozonning yonish kamerasida qalin qatlama hosil qildi. Ushbu "oq cho'kma" murakkab kimyoviy reaksiyalar (silan<sup>10</sup>larning shakllanishi) natijasida silikon tarkibli kosmetik malham (maz) larning fermentasiyalanishi natijasida hosil bo'lgan kremniy oksidi ekanligini aniqlash uchun ko'p vaqt kerak bo'ldi. Ushbu ko'p vaqt "oq cho'kma" murakkab kimyoviy reaksiyalar natijasida silikonni o'z ichiga olgan kosmetik malhamlarning kofermentasiyasi natijasida hosil bo'lgan kremniy oksidi ekanligini aniqlash uchun kerak bo'ldi.

### Biogazdagi metan, $CO_2$ , $O_2$ , va $N_2$ ulushi

<sup>10</sup> Silan ( $SiH_4$ ) – kremniyning vodorod bilan binar birikmasi, rangsiz, zaharli gaz.



1+5 rejim: chirindi + 6.5 + 62.5% ajratib olingan yog'lar; 6+7 rejim: chirindi + 2 + 65% qishlog xo'jaligi qoldiqlari; 8+10 rejim: chirindi

2.21: Biogazning tarkibi (10 ta qurilmada o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha)

Biogazni kondensatsion quritish gazni boyitishdagi muhim bosqichdir (5-bo'lim). Kondensatsiyalangan suv yordamida, dvigatellarga, ayniqsa, unung rangli metallardan tayyorlangan podshipniklariga katta zarar keltiruvchi, katta miqdordagi ammiakni biogaz tarkibidan ajratib olinadi.

## II bob bo'yicha savollar

1. Biogaz hosil bo'lishidagi parchalanish jarayoni necha bosqichga bo'lib o'r ganiladi?
2. Haroratning oshishi bilan biogaz tarkibidagi metan tarkibi qanday tartibda bo'ladi?
3. Metan bakteriyalari o'z faolligini qanday harorat oralig'ida namoyon qiladi?
4. Bakteriyalarning tegishli shtammlari o'zini yahshi his qiladigan nechta tipik harorat rejimlari bor?
5. Germanianing ko'pgina amaldagi biogaz qurilmalari ishchi harorati qanday?
6. Biogaz sifatini qanday aniqlanadi?
7. Biogaz tarkibida qancha metan bo'ladi?

### III BOB. SUBSTRAT

#### 3.1. Substratlarni yaroqliligi bo'yicha tanlash.

Substratning fermentasiyaga yaroqliligini faqat birlgina biogazning chiqishi bilan baholab bo'lmaydi. Aksincha, bunda bir qator qo'shimcha omillarni hisobga olish kerak.

Agar, masalan, biologik chiqindilardan foydalanilsa, qurilmani qurish va uni ishlatish chiqindilar bilan ishlash qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Bu maxsus shartlarga rioya qilish kerakligini anglatadi, masalan, yetkazib berish va tashishda substratning toza yoki toza bo'lмаган qismlariga e'tibor berish lozim. Bunday maxsus qoidalar nafaqat hujjatlarni tayyorlashga, balki qurilma harajatlari va rentabelligiga ham ta'sir qiladi. Shuning uchun ham barchasi o'z vaqtida puxta o'ylab rejalashtirilishi kerak.

Shunga o'xshash qoidalar yog' ajratib olish yoki oziq-ovqat chiqindilari kabi substratlarga nisbatan qo'llaniladi. Metanning katta miqdorda chiqishiga qaramay, ular davlat ruxsatnomalari va texnik yo'qotishlar bilan bog'liq bo'lgan juda yuqori talablarga amal qilishga to'g'ri keladi, chunki ularning barchasi noj'o ya mahsulotlarga bo'lgan talablar klassifikatsiyasiga (Yevropa Ittifoqi № 1774/2002) kiradi (bu haqda ko'proq ma'lumot olish uchun 3.9-bo'limga qarang).

Barda kabi suv miqdori yuqori bo'lgan substratlar fermentatorlani samarasiz tarzda egallaydi, shuningdek, saqlash joylarini talab qiladi va kiritilgan material miqdori bilan solishtirganda oz miqdorda gaz chiqaradi.

Yuqori energetik zichlikli, ya'ni quruq moddalar (masalan, don qoldiqlari) ga ega bo'lgan substratlar saqlash va fermentatorda joy egallash jihatidan eng samarali hisoblanadi, ammo ular bu jarayonda tezda biologik buzilishlarni keltirib chiqaradi va shuning uchun ulardan katta miqdorda foydalanib bo'lmaydi.

Tez parchalanadigan substratlar – qand lavlagi, oziq-ovqat chiqindilari va boshqalar fermentatorning tez o'ta oksidlanishiga olib keladi, shuning uchun ularni soh holda fermentasiya qilish to'g'ri kelmaydi, balki ularni boshqa substratlar bilan aralashtirib foydalanish maqsadga muvofiq.

Shu kabi substratlarni saqlash, konservalash, yetkazib berish harajatlarini hisobga olish kerak. Masalan, yuqori sifatini saqlab qolmoqchi bo'linsa lavlagi kislotali holatda uzoq vaqt saqlanishi mumkin. Bunday talablar, o'z navbatida, texnik vositalarga katta investitsiyalarni ham talab qiladi. Texnik nuqtai nazardan, makkajo'xori silosini saqlash juda oddiy, lekin u katta maydonni talab qiladi.

Shuningdek, substratlarning tozaligi ham nazorat qilish muhim hisoblanadi. Chunki ozuqabop va qand lavlagilar o'zi bilan fermentatorga tuproq, tosh kabilarni olib kiradi, shuning uchun ular hosil qilishi mumkin bo'lgan cho'kmalarni oldindan tozalashni ta'minlash kerak.

Qishloq xo'jaligi va tegishli qayta ishlash korxonalarida paydo bo'lgan substratlarda zararli moddalar bo'lishi mumkin. Bunday materiallardan foydalanganda, jarayonning ishonchliliginin ta'minlash uchun tegishli (muntazam) tadqiqotlarni o'tkazish kerak bo'ladi.

Qayta tiklanadigan xom ashyo uchun, gaz ishlab chiqarishdan tashqari, iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan yetishtirish jarayonlari ham muhim rol o'ynaydi; bunga ekin maydonlarining unumdarligi, hosildorlik va ozuqaviy tarkib, hosildorlik darajasi, yetishtirish harajatlari (hosil va uni tashish), shuningdek ekin maydonining ijara narxi kabi omillar kiradi.

Substratlarning doimiy mavjudligi mukammal rejalashtirishlarni talab qiladi. Agar kosubstratlar foydalanilsa, ularni yetkazib berish kafolati iloji boricha uzoq muddatli shartnomalar bo'lishi kerak. Ijaraga olingan yerlarga juda bog'liq bo'lgan qurilmalar asosan o'z dala xomashyosi asosida ishlaydigan qurilmalarga qaraganda ko'proq riskga ega. Shu sababli, iloji boricha uzoq muddatli ijara shartnomalarini tuzish kerak.

Birinchi navbatda Yevropa Ittifoqining Qayta tiklanadigan energiya manbalari to'g'risidagi qonuni bo'yicha bonusli tizimi substratlarni tanlashga ta'sir qiladi. Biogaz qurilmalari uchun maxsus ishlab chiqarilmagan barcha substratlar qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun bonusning 6 sent/kW/soat miqdorini yo'qotadilar. Agar biz qishloq xo'jaligidagi biogaz qurilmalarida foydalanishga ruxsat berilgan substratlarni baholasak, ular iqtisodiy, huquqiy va biologik jihatdan

foydali hamda sanoat miqyosida ishlab chiqariladigan o'g'itlar va qayta tiklanadigan energiya manbalari sifatida afzallikka egadir.

Xulosa qilib aytganda, substratni tanlashda quyidagi jihatlarni hisobga olish kerak:

- Substratning ruxsatnomalar, qurilish va foydalanish uchun qonuniy talablarni olishga bo'ladigan ta'siri;
- Texnologiya va foydalanish harajatlariga ta'siri;
- Saqlash va konservalash;
- Hududning unumдорligi, ishlab chiqarish va saqlash harajatlari;
- Fermentasiya kamerasining yuklanishi va samaradorligi;
- Jarayonga ta'sir etuvchi biologik omillar;
- Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun to'lov;
- Substratning mavjudligi.

### 3.1. Substratlarning turi va tarkibi

Asosan barcha organik moddalarini, hech bo'limganda qisman ham aerob, ham anaerob tarzda parchalash mumkin. Asosiy qoida: yog'och va somon kabi qattiq, murakkab materiallar parchalanishi ko'proq aerob sharoitlarga, ya'ni kompostlashga<sup>11</sup> mos keladi. Shu bilan bir paytda, oquvchan, suyuq materiallar – go'ng, oziq-ovqat chiqindilari, yog'lar va boshqalar ko'proq anaerob sharoitda, ya'ni fermentasiya paytida yaxshiroq parchalanadi. 3.1-rasmda ham aerob va ham anaerob parchalanish uchun mos bo'lgan tipik chiqindi materiallar ko'rsatilgan. Bunday holda, birinchi navbatda quruq moddalar tarkibi hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni qaysi usulda (fermentasiya yoki kompostlash?) qayta ishslash afzalligini solishtirishda birlamchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, *nam metod* uchun quruq moddalar miqdori 5-15% tashkil qilishi yaxshiroqdir. Agar quruq substratning tarkibi 5% dan kam bo'lsa, unda ham jarayonlar ham sodir bo'ladi, ammo juda ko'p miqdorda suvni "foydasiz" qo'shish


<sup>11</sup> Kompost (lat. Compositus – "aralashma") – bu o'simlik yoki hayvonlardan kelib chiqadigan organik chiqindilarni parchalanishi natijasida olinagan organik o'g'it. Kompost mikroorganizmlar, reduksentlar va detritofaglar ta'siri ostida turli xil organik materiallarning biologik buzilish jarayoni natijasida olinadi. Kompost hosil qilish jarayoni kompostlash deb ataladi.

zaruriyati paydo bo'ladi va bu rentabellikka sezilarli ta'sir qiladi. Quruq substrat tarkibining 15% lik qiymati bu substratni nasos yordamida so'rish, aralashtirilish yoki o'mini almashtirish mumkin bo'lgan yuqori chegaradir. *Quruq metod* quruq moddalar miqdori 25% dan ortiq bo'lgan mayda (yoki kukunli) materiallar uchun mo'ljallangan. Materialni kompostlash uchun eng mos quruq modda tarkibi 40 dan 60% gachadir.

Uglerod va azotga munosabati (C:N nisbati) avval aytil o'tilganidek kabi muhimdir va u 10:1 dan 40:1 gacha nisbatda bo'lishi kerak edi. Qishloq xo'jalik hayvonlarining chiqindilari ham anaerob, ham aerob fermentasiya uchun yaxshi sharoit yaratadi, chunki ular ozuqa moddalari muvozanatlari tarkibiga va katta bufer potensialiga ega. Ratsionni tayyorlashda, substratning turiga yoki uning aralashmasidan qat'iy nazar fermentatorning yuklanmasi minimum  $4 \text{ kg oQM/m}^3$  dan (agar  $3 \text{ kg oQM/m}^3$  dan bo'lsa yana ham yaxshi bo'lardi) kam bo'lishi juda muhim.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida biogaz ishlab chiqarishda ishlatiladigan substratlar turlarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Endi amalda kamdan-kam hollarda faqat suyuq yoki qattiq go'ngdan foydalanilmoqda. Germaniyaning sharqiy qismidagi bir nechta yirik korxonalar faqat suyuq chirindi bilan ishlaydigan biogaz qurilmalariga xizmat ko'rsatadilar (13-bo'limga qarang). Ko'pgina qurilmalarda biogaz hosil qilish uchun butun o'simliklarning silosidan, don qoldiqlaridan va pichanning silosidan foydalanadilar, ba'zida ular umuman chirindilarsiz ishlaydi.

Ko'p miqdordagi gaz chiqishi va yuqori parchalanish darajasidan tashqari, energetik o'simliklar Yevropa Ittifoqining qayta tiklanadigan energiya manbalari to'g'risidagi qonunchiligi ko'magida alohida ahamiyatga ega bo'ldi.



3.1-rasm. Organik chiqindilarni aerob va anaerob qayta ishlash (Wiemer & Partner 1994).

Ilgari, kofermentasiya uchun ruxsat olish, qonunchilik, texnologiya va ekspluatatsiya nuqtai nazaridan juda ko'p xarajatlар va savollarga olib kelgan har qanday narsa bugungi kunda hech qanday muammo tug'dirmaydi. Kommunal va qishloq xo'jaligi organik chiqindilarining kofermentasiya harajatlari qiymati sezilarli darajada kamayib bormoqda. Lekin, xavfsizlik, texnologiya, hujjatlar va ruxsat olish uchun yuqori talablar, shuningdek, kosubstratlar uchun raqobat ular uchun ishlab chiqilgan substratlar va qurilmalarga qiziqishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Qurilayotgan yoki mavjud hozirgi kofermentasiya qurilmalari yuqori darajada ixtisoslashgan, texnik jihatdan yaxshi jihozlangan va eng so'nggi talablarga javob beradi.

#### Yirik shoxli qoramol (YShQ) birligi uchun hisoblashlar

Hayvon turi	YShQ/dona
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	
1 yoshgacha bo'lgan buzoqlar va yosh chorva mollari (shu jumladan semiz buzoqlar, yosh hayvonlar)	0,30

1 yoshdan 2 yoshgacha yosh mollar	0,70
Yosh sigirlar (2 yoshdan katta), bo'rdoqi buqalar, sigirlar (shu jumladan buzoqchali bilan)	1,00
Nasl uchun yetishtirilgan buqalar, ishlaydigan ho'kizlar	1,20
<b>Cho'chqalar</b>	
12 kg gacha bo'lgan cho'chqalar	0,01
12-20 kg bo'lgan cho'chqalar	0,02
20-45 kg bo'lgan cho'chqalar	0,06
45-60 kg yoki 90 kg bo'lgan semiz cho'chqalar	0,16
<b>Qo'yalar</b>	
1 yoshgacha bo'lgan qo'yalar	0,05
1 yoshdan katta qo'yalar	0,10
<b>Otlar</b>	
3 yoshgacha bo'lgan otlar	0,70
3 yoshdan katta otlar	1,10
Broyler tovuqlari va yosh tovuqlar (1-yosh guruhi, maksimal vazni 1200 g)	420
<b>Parrandalar</b>	
Broyler tovuqlari va yosh tovuqlar (2- va undan katta yosh guruhlari, maksimal og'irligi 800 g)	625
Tuxumlaydigan tovuqlar (maksimal vazni 1600 g)	310
Tuxumlaydigan tovuqlar (maksimal vazni 1500 g)	330
Izoh: yirik shoxli qoramol birligi 500 kg tirik vazniga to'g'ri keladi	

3.1-jadval: Chorva va yirik shoxli qoramol birligi uchun hisoblashlar (KTBL<sup>12</sup>) cho'ntak qishloq xo'jaligi ma'humotnomasiga ko'ra).

<sup>12</sup> KTBL – nemische, "Kuratorium für Technik und Bauwesen in der Landwirtschaft" – qishloq xo'jaligidagi texnologiyalar va qurilish bo'yicha Vasiylik kengashi

Bir tomonidan, biogaz qurilmasi uchun *oqava suvlardan* foydalanish ko'plab fermerlar uchun qiziqarli, chunki bu qimmat narxlarda kanalizatsiyaga ulanishini tejashga yordam beradi; boshqa tomonidan, oqava suvning quruq modda tarkibi odatda 2% dan past bo'ladi, shuning uchun yetarli miqdordagi quruq moddalar miqdori bo'lgan boshqa substratlarni qidirish kerak. Bunday hollarda, shuningdek, agressiv yuvish va tozalash kimyoviy vositalarini ishlatishdan voz kechish kerak. Bundan tashqari, biogaz qurilmasining o'Ichami o'rtacha bo'lishi kerak.

Turli hayvonlar uchun 10% quruq moddali peshob-najas aralashmasining chiqishi								
Hayvon turi	Har bir hayvon uchun aralashma, $m^3$				Har bir YShQ uchun aralashma, $m^3$			
	Hayvon	Kunda	Oyda	Yilda	1 YShQ	Kunda	Oyda	Yilda
Sog'in sigir	1,2	0,055	1,65	19,8	0,83	0,046	1,38	16,5
Bo'rdoqi buqa	0,7	0,023	0,69	8,3	1,43	0,033	0,99	11,8
Yosh qoramol	0,6	0,025	0,75	9,0	1,67	0,042	1,25	15,0
Buzoqlar	0,2	0,008	0,24	2,9	5,00	0,040	1,20	14,4
Bo'rdoqi buzoqlar	0,2	0,004	0,12	1,4	5,00	0,020	0,60	7,2
Bo'rdoqi cho'chqa	0,12	0,0045	0,14	1,6	8,33	0,038	1,13	13,5
Nasl uchun yetishtirilgan cho'chqalar	0,34	0,0045	0,14	1,6	2,94	0,013	0,40	4,8
Cho'chqa bolalari	0,04	0,002	0,06	0,7	25,0	0,050	1,50	18,0
Tuxumlaydigan tovuq	0,0033	0,00020	0,0059	0,071	300	0,0590	1,77	21,2

3.2-jadval. Turli hayvonlar uchun 10% quruq moddali peshob-najas aralashmasining chiqishi.

Substrat tarkibidagi va biogaz chiqishidagi tebranishlar				
Hayvon turi	Qoramol go'ngi	Cho'chqa go'ngi	Parranda go'ngi	
Substrat	Suyuq	Qattiq	Suyuq	
QM %	7-17	25-40	2,5-13	20-34
oQM % QM	44-86		52-84	70-80
$\kappa_2 oQM/YShQ/sutka$	3,0-5,4		2,5-4,0	5,5-10
pH darajasi	6,2-8		6,5-7,6	7-8
Xom tola % QM	12-24		17	12
Xom yog <sup>13</sup> % QM	2-5,0		9	2
Xom protein <sup>14</sup> % QM	10-18		24	26
Azotsiz ekstraktlar % QM (uglevodlar)	20-43		32	27
Azotning umumiy miqdori g/l	3,3-9,9		3,9-8,0	17
Gaz chiqishi l/kg oQM (ma'lumotlar normal sharoitlar bilan bog'liq emas)	176-520		220-637	327-722
Gaz ishlab chiqarish $m^3/YShQ/sutka$	0,56-1,5	1,5-2,9	0,60-1,25	3,5-4,0
Gaz ishlab chiqarish, o'rtacha	Ø 1,11	Ø 2,0	Ø 0,88	Ø 3,75

<sup>13</sup> Xom yog' – yog' kislotalari trigliseridlari va ozuqa mahsulotlaridagi yog'simon moddalar aralashmasi. Yog'simon moddalarga erkin yog' kislotalari, alkogol, aldegidlar, provitaminlar, pigmentlar, efrin moylari va boshqalar kiradi (Ozuqa rationsiga mos ravishda substratda ham mavjud).

<sup>14</sup> Xom protein – tarkibida azot bo'lgan ozuqa moddalar. Bu kimyoviy tahlil va hayvonlarning ozuqlari sohasida ishlatalidigan atama bo'lib, ozuqa tarkibidagi bo'lgan oqsilni anglatadi (Ozuqa rationsiga mos ravishda substratda ham mavjud).

**3.3-jadval: Mezofil harorat sharoitida suyuq va qattiq aralashma larning har xil turlari uchun biogazning tarkibi va chiqishi, beriladigan suv miqdoriga qarab fermentasiya vaqtiga 30-35 kun.**

Quyidagi hisoblash asos sifatida olinishi kerak: o'n bosh YShQ uchun (14 m<sup>3</sup> 8% li QMdan) chiqindi suvlardan foydalanish mumkin. Oqava suvlardan himoyalanish bo'yicha qonunchilik nuqtai nazaridan, eng yaxshi gigiyenik effektga ega qurilma turini tanlash kerak bo'ladi (11-bo'lim).

Qoidaga ko'ra, biogaz qurilmasi uchun oqava suvdan foydalanishga kanal yotqizish ancha qimmatga tushganda yoki kanalga umuman ulanish imkoniyati bo'limganda ruxsat beriladi.

### Substratlarning delaminatsiyaga moyilligi

Juda ko'p turli xil substratlar tashkil topgan aralashma, substrat turiga qarab turli delaminatsiya (qatlamlarga ajralish) xarakteristikalariga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida suzuvchi qobiqning shakllanishiga ta'sir qiladi va mikser (aralashtirgich) ni tanlashda e'tiborga olinishi kerak (texnika va uning quvvati) ("Og'ir moddalarni olib tashlash" bo'limiga ham qarang).

Doimo shunday qoida amal qiladi: substrat yoki aralashma qanchalik quyuq bo'lsa, qatlamlanishga kamroq moyil bo'ladi. Kichik o'lchamdagagi tashkil etuvchi zarralar va yuqori QM tarkibiga ega bo'lgan gomogen aralashma, masalan, o'simlik kosubstratlari bilan aralashtirilgan qoramol go'ngi, delaminatsiyaga kamroq moyil hisoblanadi. Tovuq va cho'chqanining suyuq go'ngi, kartoshka soki va oqava suvlari o'simlik kosubstratlari bilan birgalikda, masalan, yanchilmagan yangi somon, o'rilgan o't va boshqalar, delaminatsiyaga yuqori darajada moyillikka ega.

### Dehqon xo'jaliklarida organik o'g'itlardan olingan gazning chiqishi bo'yicha ma'lumotlar

Substrat	QM [%]	Undan oQM [%]	Biogaz [l <sub>N</sub> /kg oQM]	Metanning ulushi [%]	Metan [l <sub>N</sub> /kg oQM]	N	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> kg/t qattiq	K <sub>2</sub> O

								chirindi
Qoramol suyuq go'ngi (yem qoldiqlari mavjud)	8	80	370	55%	204	3,5	1,7	6,3
Qoramol suyuq go'ngi (yem qoldiqlarisiz)	8	80	280	55%	154	3,3	1,6	5,9
Cho'chqa go'ngi	6	80	400	60%	240	3,6	2,5	2,4
Qoramol qattiq go'ngi	25	80	450	55%	248	4,0	3,2	8,8
Parranda go'ngi (quruq, toza)	45	75	500	65%	325	18,4	14,3	13,5
Ot go'ngi (toza)	28	75	300	55%	164			

**3.4-jadval. Dehqon xo'jaliklarida organik o'g'itlar (mahalliy o'g'itlar) dan olingan gazning chiqishi bo'yicha ma'lumotlar (KTBL ishchi guruhining 2005 yildagi gaz hosil qilish ma'lumotlari).**

### Dehqon/fermer xo'jaliklarida olingan organik o'g'itlar (mahalliy o'g'itlar)

Suyuq go'ng hayvonlarning najasi va peshob aralashmasidan iborat bo'lib, ular teshikli yoki panjarali polda biroz ushlanib qoladi. Xizmat ko'rsatish, foydalanish qulayligi nuqtai nazaridan, bunday yopiq tizim (qo'ra) da boqish so'nggi 40 yil ichida, asosan sog'in sigirlarni, yemlanadigan qoramol, cho'chqa va tovuqlarni saqlashning keng tarqalgan turidir (3.1.1-rasm).

*Qattiq go'ng*: naslli sigirlar, buzoqlar, cho'chqalar, otlar, qo'yalar va echkilarni maxsus qo'ralarda saqlashda yoki ekologik me'yorlarda ishlaydigan korxonalarida panjarali pol tuzilmalaridan foydalanilmaydi va shuning uchun, asosan kompostlangan yoki darhol olib tashlanadigan go'ng hosil bo'ladi.

Betonli pol yuzasidagi *suyuq* va *qattiq go'ng* (najas, peshob va surni o'z ichiga olgan loysimon aralashma) biogaz qurilmalari uchun juda mos keladi. Bunday substratni suv miqdori yuqori bo'lganligi sababli boshqa qo'shimchalarsiz kompostlab bo'lmaydi. Ular faqat ba'zi hollarda ko'p miqdordagi somon va boshqa tolali materiallar aralashmasida *kompostlanadi* (1.1-bolimga qarang).

Panjarali pol ostidagi substrat – bu somon bilan aralashgan qoramol go'ngi va peshobi aralashmasidan iborat bo'lib, yuqori tomonidan somon qoshiladigan qiya yuzada hosil bo'ladi. Hayvonlarning harakatlanishi tufayli yuqori qismidan somonli to'shamma aralashgan, qalinligi 30-70 sm bo'lgan go'ng qatlami yuzaning pastki qismiga quyiladi. Naja va peshob aralashmasi frontal yuklagich yoki shiber<sup>15</sup> yordamida qo'rada chiqariladi. Kuniga 2-6 kg/bosh qoramol somonli to'shamma miqdoriga qarab, bunday aralashma-substratning mustahkamligi (quyuqlik darajasi) quyuqdan qattiqgacha o'zgaradi. Von Xuber, Ballgeymen va Xaydnlarning aniqlashiga ko'ra sog'in sigirlarda QM miqdori 14,5-24,7% ni tashkil qiladi. Bunday go'ngni, agar tarkibida to'shamma-chiqindi juda ko'p bo'lsa, muammosiz kompostlash mumkin. Kam miqdordagi to'shamma-chiqindi bilan go'ngni yaxshi aralashtirgichlar yordamida aralashtirib biogaz qurilmalarda qayta ishslash mumkin (4-bo'lim).

Agar aralashma-chiqindi miqdori juda ko'p bo'lsa, suyultirish choralarini ko'rish kerak: rezervuarda oldindan saqlanadigan suv, go'ng suyuqligi yoki boshqa chirindi suyuqlik bilan suyultirib kesuvchi mikser bilan aralashtiriladi. Maxsus



3.1.1-rasm. Qoramollarni yopiq tizim (maxsus go'ra)da saqlash

qo'raga sepishdan oldin somonni 10 sm o'lchamda maydalash kerak. Buni maxsus maydalash uskulalari yordamida yig'im-terim paytidayoq amalga oshirish mumkin. Ferma hovlisida somon tegirmoni va aralashma hosil qilish mashinasini bilan statsionar ravishda maydalash ham mumkin, ammo bunda doimiy ravishda ko'p chang hosil qilishi mumkin.

*Qattiq go'ng* hayvonlarni maxsus qo'rali molxonalarda saqlashda odatda kuniga bitta bosh qoramolga 2-12 kg somon to'shamasi yordamida "shakllanadi" (3.2-jadvalga qarang). Faqat hayvonlarning peshobi maxsus zovurlar orqali chiqariladigan va kam miqdordagi somonli to'shamma sepilgan molxona qo'ralardan xaskash yordamida olish mumkin bo'lgan qattiq go'ng olinishi mumkin. *Qattiq go'ngni* kompost qilish oson. 1-bo'limda aytib o'tilganidek, 1950 yillarda qishloq xo'jaligidagi biogaz sanoatining boshlang'ich davrida faqat qattiq go'ng ishlatilgan. Suyultirilgan qattiq go'ng bilan ishlaydigan qurilmalar bugungi kunda deyarli mavjud emas. Ushbu go'ng turi uchun oldingi bobda aytib o'tilgan somonni maydalash choralar ayniqsa muhimdir. Agar somon maydalanmagan bo'lsa, lekin tolali qatlamlar hosil qilsa yaxshi bo'ladi, chunki metan bakteriyalari rivojlanish uchun maksimal sirt maydoniga muhtojo.

Suyuq va qattiq go'ng tarkibi birinchi navbatda hayvonlarning turiga, ularni saqlash maqsadiga, saqlanadigan qo'ra turiga va mahsuldarligiga, shuningdek oziqlantirishga, bug'lanish orqali ammiak va suv yo'qotilishiga, aralashmalni to'shamalardan foydalanishga, yem qoldiqlariga, yog'ingarchilik va tozalash uchun ishlatiladigan suvga bog'liq.

Biogaz qurilmasini qurishni rejalashtirgan har bir fermer iloji boricha substratni reprezentativ<sup>16</sup> tahlil qilishi va birinchi navbatda undagi quruq moddalarning tarkibini bilib olishi kerak.

Shuningdek, yil fasliga bog'liq mavsumiy bo'lgan, substratning tarkibi va miqdoridagi o'zgarishlarga, e'tibor berish kerak. Bunday o'zgarishlar, birinchi navbatda, yirik shoxli chorva mollarini saqlashda, ya'ni yozda hayvonlarni o't bilan boqishda yoki yaylovlarda o'tlayotganida seziladi. Shunga ko'ra, 3.3-jadval

<sup>16</sup> Reprezentativ – biror narsa haqidagi o'ziga xos, tipik, ob'ektiv tasavvur.

bizga bir xil materiallardan foydalanganda go'ng turlari orasidagi farqni va aynan bir xil materiallardan foydalanilgandagi qisman katta tafovutlarni ko'rsatadi.

### **Quruq modda va organik quruq modda.**

Qoramol va cho'chqaning suyuq go'ngi, parranda go'ngi kabi substratlarlarning, shuningdek ularning individual parametrlarida katta tafovutlar mavjud (3.3-jadval).

Ammo ba'zi bir umumiy jihatlarni ko'rish mumkin: cho'chqa go'ngi past, qoramol go'ngi o'rtacha, parranda go'ngi tarkibi esa yuqori darajada quruq moddalar ulushiga ega. Tovuq go'ngida biogaz hosil qilish uchun muhim bo'lgan organik quruq moddalar (oQM) miqdori qoramol va cho'chqa go'ngiga qaraganda yuqori. OQM ning miqdori kamligiga sabab ozuqa tarkibiga loy va qumming kirib qolishi, shuningdek beton yuzadan chang tushishi natijasidir. Ushbu moddalar fermentator va rezervurda cho'kma hosil qilishga moyil bo'ladi.

### **pH darajasi**

Cho'chqa go'ngining pH darajasi (kislotalilik darajasi) qoramolnikiga nisbatan bir oz pastroq, tovuq go'ngida pH eng yuqori bo'ladi (uning tarkibida bo'r bor). Fermentasiya va gaz hosil bo'lishiga pH ning ta'siri 2-bobda muhokama qilingan.

### **Xom tolalar tarkibi**

Oziqlanish ratsioniga bog'liq ravishda, xom tolalar (klechatkalar) tarkibiga ko'ra, aksariyati qoramol go'ngida uchraydi. Ular faqat uzoq muddatli fermentasiyadan keyin yaxshi parchalanishi mumkin. Bunda oqsil va NFE (NFE = azotsiz ekstraktlar = kraxmal va shakar kabi uglevodlar) larning farqi kamroq ahamiyatiga ega bo'ladi. Ushbu ikkala turdag'i moddalar mikroorganizmlar tomonidan oson parchalanadilar. 2-bobda aytib o'tilganidek, xom protein biogaz tarkibidagi vodorod sulfidi uchun javobgardir. Xom proteinning yuqori miqdori ko'pincha oqsilga boy bo'lgan ozuqalar bilan bog'liq. Garchi azot gaz hosil qilish uchun kerak bo'lmasa-da, metan bakteriyalari o'z hujayra substansiya (oqsil) larini hosil qilish uchun kerak bo'ladi. Anaerob ishlov berish tufayli azot fraktsiyasining o'zgarishi keyingi bo'lmlarda muhokama qilinadi.

### **Xom yog'**

Cho'chqa go'ngi tarkibi xom yog' miqdori bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega. Yog', yuqori energetik parametrlerga egaligi va oson parchalanishi qobiliyati tufayli (2-bo'llim), gaz hosil bo'lish darajasi yuqori bo'lGANI sababli tovuq va qoramol go'ngiga qaraganda cho'chqa go'ngi biogaz ishlab chiqarish uchun yaxshiroq mos keladi deb taxmin qilish mumkin. Afsuski, tarkibda QM miqdori ko'rsatkichining pastligi va suv miqdorining yuqoriligi tufayli ushbu afzallik kamayadi.

### **Gazning chiqishi**

Turli xil xom ashyolardan olingan gazning taxmini ma'lumotlari 3.4-jadvalda keltirilgan. Qoramol go'ngi gaz hosil bo'lish bo'yicha past ko'rsatkichga ega. Qoramol kabi kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonning o'ziga xos florasi, uning tarkibidagi metan va boshqa bakteriyalari sababli, shuningdek, ichakning uzun trakti va tez hazm bo'ladigan moddalarning kuchli maydalanishi tufayli ko'p miqdorda klechatka talab qilinadi. Qoramol go'ngining bu kamchiligi ko'p miqdordagi quruq substansiya bilan kompensatsiyalanadi.

Cho'chqalarda ham odam organizmi kabi bir kamerali oshqozon va qisqa uzunlikdagi ichaklar mavjud bo'lib, shu sababli ozuqani yomon hazm qilishi bilan o'ziga xoslikka ega. Go'ng tarkibida yaxshi parchalanmagan ozuqa mavjudligi sababli, gazning chiqishi qoramollarga qaraganda ancha yuqori. Tovuqlar, barcha qushlar singari, qisqa o'lchamli ovqat hazm qilish apparatlariga ega, bu ular vaznining oz bo'lishiga olib keladi. Ovqat to'liq hazm qilinmaydi va go'ngida ko'p miqdorda parchalanadigan moddalar mavjud. Shu sababli, tovuq go'ngi boshqa turdag'i substratlarga nisbatan eng ko'p gaz chiqish ko'rsatkichiga ega. Birinchidan, u quruq moddaga juda boy hisoblanadi va uni odatda suv bilan suyultirish kerak bo'ladi. N (azotning) yuqori miqdori biologik jarayon bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin.

Yirik qoramol, cho'chqa va tovuqlar go'ngi aralashmasi ayrim hayvonlardan olingan substratlar yetishmovchiligining oldini olishga yordam beradi. Ba'zi biogaz qurilmalari bu borada muvaffaqiyatli ishlamoqda. Qishloq xo'jaligidagi

ixtisoslashuv sababli ko'plab biogaz qurilmalariga bitta turdag'i hayvonlarning go'ngidan foydalaniladi; bular asosan qoramollar (sog'in sigirlar, bo'rdoqi buqalar, yosh qoramollar)dir. Yevropa davlatlarida bir necha cho'chqa go'ngida ishlaydigan va kam sondagi tovuq go'ngi asosida ishlaydigan biogaz qurilmalari.

Bir turdag'i hayvonlarning ekskrementidan foydalanib, ularning turli xil tarkibi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin:

- Sog'in sigirining go'ngi yosh qoramol yoki bo'rdoqilarga nisbatan suyuqroq.
- Yemlashdag'i intensivlikning miqdoriga qarab yosh qoramolning go'ngi bo'rdoqi buqalarning go'ngiga nisbatan 10% kamroq gaz hosil qiladi, sog'in sigirlarning go'ngidan ham oddiy buqalar go'ngiga qaraganda ancha kam gaz chiqadi.
- Nasl beruvchi cho'chqalar bo'rdoqi cho'chqalarga qaraganda ozuqani yaxshiroq o'zlashtiradi, shuning uchun ularning go'ngi bo'rdoqi go'ngidan 10% kamroq gaz beradi.

Hayvon turidan qat'iy nazar, substratda begona moddalar muammolarga olib kelishi mumkin.

Qoramol go'ngida ozuqaga qarab o't, pichan va silos yoki hatto somon chiqindisi kabi ozuqa parchalari mavjud. Ushbu moddalar substrat tarkibiga qo'shilib ketadi va agar ular noto'g'ri aralashtirilsa, shunchalik qalin va o'ralgan suzuvchi qobiq hosil qiladiki, ularni ajratish qiyin bo'ladi. Bundan tashqari, o't bilan oziqlantirish paytida go'ng ichiga to'g'ridan-to'g'ri yoki hayvonlarning oshqozoni orqali tushadigan tuproq, qum yoki hatto toshlar, xuddi shu tarzda qishloq xo'jalik mashinalari vintlari yoki rux bo'laklari shaklidagi metall parchalari kirib borishi mumkinligini ham hisobga olish kerak.

Ayniqsa, hazm bo'limgan makkajo'xori poyasi yoki doni kabilar mavjud bo'lsa, cho'chqa go'ngi cho'kma hosil qilishga kuchli moyil bo'ladi. Agar aralashtirish to'g'ri bajarilmasa, vaqt o'tishi bilan bir necha detsimetrik qatlamlar paydo bo'lishi mumkin, ularni esa maxsus xaskash bilan olib tashlanishi mumkin.


Qafaslarda saqlanadigan tovuqlardan go'ngida ham suzuvchi qobiqni hosil qiladigan patlar mavjud, shu bilan birga oziqlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

tufayli tovuq go'ngida ko'p miqdordagi bo'r va qum borligi sababli cho'kindi hosil bo'lishini ham hisobga olish kerak.

#### Qayta tiklanadigan xom ashyo – energetik o'simliklar

Biogaz qurilmalarida o'simliklardan foydalanish bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mutlaqo yangi yo'naliш oldi: agar ilgari Germaniya yoki umuman Yevropada qishloq xo'jaligi oziq-ovqat va oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirgi kunda biogaz qurilmalarida foydalaniladigan energetik o'simliklar uchun tobora ko'proq maydonlar ajratilmoqda. Ko'pincha energetik o'simliklarini yetishtirish ishlab chiqarishning alohida tarmog'i hisoblanadi va ba'zi fermerlar uchun bu asosiy daromad manbai sifatida sanaladi.

Amalda, dalada yetishtirilgan bir necha turdag'i o'simlik ekinlarigina biogaz qurilmalarida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan energetik o'simliklar sifatida tan olinishi mumkin. Aslida, gap asosan biogaz qurilmalarida qayta ishlangandan so'ng yuqori narxga ega bo'lgan ekinlar haqida bormoqda. Asosan energetik o'simliklar sifatida foydalaniladigan ekinlar 3.2-rasmida keltirilgan. Elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun faqatgina qayta tiklanadigan xom ashyo va go'ngdan foydalanadigan qurilmalar ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun moliyaviy rag'batlantiriladi. Yevropa ittifoqida qayta tiklanadigan energiya to'g'risidagi qonun bilan belgilangan qayta tiklanadigan xom ashyo haqidagi tushunchalarga aniqlik kiritish "Biogaz sanoati sohasi uyushmasi"ning (Fachverband Biogaz eV, [www.biogas.org](http://www.biogas.org)) bosh sahifasida, ushbu bonus beradigan ekinlarlarning ro'yxati keltirilgan.



3.2: Fermentasiya va gaz chiqishi bo'yicha eng samarali o'simliklar

### Gaz chiqishi

Gaz hosil qilish nuqtai nazaridan energiya zichligi yuqori bo'lgan substratlar: don chiqindilar, lavlagi va kartoshka eng yaxshi natijalarni beradi (3.2-rasm). Ularning yordami bilan erishilgan metan hosil bo'lish ko'rsatkichi 350-380 l/kg organik quruq substratga yetadi. Bundan tashqari, metan hosilasi 270 dan 330 l/kg gacha bo'lgan organik quruq substratdan iborat yangi o'tlar, lavlagi ildizi va poyasi, o't-o'lanylari silosi, makkajo'xori va g'alla o'simliklardan iborat katta guruh ham mavjud. Eng past ko'rsatkichdagi gaz hosil qilish xususiyati somonga tegishli bo'lib, bu qiymat 200 l/kg organik quruq substratga teng.

Shunday qilib, uni qoramol go'ngiga solishtirish mumkin.

Umuman olganda, energetik osimliklar gaz hosil qilishi bo'yicha unchalik katta bo'limgan farqqa ega, shuning uchun o'rtacha hisobda energetik osimliklardan olinadigan gaz nazariy jihatdan har bir kg organik quruq substrat uchun  $\pm 30\%$  chetlanish bilan 300 l metanga teng deyish mumkin.

### Har xil turdag'i energetik o'simliklarda protein va azot miqdori

Miqdor:	Xom protein	Azot (N) <sup>II</sup>
	g/kg	g/kg
Arpa		
Suli	110	17,6
Javdar	98	15,7
Bug'doy	119	19
Makkajo'xori	95	15,2
Kartoshka	20	3,2
Makkajo'xori so'tasi yaproqlari bilan	76	12,2
Yangi yashil em-xashak	33	5,3
Makkajo'xori silosi	24	3,8
Boshqolli ekinlar silosi	60	9,6
Beda va o't-o'lanylarni o'z ichiga olgan boshqolli ekinlar silosi	65	10,4
Beda va o't-o'lanylarni aralashmasi	70	11,2
Javdar	98	15,7

3.5-jadval. Turli xil energetik o'simliklarda xom protein va azot miqdori.

Amalda, energetik o'simliklarning har gektari uchun gazning chiqishini hisoblash natijalari katta farqni ko'rsatmoqda. Agar gektariga metan hosil bo'lishning spetsifik birligiga ko'paytirilsa, muayyan bir ekin turi maydoni uchun ma'lum qiymatdagi metan chiqish ko'rsatkichiga ega bo'linadi (3.3-rasm). Quruq moddadan metanning eng yuqori hosildorlik lavlagi va makkajo'xorining silosli navlari bo'lib, ularda metan chiqishi  $6000 \text{ m}^3 \text{ CH}_4/\text{ga}$  dan oshishi mumkin. *Miscanthus* (*xitoy qamishi*) ko'p yillik ekin sifatida, garchi u gektariga 200 sentnergacha biomassa hosilini bersada, ammo metan hosil bo'lishining past

darajasi o'simlik maydonining energetik samaradorligini maysalar darajasiga va butun o'simlik silosining o'rtacha unumdorligini gektariga  $4000 \text{ m}^3$  metan qiymatigacha tushiradi.

Don va ildiz mevalar, garchi ularda yuqori darajadagi maxsus gaz hosil bo'lsada, maydonlarning unumdorligi bo'yicha ko'rib chiqsak u  $3000 \text{ m}^3/\text{ga}$  bo'ladi, bu esa butun o'simlik silosidan pastroq.

Oraliq ekinlar maydoni eng kam unumdorlikka ega –  $2000 \text{ m}^3 \text{ CH}_4/\text{ga}$  dan kam. Bu esa vegetatsiya davrininig qisqarganligi bilan bog'liq.

#### Donli ekinlar silosi


Donli ekinlardan olingen silos tobora ommalashib bormoqda, chunki ular energetik o'simliklarga almashlab ekishga juda mos keladi, ular loy tuproqlarda o'stirilishi mumkin va past bahor haroratlarda yaxshi va barqaror hosil beradi. Javdar ko'pincha oddiy kuzpishar o'simlik bo'lsada barcha turdag'i ekinlarga mos keladi. Tanlov ma'lum hududga qarab amalga oshirilishi kerak. O'rim-yig'im uchun maqbul vaqt – bu don quyilganda va boshoq qotganda – sharbat chiqmaydi va donni qobiqdan siqib chiqarish mumkin. Shunda quruq moddalar miqdori 35-40% ni tashkil qiladi. Bu butun o'simlikni maksimal darajada "hazm" qilish va maksimal energiya zichligi mavjud bo'lgan vaqt. Boshoqli ekinlarni makkajo'xori singari silos qilish unchalik samarali emas, shuning uchun ular silos bunkerida tez parchalanishi va oksidlanishi uchun, shuningdek yuqori zichlikka erishish uchun uzunligini iloji boricha 4 mm ga yaqin qilib maydalash kerak. Hosildorlik gektariga 80 dan 140 sentnergacha. Boshoqli silos tarkibida o't-o'lanylardagi aralashmasidagi yuqori ulushi yoki fermentasiya kamerasining haddan tashqari yuklanishi ammiak tufayli kechikishga olib kelishi mumkin (3.5-jadval).

#### Silos makkajo'xori

Silos makkajo'xorisiga hozirgi kunga qadar biogaz qurilmalarida foydalanish uchun eng muhim ekin hisoblanadi. Tarkibida quruq moddalar ko'pligi uchun makkajo'xori C4 sinfiga oid<sup>17</sup> o'simlik deb ham ataladi. Ushbu ekinni qayta ishlash uchun zarur bo'lgan uskunalar odatda har doim korxonalarda mavjud yoki yaxshi arzon. Makkajo'xori oson siloslanadi va asl holicha ishlatsa ham biogaz qurilmalarining ishlashida nosozliklarni keltirib chiqarmaydi. Bugungi kunda biogaz qurilmalarida foydalanish uchun maxsus makkajo'xori navlari mavjud va ushbu navlar odatda yuqori biomassa hosilini beradi. Odatda, makkajo'xori o'rim-yig'im paytida 28-35% quruq moddaga ega bo'lishi va doni sut donachali va qattiq donacha orasida bo'lishi kerak. Makkajo'xori yetishtirish uchun qulay maydonlarda kechki navlar ekin maydonlaridan  $8000 \text{ m}^3 \text{ CH}_4/\text{ga}$  dan ortiq miqdorda hosil berishi mumkin.

Silos makkajo'xorisiga ekinlarining hosildorligi gektariga 120 dan 270 sentnergacha, gazning chiqishi har  $\text{kg organik quruq moddasiga}$  300 dan 380 litrgacha.

#### Turli ekin maydonlaridan metan va biomassaning chiqish ko'rsatkichlari



<sup>17</sup> Barcha o'simliklarning atmosferadagi karbonat angidridni o'zlashtiradi va uni fotosintez orqali shakar va kraxmalga aylantiradi, ammo ular buni turli yo'llar bilan amalga oshiradilar. O'simliklarning fotosintetik jarayoni bo'yicha tasniflash uchun botaniklar quyidagi belgilardan foydalanaadi: C3, C4, CAM.

*3.3-rasm. Energetik o'simliklar o'rtaqidagi farqni har bir maydon uchun metanning hosil bo'lishidan ko'rish mumkin ("Qishloq xo'jaligiga oid taxminiy ma'lumotlar"ga asosan tuzilgan. DLG nashri va KTBL normativlari).*

### **Silosni javdar bilan qoplash**

Biogaz qurilmalarining kattalashib borishi tufayli silos maydoniga ehtiyoj ham oshmoqda va shu bilan uning qoplamasini narxi ham oshmoqda (3.4-rasm). Qoplama uchun yangi yechim bu – silos pylonkasi o'rniga javdar yotqizish. Silos qoplamasining ushbu tabiiy versiyasi bir qator afzallikkarga ega:

- mablag' va ish vaqtini sarfi pylonka bilan qoplashdan kamroq.
- qoplama biologik ta'sir ostida parchalanadi.
- sirtni shunchaki yangi silos qatlami bilan qoplash mumkin, bu esa serharajat qoplamani ochish va yopish jarayonlarini bartaraf etadi.
- Silosni maydalash maydoni kichik bo'ladi.



*3.4-rasm. Silosni javdar bilan qoplash ba'zi afzallikkarga ega*

Trisdorf dagi EBA markazi tomonidan 2005 yilda javdar silosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bunda metanning chiqishi o'zgarmaydi, ammo silos sharining yuqori qismida organik quruq moddalarning sezilarli darajada kamayishi kuzatiladi (30 sm chuqurlikda 15% gacha quruq moddalar yoki qoplama sharidagi 12% quruq modda). Agar makkajo'xori silosi tarkibida 28-35% quruq modda bilan siloslanishini hisobga olsak, unda bu shardagi quruq moddalarning deyarli yarmi aerob parchalanishi natijasida yo'qoladi.

Bunday yo'qotishlar taxminan o'rtacha pylonka qoplamali silosning natijalariga to'g'ri keladi. Bunday holda, aniq energiya pasayishi 20% gacha bo'ladi. Shunga ko'ra, javdar bilan qoplash paytida silos yuzasi kichik bo'lishi kerak. Bundan tashqari, ushbu turdag'i qoplamani qo'llashda ko'p hollarda kemiruvchi zararkunandalar (kalamushlar, sichqonlar) ga ham e'tiborli bo'lish kerak.

### **Makkajo'xori boshog'i qoldig'i, Corn-Cob-Mix (makkajo'xori-so'tasi-aralashma) va makkajo'xori donalari**

Makkajo'xori boshog'i qoldiqlari (Corn-Cob-Mix (CCM)) va toza makkajo'xori donlari silos makkajo'xori bilan solishtirganda maydon birligidagi hosildorlikda sezilarli darajada orqada qoladi, ammo energiya zichligi va gazning chiqishi bo'yicha ancha yuqori. Shuningdek, ular fermentatorning ishchi hajmini makkajo'xori silosiga nisbatan ko'proq egallaydi. Asta-sekin uzatishni ta'minlash uchun ularni saqlash va konservalash kerak. Biologik jarayonlar nuqtai nazaridan ular tez oksidlanadi va ortiqcha yuklama keltirib chiqaradi.

### **O'tloqlar, o'tloq silosi, arpa va o't aralashmasi**

O'tloqlar hosildorligi joylashuv o'mi va foydalanish intensivligiga bog'liq bo'lib, farqlar juda katta, ya'ni gektariga 40 dan 120 gacha quruq massani oralig'da. O'tloqlar hosildorligi bo'yicha boshqa energetik o'simliklardan ortda va ular bilan solishtiradigan bo'lsak o'tloqlardan yiliga kamida uch marta hosil olish kerak.

Metanning hosil bo'lishiga yuqorida aytilganidek, osimliklarning joylashuv

hududiga va foydalanish intensivligi ta'sir qiladi. 2004 yilda Kaiser tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'tloqlardan intensiv foydalanish (5 marta o'rish) ekstensiv foydalilanidigan hududlarga nisbatan *300 litr/kg organik quruq moddadon* ko'proq metan hosil qiladi. O'tloq (maysazor) da o'sadigan o'simlik turlari ham metan hosil bo'lishiga ta'sir qiladi. *Ryegrass*, *Blyugrass* va *Festuca Eskia* uchun hosildorlik birinchi va ikkinchi o'rim orasida 250 va 350 *litr/kg oQM* oralig'ida o'zgarib turadi; ular odatda o'rtacha 300 *l/kg oQM* ga teng bo'lgan *Leguminoza* bilan bir xil darajaga etadi. Faqat *Medicago (Beda)* 200-250 *l/kg oQM* metan chiqish ko'rsatkichiga ega bo'lgan holda ancha orqada qoladi. Shunday qilib, o'tloqlarda ham energiya jihatidan eng maqbul bo'lgan o'simliklar aralashmalarini yaratish mumkin deb xulosa qilish mumkin.

O't-olanlar silosi fermentasiya uchun yaxshi substrat hisoblanadi. Faqat yagona narsa – bedaning yuqori kontent tufayli xom oqsil yuqori potensiali bakteriyalar rivojlanishini kechiktirib yuborishi mumkin deb hisoblanadi. Shuningdek, beda va urug'li o'tlar aralashmasi aralashtirilganda eshilib qoladi. Bunda diqqat bilan maydalash va aralashtirishning tegishli texnikasini tanlashga e'tibor berish kerak bo'ladi (sekin aralashtirish).

#### Sudan o'ti

Sudan o'ti, makkajo'xori kabi, C4 o'simliklar sinfi kiradi va shuning uchun suv va ozuqaviy moddalarni iste'mol qilish nuqtai nazaridan juda samarali (3.5-rasm). Bizning sharoitlarda u dala yem-hashagi sifatida: pichan, silos uchun, shuningdek, yangi holida ham foydalilanadi. Hozirgi vaqtida uni dunyoda donini olgandan so'ng fermentasiya uchun poxol substrat sifatida tobora ko'proq foydalanoqda. Sudan o'ti ko'p miqdordagi quruq moddalarni yetkazib beradi, tuproqda suv va ozuqaviy moddalar mavjudligiga nisbatan ta'sirchan emas, yaxshi siloslanadi. O'simlik hatto kichik qiymatli sovuqqa ham dosh berolmaydi, qishda esa muzlab qoladi. U maydonning joylashgan o'miga qarab aprelning oxiridan may oyining o'rtalariga qadar ekiladi ( $20-22 \text{ kg/ga}$ ). Tuproqni tayyorlashga talablar yuqori emas, kultivator hamda diskli sepgich yetarli va sudan o'tini bir mavsumda bir necha marta o'rish mumkin. Iyun/iyulda donli ekinlar yig'im-terimidan keyin

ekish yozdag'i quruq issiq va ba'zan kuzsovug'ining erta kelishi sababli yetaricha ko'p hosil bermasligi mumkin. Ikki martalik o'rim natijasida 120-200 *s/ga* quruq moddalarni toplash mumkin. O'zbekiston sharoitida esa ob-havoga qarab uch martagacha o'rib undan ham ko'p 240-400 *s/ga* quruq modda olish mumkin.

Sudan maysalarini yig'ib olish, dastlabki don qulqlar paydo bo'lganda, quruq moddalar miqdori kamida 20% bo'lganda orib olinadi, aks holda poyasi tezda qotib qoladi. Energetik xususiyatlariga ko'ra sudan o'ti boshqa osimliklar bilan raqobatlasha oladi.

#### Xitoy qamishi (fil o'ti)

Xitoy qamishi (3.6-rasm) kelib chiqishi Sharqiy Osiyo bo'lib, C4 guruhiga mansub, balandligi 4 m gacha yetadigan va gektariga 250 sentnergacha quruq modda beradigan ko'p yillik o'simlik. *Miscanthus*, boshqa ko'plab energetik o'simliklaridan farqli o'laroq, 15-20 yil o'sadigan ko'p yillik o'simlikdir. U ekin maxsus maydonlarida ildizlatish (qalamcha) usuli bilan ekilgani uchun biroz qimmatga tushadi. Qishlashning birinchi yilida u muzlashga moyil bo'ladi, shuning uchun yuqori hosilga faqat 4-yilda erishiladi. *Miscanthus* yig'ib olingandan so'ng, qolgan ildizlari yana o'sib chiqadi va ularning o'rnida boshqa ekinlarni yetishtirishga xalaqit berishi mumkin. Energiya o'simlik ekinlari orasida aynan yuqoridagi kamchiliklar va metan chiqishi kam bo'lganligi sababli *Miscanthus* deyarli ishlatilmaydi.



3.5-rasm. Sudan o'ti.



3.6-rasm. Xitoy qamishi (*Miscanthus*)

### Donli ekin goldiqlari

Donli ekinning har gektaridan olingen doni yoki uning chiqindilaridan hosil bo'lgan energiya uning shu birlikdagi butun boshli tanasining silosi energiyasidan kamroqdir. Agar ekilgan maydon birligi bo'yicha energiya ishlab chiqarish hajmini qayta hisoblasak, ustunlik butun o'simlik silosi tomonda bo'ladi. Agar qishloq xo'jalik qurilmalarida biologik jarayonni boshqarish mumkin bo'lganda edi, toza donli ekinning fermentasiyasi energetik jihatdan ma'noga ega bo'lardi. Don juda tez parchalanadi va tez o'ta oksidlanishga olib keladi. Don tarkibidagi oqsilning yuqori potensiali tufayli ammiak ta'sirida bakteriyalar rivojlanishining kechikish riski ortadi (5.5-jadval), shuning uchun sof ekinni fermentasiya qilishda jarayonni boshqarish uchun ikki bosqichli tizimdan foydalangan ma'qul.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, substrat aralashmasidagi chiqindilarning ma'lum bir ulushi gaz hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: yengil parchalanadigan moddaning ma'lum bir tarkibi bakteriyalarning faolligini oshiradi, bu esa parchalanish tezligi va fermentatorda parchalanish darajasining oshishiga olib keladi.

Agar substrat suzuvchi qobiq hosil qilishga ko'proq moyil bo'lsa, substrat aralashmasi tarkibiga albatta chiqindilarni kiritish kerak. 3.5-jadvalda azot miqdori va unga bog'liq ravishda ammiak hosil bo'lishi bilan rivojlanishning kechikishlari ko'rsatilgan (shuningdek, 2-bo'limga qarang).

### Energetik o'simliklarni almashlab ekish

Biogaz qurilmalari uchun energetik o'simliklarni almashlab ekishni optimallashtirish uchun quyidagi uchta ta'sir etuvchi omilni muvofiqlashtirish kerak:

1. Turli navlardan yuqori hosil olish bilan navlarni tanlash va ularni yetishtirish ketma-ketligi (gektaridan yillik olinadigan *organik quruq moddalar* hisobida).
2. Har bir nav uchun xos bo'lgan yuqori darajada metan chiqishi va ularni aralashtirishda eng yaxshi ozuqaviy birikmani hosil bo'lishini hisobga olgan holda navlarni tanlash.
3. Turli ekinlar orasida metan hosil bo'lishining maksimal potensialidan kelib chiqib, tarkibiy moddalarni optimallashtirish (masalan, moyli ekinlarni ham integratsiyalash orqali yog' miqdorini ko'paytirish).

Shuningdek, ekinlarni ekishda optimall ketma-ketlikni tanlab olishda ekologik aspekt (jihat) larni unutmaslik kerak. Makkajo'xorini eksklyuziv ravishda yetishtirish ekin maydonlarining hosildorligi nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lar, ammo bu kemiruvchi zararkunandalar va kasalliklarning ko'payishiga, chirindilarning ortiqcha parchalanishiga olib keladi. Energetik o'simliklarni yetishtirishda ham yaxshi professional amaliyot qoidalariga o'z-o'zidan amal qilish kerak.


Energetik nuqtai nazardan almashlab ekishni optimallashtirishda C3 va C4 o'simlik guruhlarining kombinatsiyasidan foydalanish yaxshidir (3.7-rasmga qarang). C3 o'simliklar qishda sovuqqa eng chidamli, biomassaga boy, issiqsevar C4 o'simliklari yozda yaxshi omon qoladi. Bu yil davomida gektariga o'rtacha 250-300 sentner hosildorlikdagi quruq massani ikki marta olish imkonini beradi.

C4 o'simliklar guruhiga makkajo'xoridan tashqari tariq, shakarqamish va amarantlar<sup>18</sup> kiradi. Ushbu o'simliklarning katta kamchiligi bu ularning sovuqqa sezgirligi. Bizning geografik kengliklarda o'stirliganda ularning mahsuldarlik potensialiga unchalik ko'p cheklovlar mavjud emas. Lekin oktyabr o'rtalari va aprel oylaridagi salqin ob-havoda ulardan ko'ra mahalliy C3 o'simliklari

<sup>18</sup> Amarant, yoki rus. «циприца» (*Lotin Amaranthus*) – zinch boshoqli, mayda gulli bir yillik o'simlik. Issiq va mo'tadil joylarda o'sadi, 100 dan ortiq tur ma'lum.

ustunlikka ega bo'ladilar.

### C3 va C4 o'simliklarning optimal kombinatsiyasi



3.7-rasm. C3 va C4 guruh o'simliklarining xarakteristikalari.

### Makkajo'xori va kungaboqarni birgalikda yetishtirish

	Kungaboqar+makkajo'xori	Makkajo'xori
Quruq modda mahsuldarligi, sent/ga	150	200
Xom yog', % Quruq moddada	6,3	3,6
Metan mahsuldarligi m <sup>3</sup> CH4/kg oQM	0,49	0,34
Metan mahsuldarligi m <sup>3</sup> /ga	7350	6713

3.6-jadval. Makkajo'xori+kungaboqarni aralash yetishtirish. "Euralis Saaten" kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan kuzatish natijalari, 2004 yil.

Ikki xil ekinlardan foydalanishning bunday tizimida kombinatsiyalashning imkoniyatlari chegaralanmaydi. Doktor Karpenshteyn-Mahan va prof. Doktor Sheffer (Kassel-Vitsenxauzen) bunday ikki turli ekinlarni yetishtirishning ko'plab tizimini yaratdi va eng avvalo, ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish bo'yicha biologik asoslangan sinovlar o'tkazdi.

Dastlabki ekinlar (donli ekinlarning qishki navlar, qishki dukkakkilar, rapsning qishki navlari) odatda sut donachalari yetilish bosqichida yig'ib olinadi, shuning uchun ikkinchi hosilni (makkajo'xori, kungaboqar, faselya, yozgi donli ekin navlari va boshqalar) iyun o'rtasidan iyul oyining boshigacha yetishtirish mumkin). Birinchi hosilni erta yig'ib olish natijasida, begona o'tlarning ko'payishiga yo'l qo'yilmaydi, bu esa gerbitsidlardan foydalanish zarurat qoldirmaydi. Allaqaqhon mavjud bo'lgan begona o'tlar esa quruq moddalar hosilini ko'paytirishga yordam beradi. Hosildorlikning bunday kombinatsiyasi quruq moddadan gektariga 250 sentnerdan hosil olishga yordam beradi va hatto noqulay sharoitlarda ham yomg'ir yetarli darajada bo'lsa, makkajo'xoridan ustunlikka ega. Qishki donli ekinlar dastlabki hosil uchun eng yaxshi ekin hisoblanadi. Arpa, javdar va tritikale<sup>19</sup> erta pishganligi sababli bug'doyga nisbatan afzalliklarga ega.

### Hosilni yig'ish ketma-ketligi bo'yicha C3/C4 o'simliklar kombinatsiyasiga doir misollar

Qishki surepka (yog' uchun), 1-o'rim	Qishki surepka (yog' uchun), 2-o'rim	Makkajo'xori	Javdar	Tariq
Iyul.....Okt.	Yanvar....Aprel	Iyul.....Okt.	Yanvar....Aprel	Iyul.....Okt.
C3 – o'simlik	C4 – o'simlik	C4 – o'simlik	C3 – o'simlik	C4 – o'simlik

3.8-rasm. Energetik o'simliklar hosili ketma-ketligining hisobiga misol

<sup>19</sup> Tritikale – bug'doy, javdar duragayi – ikki xil o'simlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'simlik; g'alla ekini. Uning kuzgi va bahorgi shakkllari mavjud.

Ushbu yo'nalishda qishloq xo'jaligini tadqiq qilish O'zbekistonda hali ham o'zining dastlabki bosqichida. Selektsiya ishlari orqali biomassani shakllantirish potensialining sezilarli darajada o'shiga erishish mumkin.

Energetik ekinlarini almashlab ekishga doir misollar 3.8-rasmida keltirilgan.

### Monofermentasiya va energetik o'simliklar

Qo'shimcha chirindi qo'shmasdan fermentasiya uchun uzoq muddatga bitta o'simlik navini (masalan, makkajo'xori yoki faqat o't-o'lanlar) ishlatish mumkinmi yoki yo'qmi – bu hozirda mutaxassislar orasida munozarali mavzu. Birinchidan, amalda bir xil turlarni – makkajo'xori yoki o't-o'lanlar silosining fermentasiyasi bilan shug'ullanuvchilar monofermentasiya imkoniyatlarini cheklangan deb hisoblashadi. Ularning fikriga ko'ra, ozuqa moddalarining bir yoqlama tarkibi bakteriyalarning yetarlicha to'yinmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, energetik o'simliklarining tez parchalanishi metan hosil qiluvchi bakteriyalar uchun noqulay muhitning sharoitlarini vujudga kelishiga olib keladi va bu hatto jarayonning kollapsiga olib kelishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, monofermentasiya faqat fermentasiya kamerasining yuklamasi past bo'lganda yoki ikki bosqichli tizimdan foydalanganda mumkin va uzoq muddatli foydalanish uchun ozuqa moddalarini yoki achitqi mikro dozalarini qo'shish har doim talab qilinadi.

Mavjud bo'lgan qurilmalarning aksariyati ko'plab tarkibiy komponentlardan tashkil topgan substratlar aralashmasida ishlaydi, shuningdek monofermentasiyani amalga oshiradigan qurilmalar odatda 2 yildan ortiq bo'limgan vaqt davomida ishlatiladi va hech bo'limganda ishga tushirishda "bir qism achitqi" dan foydalananadilar. Achitqidan foydalanishni rad etib, bakteriyalar monosubstratga o'rganib qolmaguncha, fermentasiya vaqtini odatdagidan besh baravar ko'proq vaqt talab etadi. Yaqin vaqtgacha ham amaliyotda ma'lum bo'lgan deyarli barcha tajribalar yaxshi natijalarni bermadi.

### Aralash o'simlidarni o'stirish, substratlarni aralashtirish

Aralash o'simliklarni yetishtirish ikki yoki undan ko'p turli xil asosiy ekin turlarini birgalikda etishtirishni anglatadi. Ushbu usulning afzallikkari

quyidagilardan iborat:

- begona o'tlarning o'sishini oldini olish;
- barqaror va serhosilllik;
- korxona mablag'larini tejash;
- talab darajasidagi yoki takomillashtirilgan sifat;
- oziq moddalaridan va tabiiy sharoitlardan samarali foydalanish.

Bugungi kunga kelib, aralash o'simliklarni yetishtirish texnikasidan foydalanish tajribasi juda kam. Xo'jalikni ekologik boshqaruv prinsipi asosida ishlaydigan korxonalar bunday aralash maydonlar bilan ishlashda katta tajribaga ega.

Hozirda energetik o'simlik yetishtiruvchilar makkajo'xori va kungaboqarni birgalikda yetishtirish bilan shug'ullanmoqdalar (3.9-rasm). Makkajo'xori tarkibida kam miqdorda yog' (2-3%) bo'lganligi sababli, bir vaqtning o'zida kungaboqarni ham birgalikda yetishtirish orqali yog' miqdorini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar va shu bilan biogaz ishlab chiqarishni ko'paytirishmoqda. Biroq, kungaboqarni o'zini siloslash qiyin, shuning uchun uning oson siloslanadigan makkajo'xori bilan kombinatsiyasi juda muvaffaqiyatlidir. Umuman olganda, fermentatorni to'g'ridan-to'g'ri to'ldirish maqsadida bunday energetik jihatdan optimal aralashmalarni hosil qilishga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. "Euralis Saaten" kompaniyasi (<https://www.uralis.de/>) makkajo'xori-kungaboqar aralashmasini o'stirish bo'yicha ba'zi tajribalarni umumlashtirdi va quyidagi tajribalarga ega bo'ldi:

- ✓ Aprel oyining oxirida ekish;
- ✓ Lavlagi yoki makkajo'xori uchun pnevmatik ekish dastgohlaridan foydalanish va kungaboqar ekish uchun kichik teshiklarni qazish;
- ✓ Qatorlar orasidagi masofa 75 sm; Ikkala turni ekish uchun 8-9 o'simlik/m<sup>2</sup>;
- ✓ Aralash ekin ekishda, 4 qator makkajo'xori + 4 qator kungaboqar, makkajo'xori asosiy hosil bo'lish uchun 10% ko'proq talab qiladi;
- ✓ Ekiladigan tuproqni o'g'itlash ko'proq makkajo'xori uchun zarurdir;
- ✓ Agar kungaboqarning gul barglari so'na boshlasa, quloqlari va ildizi

sarg'aygan bo'lsa, yetilgan hisoblanadi;

- ✓ O'simliklarni somoncha shaklida juda mayda qilib kesish kerak.



3.9-rasm. Makkajo 'xori va kungaboqarni aralashtirib ekish.

Euralis tomonidan o'tkazilgan bunday yetishtirish tajribalari shuni ko'rsatadiki, makkajo'xori va kungaboqarni aralash ekishda har gektariga to'g'ri keladigan quruq modda miqdori alohida makkajo'xori yetishtirishga nisbatan past bo'lgan, lekin metan chiqish hosildorligi 10% yuqori bo'lgan (3.6-jadval). Bu shuni anglatadiki, quruq moddalar ishlab chiqarishni shu tarzda har doim ham optimallashtirish shart emas.

Bundan tashqari, tarkibidagi moddalarga ko'ra tanlab ratsionni optimallashtirish mumkin. Hozirgi vaqtida butun raps o'simligini siloslash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda va bundan ratsiondag'i yog' tarkibini oshirish maqsadi ham ko'zda tutilgan (LFL, Bavariya).

Qurg'oqchilik yillarda ham barqaror va ishonchli hosil olish uchun makkajo'xori va tariqni birlgilikda yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi (3.10-rasm). Makkajo'xori o'sishi uchun qulay yillarda makkajo'xori dominantlik qilgan, suv tanqis bo'lgan yillarda tariq biomassasi ishlab chiqarishda asosiy rolni o'z zimmasiga olgan. Umuman olganda, qo'shimcha tadqiqotlarni o'tkazish talab etiladi. Buni asosan fermerlar mustaqil ravishda tajriba o'tkazishlari zarur. Chunki kelajakda energetik o'simliklarni yetishtirish uchun hosildorlik va foydalı moddalar tarkibni optimallashtirishdan boshqa chora bo'lmaydi.

3.10-rasm. Makkajo 'xori va tariqni aralash yetishtirish.



#### Qishloq xo'jaligidagi vinochilik bardasining fermentasiysi

Garchi barda toza chiqindi hisoblansada, biogaz hosil qilishda boshqa qayta tiklanuvchi xom-ashyo turlariga qo'shimcha sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Barda alkogollli mahsulotlar ishlab chiqarishdagi chiqindi mahsulotdir. Mahsulot ishlab chiqarilgan manba turiga qarab don, kartoshka yoki meva bardalariga ajratiladi. Barda tarkibidagi quruq modda miqdori 5% dan past. Shuning uchun bunday substratning har  $m^3$  hajmidan kam miqdorda gaz hosil qilinadi va shu bilan birga katta hajmli fermentator talab qiladi. Bir kilogramm organik quruq substratdan metanning chiqishi 250 dan 350 litrgacha bo'ladi.

U oson parchalanishi sababli, anaerob sharoitda o'ta oksidlangan muhit juda tez vujudga keladi. Shuning uchun, toza bardadan foydalanishda metan bakteriyalarini o'ta to'yintirib yubormaslik uchun faqat ikki bosqichli texnologiyalarni qo'llash kerak. Boshqa qishloq xo'jalik substratlari bilan kofermentasiyasida (asosan bir bosqichli usulda), ular ehtiyyotkorlik bilan tanlanishi lozim bo'ladi. Lekin shuni ham hisobga olish kerakki, material yuqori suv miqdoriga egaligi tufayli quruq substrat tarkibi yuqori bo'lgan material bilan yaxshi mos keladi.

Agar tahlil qilinadigan bo'lsa, Germaniyada yopiq turdag'i kichik ishlab chiqaruvchi spirit zavodlari 30 foiz spirit tayyorlasa va fermentasiya spirtining 70

foizi qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan zavodlarga tog'ri kelsa, ayni paytdagi vaziyatdan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida biogaz ishlab chiqarish potensialning ulkan qismidan foydalanilmay kelinmoqda degan xulosaga kelish mumkin. Lekin mamlakatdagi ayrim zavodlar spiritni yonilg'i sifatida ishlab chiqarish va biogaz hosil qilish kabi ushbu foydali kombinatsiyani allaqachon anglab yetgan. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yaqin orada butun dunyoda ham ularning izdoshlari soni ko'payadi.

#### **Organik chiqindilar tarkibidagi og'ir metallarning tarkibi (mg/kg QM) va tozalash inshootlari uchun tasniflashning chegara qiymatlari**

Substrat	Pb	Zn	Cd	Cr	Cu	Ni	Hg
Qoramol go'ngi	7	230	0,3-0,5	8	38	6	
Cho'chqa go'ngi	7-18	700-200	0,5-1,8	2-14	250-760	11-32,5	
Biochiqindilar		88-105	0,3-0,6	7-25	14-21	5,5-10	
Terini qayta ishlashdagi chiqindilar	5	14	<0,1	1,4	3	1,2	<0,1
Yog'	76	205	<0,1	37	34	15	0,04
Pivo bardasi	0,3-1	76-138	0,1-0,2	0,5-16	5,5-15	0,5-16	
Olmanig sok olingandan keyingi qoldig'i	3,4	6,7	0,3	1,6	7,8		
Uzum bardasi		75	0,5	5	150	2,5	
Presslangan lavlagi pulpasi		86	1,35	16,9	16,6	7,7	0,04
Don qipig'i	18,6	240,7	0,15	5,1	9,3	5,8	0,16
Tozalash filtri quyqasi	900	2500	10	900	800	200	8
Tozalash inshootlari grunti	100	200	1,5	100	60	50	1
Fermentasiyalash qoldiqlarining biochiqindilar	150	400	1,5	100	100	50	1

Tuproq grunti biochiqindilar	100	200 (pH<6 da150)	1,5	100	60	70	1
Qumloq yerlar grunti biochiqindisi	70	150	1	60	40	50	0,5

**3.7-jadval. Organik chiqindilar tarkibidagi og'ir metallarning tarkibi va tozalash inshootlari uchun tasniflashning chegaraviy tasniflash qiymatlari**

#### **Organik chiqindilar**

##### **Substratlarning xususiyatlari**

Organik chiqindilar asosan fermentasiya va hayvonlar ekskrementi bilan birgalikda fermentasiyalash uchun juda mos keladi. Ayniqsa, alohida fermentlanadigan substratlardan tashkil topgan substratlar – masalan, sanoatda qayta ishlashdan olingen monosubstratlar deb ataladigan glyukol kabi moddalar bir bir jihatdan barqaror fermentasiya uchun “asosiy substrat” sifatida ishlatish uchun tavsiya etiladi. Monosubstratlar fermentasiyasining muhim sharti bu mikroorganizmlarning murakkab kompleksi faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha oziq moddalar va mikroelementlar bilan to'liq ta'minlashdir (2.3-jadvalga qarang).

Cosubstratlar fermentasiyalanayotgan substratining tarkibida, ayniqsa quruq moddalar, ozuqa moddalar va zararli moddalar tarkibida o'zgarishlarga olib keladi. Fermentasiya paytida zararli moddalar odatda muhim rol o'ynamaydi, ammo keyinchalik o'g'itdan foydalanishda muhim ahamiyatga ega.

##### **Oziq va zararli moddalarning tarkibi**

Qurilmani rejalashtirayotganda u yoki bu organik chiqindilardan foydalanishga qaror qilishdan oldin ozuqa va zararli moddalarning tarkibi allaqachon ko'rsatilishi kerak, shuningdek tahlil ma'lumotlarni albatta o'rganib chiqish kerak. Agar ba'zi istisnolarni hisobga olmaydigan bo'lsak (masalan, spirit bardalari, pivochilik pulpalar va boshqalar) unda chiqindilar tarkibidagi zararli va foydali moddalar kelib chiqishiga qarab juda farqlanishi mumkin. Solishtirish uchun 3.7 va 3.8-jadvallaridagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Umuman

olganda, qoida shundayki, aralashmalar va zararli moddalarning miqdori qancha ko'p bo'lsa, xom ashyo shunchalik intensiv ravishda qayta ishlanadi yoki aksincha. Chiqindilarning vujudga kelish tarixi ulardag'i aralashmalar va zararli moddalarning tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi sababli, barcha qayta ishlash jarayonlarini diqqat bilan kuzatib borish foydali bo'ladi. Agar biz to'g'ridan-to'g'ri aralashmalarni chiqarib tashlasak (qismlarga ajratish, konservatsiya va boshqalar), unda chiqindilar tarkibi va "tozaligi" ularning xususiyatlari ko'ra juda barqaror bo'ladi.

#### Organik chiqindilarning baholovchi xususiyatlari (alohida tadqiqotlar)

Substrat turлari	Substrat nomlari	% QM	% oQM	N umumi y	Fosfat	K <sub>2</sub> O	% xom prote in	% xom yog'	% klechat ka	kW*)
		ST	ST	g/l	g/l	g/l	YS	YS	YS	g/kg
Kommunal chiqindilar	Biochiqindilar	60-75	30-70	0,6-2,7	0,2-0,4	0,4-2				
	Oshxona chiqindilar			0,6 - 2,2	0,3-1,5	0,4-1,8				
	Bog' va o'tloqlar chiqindisi			0,3-2	0,1-2,3	0,4-3,4				
	Park maysazorlari; Yaylovlar o'nimi	21	19	6,7	0,7	4,2	4,2			
Kushxona chiqindilar	Oshqozondagi massa	17	16	5,8						3,8
	Flotatsiya <sup>20</sup> cho'kmalar	12	11	6,0						45

<sup>20</sup> Flotatsiya - suvni organik moddalardan va qattiq suspenziyalardan, alohida aralashmalardan tozalash va kimyoviy, nefni qayta ishlash, oziq-ovqat va boshqa sohalarda cho'kishni tezlashtirish jarayoni.

Flokkulyatsio n <sup>21</sup> cho'kmalar	5	13	5,9	3,8	0,1					84,5
Agrasanoat qoldiqlari	Ajratib olingan yog'	40	39	3,3	5,1	2,7				386
	Teri qoldiqlari	47	42	6,9						10
Agrosanoat qoldiqlari	Mezdra (yelim pishirish uchun ishlataladigan chiqindi teri)	22								80
	Donli ekinlar qipig'i	86	80	13,0	2,3	9,5				22
Oziq-ovqat sanoti chiqindilar	Kartoshkani tozalashdagi chiqindilar	22	18	4,5				2,8	0,1	0,4
	Kartoshka pyuresi	20	18	4,8				3,0	0,2	1,0
Kartoshka pulpasi	Kartoshka bardasi	16	15	1,4	0,05	1,8	0,9	0,1	4,4	
	Xamirturush suvi	7	6	3,9			2,4	0,3	0,6	
		5		1,8			1,1			

\*) kilovatt = tozalangan yog' = S qattiq yog'lar va o'simlik yog'lar; YS = yangi substrat

3.8-jadval. Organik chiqindilarning baholovchi xususiyatlari (alohida tadqiqotlar asosida).

<sup>21</sup> Flokkulyatsiya - odatda eritmada ko'rinxaydigan moddaning katta massa shaklida cho'ktirilishi yoki uning fizikaviy yoki kimyoviy holatining o'zgarishi natijasida cho'kindi bo'ladi reaksiya.

Aksiga olib oziq-ovqat chiqindilar va biologik chiqindilar kelib chiqishiga qarab kuchli mavsumiy tarkibiy o'zgarishlarga uchraydi va ularda ozmi-ko'pmi aralashmalar va zararli moddalar bo'lishi mumkin. Ba'zi sharoitlarda bunday substratning fermentasiyasi foydasiz bo'ladi.

Kofermentasiyadan hosil bo'ladigan ozuqa moddalarini tashish harajatlari ularni ishlatalidigan qishloq xo'jaligi dalalariga yetkazilishida oziq moddalarining yillik ruxsat etilgan maksimal miqdori bilan solishtirish uchun ozuqa moddalarining ishlab chiqarish balansida (korxonadan-xo'jalik balansiga) aks ettirilishi kerak.

Ko'p sonli qoramolga ega bo'lgan korxonalardagi chiqindilar tarkibida ozuqaviy moddalar mavjudligi tufayli kofermentasiya faqat oziq moddalar kompost shaklida qaytarib olingan taqdirda yoki korxonalar o'rtasida fermentlangan chiqindini qaytarib olish bo'yicha kelishuvga muvofiq amalga oshiriladi. Xuddi shu model bo'yicha zararli moddalarini tashishni ham tashkil etish kerak. Agar chiqindilarni utilizatsiya qilish amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan doirada tashkil etishi mumkin bo'lsa, unda buning uchun davlat idoralaridan barcha kerakli bo'lgan ruxsatnomalarni olish zarur.

#### Utilizatsiya shartnomasi

Chiqindilarni qayta ishlashda ekspluatatsiya jarayonlari atrof-muhit o'zgarishlariga juda ta'sirchan muhitda amalga oshiriladi, ularni tartibga solish, boshqaruvgaga oid talablar doimiy ravishda o'sib boradi. Uning utilizatsiyalash bo'yicha huquqiy mezonlarga javob berishi va mos kelishi kafolatlangan bo'lishi kerak. Shuningdek, huquqiy javobgarlikni tartibga solish va majburiyatlarni aniq taqsimlash zarur.

Utilizatsiya shartnomasi xususiy huquqiy shartnomadir (pudrat shartnomasi, 3.9-jadval). Chiqindilar bilan ishslash ko'plab ommaviy qonunlar me'yorlariga bo'ysunganligi sababli, ko'plab masalalar fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi, shuning uchun bu chiqindilarni utilizatsiya qilish shartnomasida ham hisobga olinishi kerak.

Utilizatsiya shartnomasi mazmuni	
Manzillar	Buyutmachi, pudratchi
Shartnoma predmeti	Utilizatsiya va alohida holatlar uchun chiqindilarni tashish; zararli moddalarning ruxsat etilgan maksimal miqdorini aniqlash
Tashish	Substratni tashish va transport turini aniqlash
To'lov va to'lovlarning o'zgarishi	To'lov shaklini aniqlash
Mas'uliyat, javobgarlik	Pudratchining mas'uliyati
Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilinishi	Shartnoma tugashiga olib keladigan shartlar
Shartnoma shartlarining buzilishi	Agar shartnomadagi taraflardan biri o'z majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, unda ba'zi choralar ta'minlanadi
Shartnomani o'zgartirish	Agar asosiy shartlar o'zgarsa, u holda shartnoma tegishli ravishda o'zgartirilishi kerak
Uchinchi shaxs subpudratchi sifatida	Pudratchi uchinchi shaxs tomonidan bajarilgan ishni qabul qilish huquqiga ega
Maxfiylik shartlari	
Ruxsat etilgan huquqlar	Rezervuarlarga kirish ta'minlanishi kerak
Yurisdiktsiya	Birinchi instansiya sudi, pudratchining ro'yxatdan o'tgan joyida
Arbitraj sudlari	Shartnoma bilan bog'liq fikrlar xilma xilligi yoki ziddiyatlari vaziyatlarda hakamlik (arbitraj) sudlari jalg etiladi
O'zgartirish va tuzatishlar kiritish	Barcha o'zgarishlar yozma ravishda amalga oshiriladi, agar alohida bo'limlar o'z kuchini yo'qotsa, ularni huquqiy ravishda tartibga solish yo'llini topish lozim bo'ladi

3.9-jadval. Utilizatsiya shartnomasining mazmuni

Masalan, chiqindilarni tartibga solish, qayta ishlash bo'yicha qonun hujjaligiga muvofiq chiqindilarni utilizatsiya qilish majburiyatları (tashkilot yoki chiqindilar egasi/ishlab chiqaruvchisi) zimmasiga yuklangan. Bu shuni anglatadi, utilizatsiya shartnomasi doirasida vakolatli fermerlar yoki chiqindi egalari texnik qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish rejalarini amalga oshirishning asosiy vositasi hisoblanadilar. Shunday qilib, utilizatsiya uchun javobgarlik, majburiyatlar saqlanib qoladi, agar:

- uchinchi shaxs jalb qilingan bo'lsa;
- baxtsiz hodisa yoki uchinchi shaxs nomaqbul utilizatsiya qilgan taqdirda yakuniy javobgarlik;
- chiqindilarni ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy mulk mavjud bo'lsa.

Bunga ko'ra, masalan, chiqindi tashlash natijasida yer osti suvlari yoki qo'shni xo'jaliklar zarar ko'radian baxtsiz hodisa yuz berganda, davlat huquqni muhofaza qilish idoralari avariya sababchisi sifatida birinchi navbatda fermer (yer egasi) ga murojaat qilishadi. Ammo, agar fermerning mol-mulki avariya oqibatida kelib chiqadigan xarajatlarni bartaraf etish uchun yetarli bo'lmasa, u holda davlat idorasini chiqindilar ishlab chiqaruvchisi bilan bog'lanadi.

Chiqindilarni ishlab chiqaruvchisi uchun javobgarlik faqat utilizatsiya qilish barcha qonun hujjaligiga muvofiq bo'lganidan keyingina tugaydi. Fermer uchun bu quyidagilarni anglatadi: agar fermentasiyalanadigan tarkibida zararli moddalar mavjud bo'lib, chiqindi ishlab chiqaruvchisi tomonidan ogohlantirilmagan bo'lsa u holda oddiy utilizatsiya haqida gap bo'lishi mumkin emas, shuning uchun javobgarlik chiqindi ishlab chiqaruvchisiga yuklanadi. Agar keyinchalik xavfsiz deb anqliangan ba'zi moddalar zaharli ekanligi anqliansa, u ma'lum bo'lgan vaqtgacha utilizatsiya qilish qonuniy hisoblanadi. Bunday holda, chiqindilarni ishlab chiqaruvchi kompaniya yetkazilgan zarar uchun javobgarlikka tortilmasligi kerak. Zaharliligi ma'lum bo'lgandan keyingina utilizatsiyaga ruxsat berilmaydi.

Fermer chiqindilarni ishlab chiqaruvchi uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomasi bo'yicha sherik bo'lishi kerak edi; subpudratchilarni utilizatsiya jarayoniga quyidagi sabablarga ko'ra jalb qilish maqsadga muvofiq emas:

- subpudratchilar ma'lum sharoitlarda juda katta foyda olishadi. Ish tugagach, riskni birinchi navbatda fermerlar o'z zimmalariga olishadi.

- faqat shu tarzda substrat tarkibini bevosita va to'g'ridan-to'g'ri boshqarish mumkin.

Utilizatsiya qilish korxonasi ishtirokida chiqindini aralashtirish xavfi yo'q (substratning maxfiyligi).

- Oxirgi ilmiy dalillarga ko'ra toksik bo'lishi mumkin bo'lgan substrat tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri chiqindilar ishlab chiqaruvchisi bilan tuzilgan shartnomada muhokama qilinishi mumkin.

### Gazning chiqishi

Organik chiqindilarni guruhida gazning chiqishi bo'yicha miqdorlarning amplitudaviy qiymatlari keskin farqlanadi. Kamdan kam hollarda va faqat ba'zi biochiqindi qurilmalari uchun asl substratlar va jarayonning biologik tomonlarini aniq tahlil qilish amalga oshiriladi. Organik chiqindilardan gazning chiqishi bo'yicha taxminiy ma'lumotlar 3.10-jadvalda keltirilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, substratlar quruq moddalari miqdori va ularning tarkibi jihatidan bir-biridan juda farq qiladi va natijada bu gaz unumdonrigiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Spirtli ichimliklar ishlab chiqarish natijasida hosil bo'lgan substratlar tarkibida suv miqdori juda yuqori va natijada gazning chiqish samaradorligiga aks ta'sir qilib fermentatorda yuqori zichlik hosil qiladi. Gazning yuqori darajada hosil bo'ishi asosan yog'ga va shakarga juda boy bo'lgan moddalarda, masalan, yo'q tutgich qurilmalaridagi yog' va kraxmal ishlab chiqarishdagi sharbat suvlari kabilarda kuzatiladi.

Kozubstratlarni tanlashda ularning foydalanish uchun yaroqliligi, ayni mavsumda potensualining mavjudligi va uzoq muddatli saqlash imkoniyatlarini tekshirish ham alohida ahamiyatga ega. Mavsumiy chiqindilarga, masalan, bardalar kiradi. Bu esa mavsum oxirida katta miqdordagi bo'sh fermentator hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu korxonaning substrat-menejmentiga yuqori talablarni qo'yadi.

Agar asta-sekin foydalanishni ta'minlash uchun substratlarini uzoq vaqt saqlash kerak bo'lsa, uzoq muddatli saqlashga yaroqliligidagi e'tibor qaratish lozim.

Ba`zi substratlar qatlamlar hosil qilishga yoki haddan tashqari oksidlanishga moyil bo`ladi. Ushbu omillarning barchasi muayyan holatlarda ko`rib chiqilishi kerak.

Organik chiqindilardan gazning chiqishi								
Substrat		QM dan QM %	QM dan oQM %	Nunaniy %, QM dan	Fosfat %. QM dan	K <sub>2</sub> O %, QM dan	Biogaz chiqishi l/kg. oQM dan	CH <sub>4</sub> ulushi
	Biochiqindi	60-75	50-70	0,6-2,7	0,2-0,8	0,4-2	150-600	58-65
Kommunal	Oshxona chiqindilari	9-37	80-98	0,6-5	0,3-1,5	0,4-1,8	200-500	45-61
Chiqindilar	Park mayasorlari o`rimi	12-21	82-92	2-6,7	0,7-2	4,2	550-680	55-62
	Bozordagi chiqindilari	28-45	50-80	0,6-3			450	62
Kushxona chiqindilari	Oshqozondag i massa	11-17	80-90	2-5,8	1,6		200-400	58-62
Agrosanoat chiqindilari	Yog` tutgich chiqindisi	2-70	75-93	0,1-3,3	0,1-0,6		700	60-72
Oziq-ovqat sanoati chiqindilari	Donni tozalashdagi chiqindilar (qipiql)	86	80	13,0	2,3	9,5		
Pivo ishlab chiqarish	Pivo i/ch qoldiq granulalari <sup>22</sup>	25	80	5	1,5		580-750	60
Mevalarni qayta ishlash	Olma bardasi Uzum bardasi	25-45 40-50	85-90 80-90	1,1 1,5-3	0,3 0,8-1,7		660-680 640-690	65-70 65-70
Kraxmal ishlab	Kartoshka pyuresi	20	18	4,8				

<sup>22</sup> Pivo pelleti yoki bu pivo ishlab chiqarish chiqindisi – arpa yormasini qaynatish va su`rib olishdan keyin qolgan massa. Urug` zarralari va don qobig`ini o`z ichiga oladi.

chiqarish, kartoshkani qayta ishlash	Kartoshka pulpasi Sharbat suvi	16 3,7	90 75	0,5-1,4 4-5	0,05 0,8-1	1,8 2,5-3	650-750 1500-2000	52-65 50-60
Spirit ishlab chiqarish	Kartoshka bardasi Don bardasi Mevalar bardasi	6-7 6-8 2-3	85-95 83-88 95	5-13 6-10	0,9 3,6-6 0,73	400-700 430-700 300-650	58-65 58-65 58-65	
Shakar ishlab chiqarish	Presslangan pulpa Melassa <sup>23</sup>	22-26 80-90	95 85-90	1,5	0,3	250-350 360-490	70-75 70-75	
Drojja (bijg`ituvchi, xamirturush) ishlab chiqarish	Drojjanji presslangandan keyingi suv	5		1,8				
	Drojja melassasi chiqindilari	72	60	41,4	1,8	57,5		

3.10-jadval: Organik chiqindilardan gazning chiqishi va tarkibi.

### Organik chiqindilarga texnik talablar

Chiqindilar tarkibida turli aralashmalar va zararli moddalar, shuningdek gigiyena sababli, ularni qayta ishlashdan oldin maxsus tayyorgarlik kerak bo`ladi (3.11-jadvalni taqqoslang).

Ko`pincha, kichik korxonalarda chiqindilarni qayta ishlashdan olinadigan foyda tegishli texnik xizmat ko`rsatish va xodimlarning ishi xarajatlarini qoplamaydi.

<sup>23</sup> Ingliz tilidan tarjima qilingan – shinni yoki qora treyak – bu qand lavlagidan shakar olish jarayonidagi mahsulot. Shinni shakar miqdori va o'simlikning yoshiga qarab farq qiladi. Shakarli pekmez, asosan, AQSh, Kanada va boshqa joylarda shirinliklarni va lazzat beruvchi ovqatlar uchun ishlataladi.

Oldindan qayta ishlash texnologiyalari	
Aralashmalarni ajratish	Elak, havoli separator, siklon, magnit separator, press, qo'lda ajratish
Substratlarni boyitish	Mexanik (mikser, kominuter), kimyoviy (kislotalar/ishqorlar qo'shilishi), biologik (enzimlar qo'shilishi), termal (gigiyenalash)
Kombinatsiyalangan usul	Ajratib olingan cho'kma quyqasi va suzib yuruvchi qobiq, mexanik boyitish

3.11-jadval. Organik chiqindilarni oldindan qayta ishlash.

Kofermentasiya paytida korxona faoliyatini optimallashtirish imkoniyati	
Amalga oshiriladigan ishlar	Kutilayotgan natijalar
3 kunlik saqlash uchun yetarli bo'lgan oldindan saqlash rezervuari yoki uzatuvchi qurilma	Bir maromda uzatish uchun bufer, yordamchi moddalar qo'shish imkoniyati, qo'pol, keraksiz aralashmalarni ajratish; agar kerak bo'lsa gidroliz bosqichlaridan biri - dastlabki saqlashni amalga oshirish; agar kerak bo'lsa - oldindan aerob ishlov berish
2 bosqichli fermentasiya (ketma-ket fermentatorlar)	Har bir bosqichni alohida ajratish, har xil aralashish intensivligi, har xil haroratni qo'llash
Fermentatorda ajratuvchi devor	Oqim ortib ketishini oldini oladi
Fermentasiya harorati 25-28siya	Reaksiya kinetikasining seklinashishi, bufer xususiyatlarining yaxshilanishi,

C/N munosabatini optimallashtirish	$CO_2$ ning biogazdagi ulushini kamayishi $N$ etishmaslididan saqlanish yoki $NH_3$ ta'siridagi jarayon rivojlanishining kechikishini kamaytirish
Substratning o'zgarmas tarkibi	Eng yaxshi moslashtirilgan ekinlarni yaratish
Substratni uzatish/yulash intervalini ortishi	Oraliq mahsulotlarni (masalan, organik kislotalarni) yuklashda keskin uzilishlardan saqlanish
Asta-sekin yuklash ( $CO_2$ konsentratsiyasi boshqariladigan kattalik sifatida)	Substratni bakteriyalar bilan "urug'lantirish", buffer potensiallarni yaxshilash
Gaz saqlanadigan/to'planadigan qismni mum yoki smola kabi qoplama bilan qoplash	Qoldiq fermentasiya gazlarini ham tutib olish

3.12-jadval: Kofermentasiya bilan ishlaydigan biogaz qurilmasining muammosiz ishlashi bo'yicha chora-tadbirlar.

### 3.3. Har xil turdag'i substratlarning xavflik potensiali

Zararli moddalar va aralashmalarning tarkibini hamda tirik organizmlarga zararli ta'sirini hisobga olgan holda substratlarning umumlashtirilgan ma'lumotlari guruhi 3.13-jadvalda keltirilgan.

Sabzavot chiqindilari, bardalar, yashil em-xashak va o'tloq o'rmlari to'liq xavfsiz qayta tiklanuvchi xom ashyo hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan organik o'g'itlar patogen mikroorganizmlarning tarqalishi bo'yicha gigiyenik jihatdan risk mavjud. Gigiyena nuqtai nazaridan katta risk kushxona va yirik restoranlarning chiqindilari bilan bog'liq bo'lib, ular gigiyenik qayta ishlovlardan o'tishi kerak. Biochiqindilar tarkibida ko'p miqdorda aralashmalar mavjud bo'lib, yo'l chetlaridagi maysazorlar esa odatda juda ko'p miqdordagi toksik moddalarni o'ziga biriktirgan.

Oldindan qayta ishlash texnologiyalari	
Aralashmalarni ajratish	Elak, havoli separator, siklon, magnit separator, press, qo'lda ajratish
Substratlarni boyitish	Mexanik (mikser, kominuter), kimyoviy (kislotalar/ishqorlar qo'shilishi), biologik (enzimlar qo'shilishi), termal (gigiyenalash)
Kombinatsiyalangan usul	Ajratib olingan cho'kma quyqasi va suzib yuruvchi qobiq, mexanik boyitish

3.11-jadval. Organik chiqindilarni oldindan qayta ishlash.

Kofermentasiya paytida korxona faoliyatini optimallashtirish imkoniyati	
Amalga oshiriladigan ishlar	Kutilayotgan natijalar
3 kunlik saqlash uchun yetarli bo'lgan oldindan saqlash rezervuari yoki uzatuvchi qurilma	Bir maromda uzatish uchun bufer, yordamchi moddalar qo'shish imkoniyati, qo'pol, keraksiz aralashmalarni ajratish; agar kerak bo'lsa gidroliz bosqichlaridan biri - dastlabki saqlashni amalga oshirish; agar kerak bo'lsa - oldindan aerob ishlov berish
2 bosqichli fermentasiya (ketma-ket fermentatorlar)	Har bir bosqichni alohida ajratish, har xil aralashish intensivligi, har xil haroratni qo'llash
Fermentatorda ajratuvchi devor	Oqim ortib ketishini oldini oladi
Fermentasiya harorati 25-28siya C	Reaksiya kinetikasining sekinlashishi, bufer xususiyatlarining yaxshilanishi,

C/N munosabatini optimallashtirish	$CO_2$ ning biogazdagagi ulushini kamayishi N etishmasligidan saqlanish yoki $NH_3$ ta'siridagi jarayon rivojlanishining kechikishini kamaytirish
Substratning o'zgarmas tarkibi	Eng yaxshi moslashtirilgan ekinlarni yaratish
Substratni uzatish/yulash intervalini ortishi	Oraliq mahsulotlarni (masalan, organik kislotalarni) yuklashda keskin uzilishlardan saqlanish
Asta-sekin yuklash ( $CO_2$ konsentratsiyasi boshqariladigan kattalik sifatida)	Substratni bakteriyalar bilan "urug'lantirish", buffer potensiallarini yaxshilash
Gaz saqlanadigan/to'planadigan qismni mum yoki smola kabi qoplama bilan qoplash	Qoldiq fermentasiya gazlarini ham tutib olish

3.12-jadval: Kofermentasiya bilan ishlaydigan biogaz qurilmasining muammosiz ishlashi bo'yicha chora-tadbirlar.

### 3.3. Har xil turdag'i substratlarning xavfllilik potensiali

Zararli moddalar va aralashmalarning tarkibini hamda tirik organizmlarga zararli ta'sirini hisobga olgan holda substratlarning umumlashtirilgan ma'lumotlari guruhi 3.13-jadvalda keltirilgan.

Sabzavot chiqindilari, bardalar, yashil em-xashak va o'tloq o'rilmari to'liq xavfsiz qayta tiklanuvhci xom ashyo hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan organik o'g'itlar patogen mikroorganizmlarning tarqalishi bo'yicha gigiyenik jihatdan risk mavjud. Gigiyena nuqtai nazaridan katta risk kushxona va yirik restoranlarning chiqindilari bilan bog'liq bo'lib, ular gigiyenik qayta ishlovlardan o'tishi kerak. Biochiqindilar tarkibida ko'p miqdorda aralashmalar mavjud bo'lib, yo'l chetlaridagi maysazorlar esa odatda juda ko'p miqdordagi toksik moddalarni o'ziga biriktirgan.

### Har xil turdag'i substratlarning xavflilik potensiali

		Xavf yo'q	Gigiyena nuqtai nazaridan xavfli	Turli aralashmala rga ega	Tarkibida zararli moddalar mavjud
Energetik o'simliklar	Makkajo'xori, donli shrot, o't-o'lanchalar silosi ...	+			
Mahalliy o'g'itlar	Suyuq go'ng, qattiq go'ng	+	+		+ (Cu, Zn ga boy bo'lgan substratlarda)
Kommunal chiqindilar	Yo'l chetidan maysazorlarni o'rish orqali bo'lgan yashil biochiqindilar	+		+	+
Qishloq xo'jaligi organik chiqindilar	Meva qoldiqlari, bardalar, sharbati olingan pulpalar	+			
	Eskirgan oziq-ovqatlar mahsulotlari		+	+	
	Oziq-ovqat mahsulotlарини qayta ishlash va farmasevtika sanoati. Kushxona chiqindilar (oshqozondagi massa, yog' tutgichlardagi tarkib va boshqalar)	+	+		+ (metal qolqiqlari)
Gastronomiya	Ovqat qoldiqlari, ajratib olingan yog'lar		+	+	+

3.13-jadval. Substratlarning xavflilik potensialiga qarab taqsimlanishi.

### 3.4. Quruq moddalar tarkibiga ko'ra substrat aralashmalarining tarkibi

Nasoslar bilan haydaladigan yoki tortib olinadigan substrat va substrat aralashmasining xususiyatlari va fermentatordagi gidravlik boshqaruvchanligi (fermentator yuklanmasi) odatda nam fermentasiyaning qo'shimchalar miqdorini

cheklovchi asosiy texnik mezoni bo'lib hisoblanadi. Aralashmani yuklash qulay bo'lishi uchun fermentatorda aralashmaning quruq substrat miqdori 18% dan oshmasligi kerak. Fermentatordagi quruq substratning ma'lum qismi parchalanishi lozimligini hisobga oladigan bo'lsak (substratga qarab 30 dan 80% gacha), aralashmaning o'zi shu tarzda suyuq holatga kelib qoladi. Demak, dastlab fermentatorni quruq moddalar miqdori yuqori bo'lgan substratlar bilan to'ldirish mumkin. Aralashmadagi komponentalari tarkibini hisoblash namunasi 3.11-rasmda keltirilgan.

Aralashmaning tarkibiy qismlarini hisoblash uchun misol Olib kelindi:

Qoramol go'ngi – 8% QM li

Makkajo'xori silosi – 32% QM li

Aralashmada QM ning tarkibi 18% dan oshmasligi kerak:

$$x = \frac{\text{Aralashmadagi quruq modda} - \text{Qoramol go'ngidagi uruq modda}}{\text{Makkajo'xori silosidagi quruq modda} - \text{Aralashmadagi quruq modda}}$$

Quruq modda miqdori 18% dan ortib ketmasligi uchun har  $m^3$  qoramol so'nnoisa 0,7  $m^3$  makkajo'xori silosi oshish mumkin

### 3.11-rasm. Aralashma komponentlarini hisoblash.

Bu aralashmani nasosda yuklay olishimiz uchun qancha miqdordagi makkajo'xori silosiga va qoramol go'ngini (8% QM li) aralashtirish mumkin degan savolga javob beradi. Oqibatda esa 18% QM tarkibli aralashmani yaratish kerak, chunki qoramol go'ngining parchalanish darajasi 50% dan oshmaydi. Shunday qilib, fermentatorda QM miqdorining o'rtacha ko'rsatkichi 12% ga yetadi deb taxmin qilish mumkin. Parchalanishning yuqori darajasiga ega bo'lgan substratlar uchun undan ham yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lgan QM tarkibini yuklash mumkin. Albatta, oson aralashtirish qobiliyatini va yetarli namlikni saqlab turish uchun QM substrat tarkibida 25% dan oshmasligi kerak (nam fermentasiya).

Natijada, aralashmadagi nisbatan quruq moddalarini, masalan, biochiqindilar tarkibini cheklash kerak. Buni fermentasiyadan keyin qattiq va suyuq fraksiyalarga ajratish orqali chetlab o'tish mumkin (3.12-rasm). Ajratib olingan mayda

fraksiyani yangi, quruq moddalarga boy substratga qayta aralashtirish mumkin (suvni qayta ishlatalish orqali). Shunday qilib, fermentasiyalanadigan substratining kunlik miqdori qayta ishlatalayotgan suv miqdoriga ortadi va bunda fermentator hajmini hisobga olinishi ham lozim. Ushbu texnologiyaning joriy etilishi sababli mavjud qurilmalarda fermentasiya vaqtining qisqarishini hisobga olish kerak, ammo bu jarayonni haroratini oshirish orqali ham amalga oshirish ham mumkin.

### 3.5. Biogaz ishlab chiqarish tizimida ozuqa moddalarining aylanmasi.

Fermentasiya paytida substratning ozuqaviy moddalari deyarli yo'qolmaydi. Aksincha, substrat bilan birga kiritilgan ozuqa moddalarini deyarli butunlay, fermentasiyalangan shaklda dalalarga kiradi. Fosfor, kaliy, magniy va mikroelementlar 100% saqlanib qoladi. Saqlash va dalalarga joylashtirish jarayonida faqat azot yo'qotilishi mumkin.



3.12-rasm. Suyuq fraksiyadan qattiq moddalarni ajratib beruvchi qurilma.

3.13-rasmida biogaz ishlab chiqarishda energiya qurilmalarining azotli sikel ko'rsatilgan. Katta miqdorda biomassa beradigan makkajo'xori silosi uchun gektariga 300 kg azot to'g'ri keladi. Ushbu katta massa daladan olingan hosili bilan birlgilikda biogaz qurilmasiga o'tkaziladi va u yerda oxirgi omborda to'planadi. Oxirgi omborda u ammiak emissiyasi ko'rinishida taxminan 5% miqdorida yo'qoladi. Shlangli texnologiyadan foydalanishga va tezlikda tuproqqa joylanishiga qaramasdan, haydaladigan yerdalarda yo'qotish 20% gacha bo'lishi mumkin, shuning uchun yuqorida keltirilgan misoldagi azot (*N*) tarkibini 57 kg ga

kamaytiradi. Qolgan 228 kg *N* ning taxminan 62% tayyor mineral shaklida bo'ladi. Dastlabki 300 kg *N* dan qolgan 143 kg *N* moddasi bevosita foydalanish mumkin bo'ladi. Bunga tuproqdagagi organik azotli birikmalardan 60 kg *N* qo'shilishini va bundan yuvilib ketish natijasida 30 kg miqdordagi azot yo'qotishlarini chegirib tashlash ham kerak. Tuproqni somon bilan o'g'itlashda esa 25 kg miqdorda azot kiritilishini ham hisobga olish kerak. Shunday qilib, atigi 173 kg azot (>148 kg) qaytariladi. 127 kg (<152 kg) miqdorida azotga ehtiyoj bor.

### Biogaz ishlab chiqarishda energiya o'simliklardagi azot aylanmasi

<i>N</i> miqdori, kg/ga
Hosil bilan keltirilgan <i>N</i>
miqdori=Substratdagi <i>N</i> tarkibi
Saqlashdagi yo'qotishlar 5%
Tuproqqa kiritishdagi yo'qotishlar 20%
Oraliq balans
Fermentasiya tufayli taxminan 62%
tayyor minerallar
38% = 85 kg organik bog'langan
Tuproqdagagi <i>N</i> -minerallashuvি
N yuvilib ketishi
Gumusdagi <i>N</i> ni o'g'itlash (somon bilan o'g'itlash)
Fermentlangan substrat bilan birga <i>N</i> -ni qaytarish
300 kg/ga ga yetkazish uchun azotli o'g'itlarga qo'shimcha ehtiyoj
+148 yoki +173*
-152 yoki -127*

\* gumusni somon bilan o'g'itlash hisobga olmaganda; *N*-denitrifikatsiya havodan azot bilan ishlash berish

3.13-rasm. Biogaz tizimidagi azot aylanishi. (Manba: Pepperskiy / Heigl, 2005)

Amaldagi qonunchilikka muvofiq (3.14-jadval) ekin maydonlari uchun organik o'g'itlar orqali azot berish miqdorining yuqori chegarasi yiliga o'rtacha 170 kg/ga, o'tloqlar uchun yiliga 210 kg/ga. Bundan tashqari, asosiy hosilni yig'ib olgandan so'ng, gektariga 40 kg dan ammoniy azot va 80 kg dan ortiq umumiy azot qo'shib bo'lmaydi. 15-noyabrdan 15-yanvargacha bo'lgan qish oyлarida, odatda, suyuq go'ng va suyuq ikkilamchi xom ashyonи kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

O'g'itlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar		
	Haydaladigan yerlar	Haydalmaydigan yerlar
Azot - N <sub>2</sub>	170 kg/ga*yiliga	210 kg/ga*yiliga

3.14-jadval: O'g'itlarni qo'llash bo'yicha ma'humotlar

Ushbu yuqori chegaralar ko'plab ekin turlarining ehtiyojlariga to'g'ridan-to'g'ri qo'llah to'g'ri kelmaydi (3.15-jadval) va biogaz texnologiyalari, qurilmalari sohasida juda ko'p munozaralarga sabab bo'lmoqda. Oziq moddalarning yetishmasligi qimmat mineral o'g'itlarni sotib olish bilan qoplanishi kerak bo'ladi. Qayta ishlangan substratlarni dalalarga joylashtirish bo'yicha cheklovlar biogaz bo'lmasin, qayta ishlangan ozuqaviy moddalar miqdorini rejalashtirishda mayjud qishloq xo'jaligi maydoniga mutanosib bo'lisch kerak. Oziq moddalarni tashish xarajatlarini hisoblash uchun 3.3, 3.5 va 3.8-jadvallarda har xil turdag'i substratlar uchun ozuqaviy moddalari tarkibi ko'rsatilgan.

Turli xil dala ekinlari uchun azotga bo'lgan talab	
Donli bug'doy, DS 80 s/ga	Talab, kg/ga
Bug'doy GPS (kuzgi navlari)	120-200
Yem-xashak lavlagisi+poyasi	100-160
Makkajo'xori silosi	100-200
	140-220

Yashil javdar / kuzgi javdar	160
Ekstensiv yaylovlari (1 o'rimda 35 ts quruq massa/ga)	100
Intensiv yaylovlari (4 o'rimda 100 ts quruq massa/ga)	290

3.15-jadval: Har xil dala ekinlari uchun azotga bo'lgan talab (taxminiy ma'humotlar).

Tayyor substratlardan (energetik o'simliklar, qishloq xo'jaligi chiqindilari) foydalanganda, albatta, fermentasiyadan keyingi chiqindilarni iste'molchi ob'yetlarga qaytarish yoki ularni to'g'ri utilizatsiya qilish imkoniyatlariga e'tibor berishingiz kerak. Makkajo'xori, pichan, kuzgi don yoki boshoqli ekinlarning ishlab chiqqan silosini tashib joylash uchun mos keladigan maydon o'lchamlari 3.16-jadvalda keltirilgan. Agar, masalan, makkajo'xori yetishtirish bo'yicha yil muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa va gektaridan 550 sentner ham massa yig'ishga erishilgan bo'lsa, unda fermentasiyadan so'ng, tegishli o'g'itlarga oid davlat qoidalariga muvofiq ozuqa moddalarini joylashtirish uchun 1,4 gektar ekin maydoniga ega bo'lisch kerak. Oziq moddalarni qaytarish nuqtai nazaridan bunday o'ta intensiv ishlab chiqarish darajasi tashib chiqarish uchun maydonning yetishmasligiga olib keladi.


Fermentasiya qoldiqlarini joylashtirish uchun qishloq xo'jaligi yerlariga bo'lgan ehtiyoj						
	Silosli makkajo'xori, 35% quruq modda	Kuzgi bug'doy navlari GPS 40% quruq modda	Ot-o'lanylар silosi 5% quruq modda	Yem-hashak uchun bug'doy 87% quruq modda		
Yangi hosil s/ga	550	450	331	259	81	
Fermentasiya qoldiqlari uchun maydon ga	1,41	1,16	1,14	1,25	0,87	

Jadval 3.16: Umumiy azot massasini 170 kg ga gacha cheklagan holda fermentasiya qoldiqlarini joylashtirish uchun qishloq xo'jaligi yerlariga qo'yiladigan talablar (W. Keimer 2005, LFL) [80].

Bu borada Xoenxaym universiteti tomonidan “suv va ozuqa moddalari stressi” sharoitida (suv va ozuqa moddalari bilan ta'minlashda katta chetlanishlar yoki yetishmovchiliklar) yuqori biomassa hosilini beradigan, kam qo'llaniladigan makkajo'xori navlarini ko'paytirishga bag'ishlangan qiziqarli ma'lumotlar ham paydo bo'ldi. Ushbu navlar oz miqdordagi ozuqa moddalari va suvni iste'mol qila turib barqaror biomassa hosil bo'lishiga imkon beradi.

### 3.6. Fermentator yuklanmasi va saqlash joyiga bo'lgan talablar

Bir  $m^3$  substratdagi energiyaning konsentratsiyasi har xil bo'lganligi tufayli turli substratlar fermentatorda turlicha hajmlarini talab qiladi. Masalan, bir  $m^3$  xom moddadani iborat. U bilan taqqoslaganda, fermentatorga joylashtirilgan 1  $m^3$  makkajo'xori silosi tarkibida atigi 216 kg organik quruq moddalari va 5 kg barda mavjud, qolganlarning hammasi fermentatordan o'tishi kerak bo'lgan, lekin umuman gaz hosil qilmaydigan suvdir. Agar jarayonning biologik tomonlarini va konsentratsiyasiga ega bo'lgan substratlarni yuklash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo fermentatorning yuklamasi  $3 \text{ kg organik quruq modda } m^{-3}$  dan ortiq bo'lsa,  $\text{organik quruq modda } m^{-3}$  ni hisobga olgan holda fermentatori har xil turdag'i substratlar bilan yuklanishini ko'rsatadi. Olma bardasi uchun 120 *litr* li fermentator kerak, makkajo'xori donalari esa atigi 5 *litr* hajmni egallaydi.



1. Olma bardasi	2. Kartoshka bardasi	3. Kuzgi donli ekinlar silosi	4. O'simlik boshqlari aralashmasi
5. Zardob	6. Pivo i/ch qoldiq granulalari	7. Makkajo'xori silosi	8. Raps
9. Somon	10. Quyqa	11. Sudan o'ti silosi	12. Melassa
13. Lavlagi poyasi	14. Meva qoldiqlari	15. Somon silosi	16. Donli ekinlar
17. Kartoshka po'stlog'i	18. Biochiqindilar	19. O't-o'lanlar silosi	20. Preslangan raps xashagi
21. Yog'sizlantirilgan sut	22. Kartoshka pyuresi	23. Yashil javdar	24. Donli makkajo'xori
25. YShQ oshqozonidagi massa	26. Lavlagi pyuresi (yem)	27. Yog' tutgich quyqasi	
28. Cho'chqa oshqozonidagi massa	29. Olma siqmasi	30. Ekstraktsiyadan keyin raps-shrot	
31. Sabzavot qoldiqlari	32. Qoramol oshqozonidagi massa	33. Eskirgan non mahsulotlari	
34. O'rilgan yashil o't	35. Beda silosi	36. Unib chiqqan don niholi	

3.14-rasm. Fermentator turli substratlar bilan yuklanmasi.

Organik quruq moddalarning fermentatorlari parchalanishi tufayli saqlash joylariga bo'lgan talablar ham o'zgaradi. Kundalik ravishda kiritilgan organik moddalarning bir qismi parchalanadi va gaz shaklida iste'molga chiqariladi. Organik substrat qanchalik parchalanishiga qarab uning miqdori ham kamayadi va shunga mos ravishda saqlash omborining hajmi o'zgaradi. Ushbu effekt hajmga maksimal 20% gacha ta'sir qilishi mumkin, chunki aralashgan qattiq moddalar suvda qoladi (9.4-jadvalga qarang).

### 3.7. Iqtisodiy nuqtai nazaridan substratlarning muvofiqligi

Substratlarni tanlash, shuningdek, kutilayotgan xarajatlar va potensial foyda bilan bog'liq holda baholanishi kerak. Substratlarni fermentasiyalashdan olinadigan daromad asosan ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotishdan olinadi, shuningdek, issiqlik, o'g'itlar narxi va utilzatsiyadan olinadigan daromadlar ko'rinishida qo'shimcha foyda olish mumkin.

Bunda muayyan substratga xos bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari va biogaz qurilmasida qayta ishlash xarajatlari qarshilik qildi. Biogaz qurilmasidagi qayta ishlash xarajatlari, o'z navbatida, o'zgaruvchan va doimiy xarajatlardan iborat:

- o'zgaruvchi xarajatlari – miqdoriga bog'liq xarajatlarga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, boshlang'ich suyuqlik kiritish, transport va ish haqi xarajatlari;
- doimiy xarajatlari – fermentatorning narxi (hajmga bog'liq), generator (quvvatga qarab), shuningdek, uskuna va substyratni saqlash uchun joy. Ko'rinish turibdiki, ko'p miqdordagi suvni o'z ichiga olgan va kam energiya zaxirasiga ega bo'lgan substratlar xarajatlarni ko'payishiga olib kelishi aniq, lekin shu bilan birga ular oz miqdorda o'zgaruvchan xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Ushbu xarajatlari tarkibi asosida V.Kaymer 2005 yilda energetik foydalaniш iqtisodiy jihatdan foydali (6% to'lovlar va ish haqining oshishi) bo'lgan ruxsat etilgan maksimal xarajatlarning yuqori chegaralarini o'rnatdi (3.17-jadval). Binobarin, xarajatlarni hisob yuritadigan bo'lsak, qoramol go'ng'i

va kartoshka bardasi hech narsaga arzimasligi kerak, chunki ular katta miqdorda doimiy xarajatlarni keltirib chiqaradi va kam foyda keltiradi. Quruq moddalar miqdori 35 foizni tashkil yetadigan energiyaga boy siloslarning xom massasi uchun ruxsat etilgan harajatlar 38-43 yevro/t ni tashkil qilishi mumkin. Donli ekinlar eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, yuqori rentabellik va nisbatan past doimiy xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bunday xarajatlar bir tonna yashil massa uchun 90-190 yevro ni tashkil qilishi mumkin va bu holda qayta ishlash foydali bo'ladi.


**60 kunlik bijgitishdagи chegaraviy xarajatlar, xom massaga nisbatan yevro/t**

Qoramol go'ng'i (8% quruq modda)	0
Parranda go'ng'i (50% quruq modda)	40
Kartoshka bardasi (6% quruq modda)	0
Yangi o'rilgan maysa (6% quruq modda)	14,10
O't-o'lanlar silosi (35% quruq modda)	38,70
Plevel (ryegrass) (35% quruq modda)	42,70
Yetilgan makkajo'xori silosi (35% quruq modda)	38,20
Yashil javdar silosi (25% quruq modda)	24,50
Bug'doyning kuzgi navlari (40% quruq modda)	37,50
O'simliklar boshqqlari chiqindilari aralashmasi (3,5% klechatka, 65% quruq moddalar)	94
Bug'doy doni (87% quruq modda)	140
Raps urug'i (88% quruq modda)	198,80

**3.17-jadval. Substratlarini qayta ishlashda ruxsat etilgan maksimal xarajatlar.**

Substratlarni ishlab chiqarish xarajatlari nuqtai nazaridan ayon bo'ladiki, energetik o'simliklar uchun yuqori qo'shimcha to'lov larga qaramay, bu

xarajatlarni qoplash uchun yetarli emasdir (3.15-rasm). Ko'pgina hollarda, energetik o'simliklarni yetishtirishda bu faqat o'z maydonlaridagina qoplaydi, ammo ular yuqori ijara haqi talab etiladigan bo'lsa qoplasmaydi.



3.15-rasm. Ishlab chiqarish xarajatlari va turli substratlar uchun iqtisodiy asoslangan xarajatlar.

Amalda, agrosanoatdan kelib chiqadigan substratlar uchun quyidagi komponentlarni hisobga olish kerak:

- ✓ Energiyaga boy, quruq moddalarga boy materialni biologik jarayonlar natijasida qayta ishlash qiyin, chunki fermentatorga katta yuklama tushadi va uzoq fermentasiya vaqtini talab qiladi.
- ✓ Fermentatorda egallaydigan hajmi va saqlash talablari nuqtai nazaridan energiyaga boy substratlar eng samarali hisoblanadi va eng yuqori gaz hosiliga ega
- ✓ Kommunal yoki agrosanoat chiqindilarining asosiy foydali tomoni va yutug'i shundaki, uni utilizatsiya qilish uchun katta miqdordagi to'lov ham olish mumkin.

So'nggi 20 yil ichida kofermentlarga bo'lgan yuqori talab utilizatsiyadan tushadigan daromadning pasayishiga olib keldi, bir vaqtning o'zida esa texnika, nazorat va hujjatlar uchun talablar oshdi. Organik chiqindilar bugun qo'shimcha to'lovsiz qabul qilinadi, shuningdek, yig'uvchilar tomonidan mustaqil ravishda tashiladi. Narxlarning pasayishiga qarshi kurashish uchun Rottaler Modell, Soltau Biogasgruppe yoki Biogasvereinigung Ostbayern kabi tashkilotlarning birlashmalari va tashkiliy konsepsiylar o'z samarasini berdi.

### 3.8. Kofermentasiya – chiqindilarini qayta ishlash usuli

Kofermentasiya deganda suyuq yoki qattiq substratni boshqa organik moddalar bilan birga fermentasiyalash tushuniladi. Bugungi kunda kofermentasiyalash qurilmalariga energetik o'simliklar, ya'ni biogaz qurilmalari uchun maxsus o'stirilgan o'simliklar va organik chiqindilar yuklanadi. Qishloq xo'jaligi biogaz qurilmalarida kofermentasiya uchun ishlataladigan organik chiqindilar orasida uchta guruh mavjud:

- ❖ O'simlik chiqindilar;
- ❖ Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol qilish natijasida chiqindilar;
- ❖ Kommunal organik chiqindilar.


Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi korxonalarida kofermentasiyaning realizatsiyasi quyidagi omillarga bog'liq:

- Chiqindilar bo'yicha taklif (miqdori, sifati);
- Shaxsiy qishloq xo'jaligi maydonlarida foydalanish imkoniyati;
- Amaldagi texnika darajasi;
- Texnika narxlari darajasi.

Organik chiqindilar bilan kofermentasiyalashda energetika va sanoat chiqindilaridan foydalanish (utilizatsiya qilish) sohasining kombinatsiyasi hosil bo'ladi, chunki elektr va issiqlik energiyasi chiqindilardan hosil bo'ladi (3.16-rasm).

Organik chiqindilarni qayta ishlash yoki qayta ishlashning mavjud usullari, odamlar uchun oziq-ovqat va kosmetika uchun asosiy tarkibiy qismlarni ishlab chiqarish ularning imkoniyatlарини cheklaydi. Organik chiqindilarni saqlashga yondashuv juda restruktivdir. Chiqindilarni faqat texnik ko'rsatmalarga binoan, qizigan paytida, maksimal 3% yo'qotish bo'lsa, ya'ni tarkibida 3% dan kam organik moddalar bo'lsa saqlanishi mumkin.

Bundan tashqari, chiqindilar to'g'risidagi Qonunlarga ko'ra, organik chiqindilarni qayta ishlash qoidalari ham amal qiladi.



3.16-rasm. Biogaz texnologiyalaridan foydalanish moddalar almashinuvu va chiqindilarni markazlashtirmagan holatda qayta ishlashga yordam beradi.

Qishloq xo'jaligi biogaz amaliyotida kuchli ifloslangan sanoat chiqindi suvlariga talab yo'q bo'lib, uy xo'jaliklari, agrosanoat va oziq-ovqat sanoati, shuningdek, landshaft dizayni sohasi bo'tqasimon yoki qattiq chiqindilariga esa

talab mavjud. Bunday chiqindilardan – yog'lar, maysazorlar, o'simlik chiqindilari, eski non, barda, atala (pulpa), muzqaymoq, murabbo va go'sht mahsulotlari kabilarning ko'p qismi ozuqa moddalarining yuqori konsentratsiyasi va strukturaviy yetishmovchilik tufayli kompostlashga yaroqsiz. O'z-o'zidan ravshanki, kasallik tarqatishi mumkin bo'lgan yoki toksik moddalar bilan juda ifloslangan material ishlatilmasligi kerak.

Ushbu texnologiya energiya olishga imkon bergenligi sababli, u kompostlashdan ko'ra aniq afzalliklarga ega va shu bundan tashqari aerob va anaerob usullar texnik, iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan ideal ravishda bir-birini o'zaro to'ldiradi [84, 85].

Qator novator fermerlar o'zlarining biogaz ishlab chiqarish qurilmalarida organik chiqindilarni qayta ishlashadi, masalan, vinochilik chiqindilari (bardalar), sabzavot chiqindilari, yog'li qoldiqlar, sut mahsulotlari chiqindilari va kommunal xo'jalik chiqindilari shular jumlasidandir. Ko'pincha tarkibida yog' mavjud bo'lgan substratlar qabul qilinadi.

Dastlab qishloq xo'jaligi qayta ishlash va oziq-ovqat chiqindilarini qaytarish bo'yicha asosiy ishlab chiqaruvchi sifatida oldindan belgilab qo'yilgan edi, chunki shu tarzda tabiat foydasi uchun ozuqa moddalarining aylanishi ko'proq yopiq siklda bo'ladi. Fermerlar o'zlarining biologik jarayonlar haqidagi bilimlari va tajribalari tufayli biogaz qurilmalarini ekspluatatsiya qiluvchilar sifatida o'zlarini ko'rsatmoqdalar.

#### Chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha konsepsiylar

Qishloq xo'jaligi sharoitida organik chiqindilarni qayta ishlashning ikki xil strategiyasi mavjud (3.17-rasm): qishloq xo'jaligi chiqindilarini markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holda qayta ishlash.

Bio-chiqindilar asosan transport kompaniyalari tomonidan yig'iladi. Chiqindilarni boyitish (tozalash, saralash va boshqalar) korxonalarda markazlashtirilgan yoki markazlashmagan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Markazlashtirilgan tozalashning afzalligi shundaki, katta hajmli ishlov berish jarayoni mexanizatsiyalashgan saralashni iqtisodiy jihatdan samaraliroq

qiladi. Fermerlar tomonidan markazlashtirilmagan saralash jarayoni fermentasiya qilinuvchi xom-ashyolarni to'g'ri boshqarish imkonini beradi; bundan tashqari, bu surʼat-harajatlar nuqtai nazaridan ham samaralidir.

Aerob fermentatorda substratga ishlov berish, saralashdan mustaqil ravishda, ko'plab fermerlar ishtirokidagi yirik qurilmada yoki alohida kichik biogaz qurilmalarida markazlashtirilmagan holda amalgalashish mumkin.

Bu yerdagagi afzalliklar saralash bilan bir xil: markazlashmagan fermentasiyada risk ko'plab ishtirokchilar o'rjasida taqsimlanadi. Markazlashtirilgan fermentasiya, o'z navbatida, tashkiliy va kommunikativ xarajatlarining ancha pastligi bilan ajralib turadi. Fermentlangan materialdan foydalanish esa ikkala holatda ham odatda turli fermerlar tomonidan markazlashmagan holda amalgalashish mumkin.

#### Rottenthaler modeli

1994 yilda Dingolfing-Landau va Rottal-Inn mintaqalari uchun ishlab chiqilgan Rottenthaler modeli (EXPO 2000 – Hannoverdag'i Butunjahon ko'rgazmasida mukofotlangan) organik biologik chiqindilarning markazlashtirilmagan va hududiy qayta ishlashni birinchi o'ringa qo'ydi. Bunga ko'ra, jamiyatlar biochiqindilarni yig'ish va tashish uchun javobgardilar; biogaz ishlab chiqarish korxonalari esa saralash, qayta ishlash va qo'llash uchun javobgardilar.

Konsepsiyaning maqsadlari – moddalar almashinuvining yopiq ekologik tizimini yaratish, ozuqaviy moddalarni qishloq xo'jaligiga qaytarish, qishloq xo'jaligini xizmatlar ishlab chiqaruvchisi sifatida qo'llab-quvvatlash va CO<sub>2</sub> ga nisbatan neytral va qayta tiklanadigan xom ashyolardan energiya ishlab chiqarish.

Ushbu konsepsiyaning chiqindilarni majburiy utilizatsiya qilishga mo'ljallangan kommunal xo'jaliklar uchun afzalliklari quyidagicha:

- chiqindilarni tasishda qisqa transport yo'nalishlari;
- chiqindilarni utilizatsiya qilish yoki qayta ishlashning ishonchli va arzonligi;
- chiqindilarni qayta ishlash joylariga ortiqcha qo'shimcha talablar mavjud emas;


- chiqindilarni bir nechta korxonalar o'rjasida taqsimlanishi sababli risk darajasining pastligi;
- bir qurilma ishlamay qolganda yoki ortiqcha chiqindilar paydo bo'lganligi yuqori moslashuvchanlik.

Qayta ishlangan chiqindilardan hosil bo'lgan o'g'itlar va ishlab chiqarilgan elektr energiya hududda qoladi va qo'shimcha ish o'rnlari yaratiladi.

#### "Sharqiy Bavariya GmbX Biogaz Assotsiatsiyasi"

Kofermentasiya bilan bog'liq qiyinchiliklar va kosubstratlar uchun narxlearning umumiy pasayishi, shuningdek, huquqiy masalalar va ruxsatnomalarni talqin qilishdagi noaniqliklar, 1998 yilda biogaz ishlab chiqaradigan 50 ga yaqin tadbirkorni "Sharqiy Bavariya GmbX biogaz uyushmasi" ga birlashishiga olib keldi. Ushbu uyushmaning maqsadi organik chiqindilarni sotib olish va qayta ishlashni tashkil etish, chiqindilarni bitta oqimga keltirish va yakka tartibdagi tadbirkorlar ishini soddalashtirish edi. Ushbu dastur yordamida ular oyiga 7500 tonnagacha organik chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun yetkazib berishni taklif qilishadi. Assotsiatsiyaga kiritilgan ba'zi biogaz qurilmalari xususiy foydalanishda. Fermerlar har kuni kelib tushgan xomashyo va ishlab chiqarilgan mahsulot bo'yicha hisobotlarni markaziy idoraga yuboradilar.

Natijada, monitoring va nazorat qilish mumkin bo'ladi. Yana bir afzallik shundaki, qurilma tarkibiy qismlariga (masalan, aralashtirgichlarga) sarmoya kiritishda katta xaridlar tufayli yanada yaxshi narxlarga erishish mumkin. Yiliga 20 million kW·soat energiya ishlab chiqaradigan elektr energiyasi juda yuqori. Uyushma manfaatdor tomonlar bilan aloqa qiluvchi yuridik shaxs bo'lganligi sababli, chiqindilarni utilizatsiya qilish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar uchun ham, texnika ishlab chiqaruvchilar va davlat idoralari uchun ham chiqindilar bozorida yaxshi muzokaralar pozitsiyasini yaratadi.



3.17-rasm. Chiqindilarni qishloq xo'jaligida qayta ishlash konsepsiyalari.

Shunga qaramasdan, assotsiatsiyaning ko'plab a'zolari qayta tiklanadigan xom ashyo bilan ishlaydigan qurilmalardan foydalanishga o'tdilar, bu esa shunday qurilmalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun yuqori darajadagi to'lov

amaliyoti tufayli amalga oshiriladi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlardagi ko'plab jamoalar ushbu namuna bo'yicha ishlamoqdalar.

### Soltauer guruhi va Radereishtetter modeli

Hannover/Celle mintaqasidagi Soltauer guruhi xuddi shu tarzda organik chiqindilarni yig'ish uchun biogaz yoqilgisiga ishlovchi yuk avtomobillardan foydalanmoqda. Hajmi 20000 m<sup>3</sup> dan ortiq bo'lган reaktorda yiliga 200 ming tonnadan ortiq organik chiqindilarni qayta ishlashga erishilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha modellar uchun chiqindilarni saralash va klassifikatsiyalash bilan odatda biogaz qurilmasini ekspluatatsiya qiluvchi fermerlar shug'ullanadilar. Radereishtetter modelida (Bremerferdda ishlatiladigan), aksincha, chiqindilar dastlab markazlashtirilgan holda tayyorlanadi va shundan keyingina biogaz qurilmalarida markazlashtirilmagan holda qayta ishlanadi. Tashkillashtirishni ushbu shaklining afzalligi shundaki, havoli ajratish, barabanli elaklar, magnitli ajratgich va boshqalar kabi xarajat talab qiladigan qo'shimcha tayyorgarlik texnologiyalari qo'llash mumkin. Biogaz qurilmalari bilan ishlaydigan tadbirkorlar o'rtaсидagi hamkorlikning bunday namunalarini Germaniyada ko'plab topish mumkin.

### 3.9. Substratni tanlash va huquqiy qoidalar

Huquqiy nuqtai nazardan, mahalliy o'g'itlarni fermentasiyalash eng muammosiz hisoblanadi. Bundan tashqari, energetik ekinlar bilan birgalikda fermentasiyalashda ishlab chiqaruvchi ozmi-ko'pmi qishloq xo'jaligining huquqiy va iqtisodiy tekisligida joylashadi.

Organik chiqindilar kofermentlanganida, biogaz qurilmasi ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlash sanoati (ikkilamchi mahsulotlar bozori, chiqindilar to'g'risidagi qonun hujjatlari, biochiqindilarni boshqarish qoidalari), energetika sanoati (energiya narxi, shartlar, energetika qonunchiligi) va qishloq xo'jaligi ekologiyasi (tuproqni muhofaza qilish va suv havzalari, organik o'g'itlar to'g'risidagi hujjatlar, o'g'itlar, gigiyena qoidalari, epizootiya<sup>24</sup> va o'lgan

<sup>24</sup> Epizootiya – hayvonlarda biror yuqumli kasallikning keng tarqalishi; kasallikning ma'lum vaqt ichida katta hududga (xo'jalik, tuman, viloyat va boshqalar) yoyilib ketishi.

hayvonlami yo'q qilish qoidalari) orasida joylashadi (qarang: 3.18-jadval). Fermer ekologik xatarlar va iqtisodiy foyda o'rtaqidagi muvozanatni topishga majbur bo'lgan qayta ishlovchi sifatida ishlaydi.

Eng muhim huquqiy daxl qiluvchi nuqtalar:

- chiqindilar to'g'risidagi qonun hujjatlari;
- biologik chiqindilar bo'yicha hukumat qarorlari;
- organik o'g'itlar va o'g'itlar to'g'risidagi qoidalari;
- Evropa Ittifoqining gigiyena qoidalari.

#### Turli klassdagi moddalarni ishlash uchun qonunlar va qoidalari

Modda	Qonun	Qoidalari
Mahalliy o'g'itlar	O'g'itlash vositalari to'g'risidagi qonun	O'g'itlar bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligida va undan tashqarida foydalanish uchun); O'g'itlar bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligi uchun); 1774-soni gigiyena qoidalari.
Biochiqindilar (Biochiqindilar haqidagi qoidalarga asosan)	Chiqindisiz texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash to'g'risidagi qonun; O'g'itlash vositalari to'g'risidagi qonun.	Biochiqindilar bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligida va undan tashqarida foydalanish uchun); O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalari.
Jonivorlar qoldiqlari	Hayvonlar tanasini utilizatsiya qilish to'g'risidagi qonun; Epizootik nazorat qonuni yoki chiqindisiz texnologiyalar va	Biochiqindilar bo'yicha qoidalari (doimo emas); O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun);

	chiqindilarni qayta ishlash to'g'risidagi qonun (doimo emas); O'g'itlash vositalari to'g'risidagi qonun (doimo).	Evropa Ittifoqining gigiyena qoidalari 1774-soni (doimo).
Filtrlash chiqindilari (cho'kma)	Chiqindisiz texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash to'g'risidagi qonun; O'g'itlash vositalari to'g'risidagi qonun.	Filtrlash chiqindilari bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligi uchun) O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalari (qishloq xo'jaligida foydalanish) O'g'itlarni tartibga solish qoidalari (qishloq xo'jaligi uchun)

3.18-jadval. Har xil turdag'i substratlar bilan ishlashni tartibga soluvchi qonunlar.

#### Chiqindilarni utilizatsiya qilish va chiqindilarsiz ishlab chiqarish to'g'risidagi qonun

Chiqindilar to'g'risidagi amaldagi qonunchilik chiqindi ishlab chiqaruvchi qutulmoqchi bo'lgan mulk yoki uning tartibli utilizatsiyasi jamoatchilik manfaatlarini, xususan, atrof-muhitni himoya qilishga xizmat qilishini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, ushbu mulk hali ham qandaydir "qiymat" ga ega bo'ladimi yoki undan keyingi foydalanish uchun yaroqli bo'ladimi, ahamiyati yo'q. Huquqiy nuqtai nazardan, chiqindilarni fermentasiyalash orqali biogaz ishlab chiqarish ularni utilizatsiya qilish hisoblanadi.

Aslida, chiqindilarni utilizatsiyalash uchun, uni utilizatsiya qiluvchi ob'ektidan foydalanish majburiyidir. Ammo chiqindilarsiz texnologiyalar va chiqindilarni

qayta ishlash to'g'risidagi qonun hujjatlarining §4, 1-band, 2-satr boshiga ko'ra, asosan, chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun foydalanilmaydigan inshootlarda, agar ular atrof muhitga zararli chiqindilar chiqarmasa va tegishli ruxsatnomaga ega bo'lsa chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlashga yo'l qo'yiladi. Agar biogaz qurilmasi xom ashyoni chiqindisiz texnologiya va chiqindilarni qayta ishlash to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda qayta ishlasa, u chiqindilarni muhofaza qilish to'g'risidagi Federal qonunga muvofiq ruxsatnomaga ega bo'lishi kerak.

Chiqindilsiz texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash to'g'risidagi qonun hujjatlari asosan toksik moddalarni o'z ichiga olgan chiqindilarni qayta ishlash sharoitlarini tartibga soladi (3.7-jadval).

### **Biochiqindilarni boshqarish qoidalar**

Biochiqindilar bo'yicha qoidalar qishloq xo'jaligi, o'rmon va bog'dorchilik yerlarida biochiqindilaridan foydalanishni tartibga soladi.

Ushbu hujjatga ko'ra biochiqindilar: "hayvon yoki o'simliklardan olingan utilizatsiya qilinuvchi chiqindilar (parchalanuvchi mikroorganizmlar)". Bularga, masalan, eskirgan oziq-ovqat mahsulotlari, konserva mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi qoldiqlar, chiqindi yog'lar va yog' filtri cho'kmalari, don qipig'i, zardob, meva va sabzavotlar bardasi, oshxona va restoran chiqindilari kabilar kiradi. Bundan tashqari, "qishloq xo'jaligi yerlaridan kelib chiqadigan o'simlik chiqindilari... biochiqindi emas..." degan qat'iy fikrlar ham mavjud. Bunday hollarda fermentasiya qoldiqlari "anaerob sharoitida qayta ishlangan biochiqindilar" deb nomlanadi.

Biologik chiqindilar bo'yicha qoidalar, ayniqsa biologik chiqindilarni qayta ishslash (gigiyenalash, saralash va boshqalar), ulardan foydalanish va nazorat qilish talablarini tartibga soladi (§3 va 1-to'ldiirish). Bunga asos sifatida biologik chiqindilarni qayta ishslashdan oldin (masalan, o'g'it sifatida) yuqumlilik va fito-xavfsizligini kafolatlaydigan tarzda ishlov berish kerak (Biologik chiqindilar bo'yicha qoidalarning 2-ilovasi, 11-gigiyena bob). Qanday turdag'i chiqindilarni

qayta ishlash mumkin va qaysilari tavsiya etilishi yoki ta'qiqlanishi biochiqindilar bo'yicha qoidalarining 1-ilovasida keltirilgan.

Qayta ishlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir jihat – bu toksik moddalarning chegaraviy qiymatlari, ularni tuproqqa kiritishining ruxsat etilgan maksimal miqdori (3.7-jadval), tuproqqa kiritishni ta'qiqlash va uni rasman tasdiqlash majburiyati. Agar og'ir metallarga nisbatan cheklovlar oshib ketgan bo'lsa, tuproqqa kiritishda istisnolar qo'llanilishi mumkin, agar boshqalarga bundan zarar yetmasa. Kadmiy uchun istisno qilishning iloji yo'q (§4 Biologik chiqindilar to'g'risidagi qoidalar). Organik toksinlar uchun chegara yo'q.

Quyida holatlarda qoidalar amal qilmaydi:

- o'zlarining qishloq xo'jaligi maydonlarida mustaqil ravishda foydalaniladigan, ishlab chiqargan biochiqindilarini o'zi qayta ishslash, shuningdek shaxsiy uylarda yoki kichik bog' uchastkalarida kompost qilib foydalanuvchilar uchun;
- agar chiqindi suvlarni tozalash inshootlari to'g'risidagi qoidalar amal qilsa;
- agar biochiqindilar boshqa qonun hujjatlariga muvofiq utilizatsiya qilinadigan bo'lsa (q. Epizootikaga qarshi kurash to'g'risidagi qonun va boshqalar).

### **Evropa Ittifoqining gigiyena qoidaları**

Evropa Ittifoqining gigiyena qoidalari kelib chiqishga ko'ra hayvonlarga tegishli va insonlar tomonidan iste'mol qilinmaydigan barcha substratlar uchun taalluqlidir. Xavflilik darajasiga qarab, substratlar uchta toifaga bo'linadi (11-gigiyena bo'limiga qarang). Uchinchi dunyo mamlakatlari materiallari har doim sterilizatsiya qilinishi kerak. Xususan, ushbu qoidalar quyidagilarni tartibga soladi:

- qo'llaniladigan ishlov berish turi (sterillash, gigiyenalash),
- biogaz qurilmasi binolari va chorvachilik fermalari orasidagi masofa normalari,
- nazorat va hujjatlar bo'yicha majburiyatlar,
- biogaz qurilmasi hududidan tashqariga chiqqan transport vositalari va rezervuarlarni tozalash hamda zararsizlantirish.

## O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalar

O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalarda o'g'itlardan foydalanishga ruxsat berish va markirovkalash to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Organik chiqindilar faqat ikkilamchi xomashyodan o'g'it sifatida foydalanishga ruxsat berilgan taqdirda o'g'it sifatida ishlatilishi va muomalaga chiqarilishi mumkin. O'simliklar shaklida yetishtirish va ularni qayta ishslash yoki boshqa maqsadlarda foydalanishga ruxsat berilgan moddalarga o'g'itlash vositalari ishlab chiqarishga ruxsat olishlari mumkin.

O'g'itlash vositalari bo'yicha qoidalarning 1-ilovasida o'g'itlarning turlari batafsil bayon etilgan:

- o'git turning nomi;
- tarkibiga (ozuqa moddalariga) minimal talablar;
- ozuqa moddalarining turini, shaklini va ularning eruvchanligini aniqlaydigan komponentlar;
- baholash va qo'shimcha talablar;
- tarkibi; tayyorlash usuli va alohida talablar.

Faqat fermentlangan substratlardan (sof mahalliy o'g'itlardan tashqari) o'zlarining ikkilamchi xom ashysini o'g'it sifatida ishlatishga ruxsat olgan taqdirdagina ularni qishloq xo'jaligi o'g'itlari sifatida ishlatish mumkin. O'g'itlarning bunday toifalari chiqindilarga, shuningdek o'g'itlash vositalariga oid qonun talablarga javob berishi kerak. Bundan tashqari, ular sanitariya va epidemiyaga qarshi talablarga va o'g'itlash vositalari uchun fitogigiyena talablariga ham javob berishi kerak.

Qoidaga ko'ra, faqat Federal oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi vazirligiga maxsus so'rov jo'natish natijalariga asosan tasdiq beriladi. Ushbu qoidalarni asosida ruxsatnomalar kuchga kirishi bilan u yoki bu turga mos keladigan barcha loyihamlar erkin muomalaga yaroqli hisoblanadi va butun mamlakat hududi uchun amal qilishi mumkin bo'ladi, demak kelajakda ular uchun alohida ruxsatnomalar talab qilinmaydi.

## O'g'itlarni tartibga solish qoidalari

O'g'itlarni tartibga solish qoidalari kelib chiqishga ko'ra mahalliy hayvonlarga tegishli o'g'itlardan (qattiq va suyuq go'ng) foydalanishni tartibga soladi. Miqdoriy chekllovlardan tashqari, asosan 15-noyabrdan 15-yanvargacha tuproqqa mahalliy o'g'itlarni kiritish taqiqlanadi.

O'tloq va ekin maydonlariga qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy ozuqa moddalarining yillik miqdori 3.14-jadvalda keltirilgan. Suyuq go'ng va parranda axlati, shubhasiz, ishlov berilmagan ekin maydonlariga qo'llanilishi mumkin. Bunday o'g'itlar bilan o'gitlangan maydonidan asosiy hosilni yig'ib olgandan so'ng, har hektariga 40 kg dan ortiq NH<sub>4</sub>-N yoki umumiyligi 80 kg N solish mumkin emas. Mahalliy o'g'itlar uchun suyuq go'ngni saqlashdagi yo'qotishlar 10% gacha, qattiq go'ng uchun 25% gacha, qo'llanilishida esa 20% gacha bo'lishi mumkin. Ushbu qoidalarni qo'llashdagi muammo shundaki, qayta tiklanadigan xom ashyoning fermentasiya chiqindilari ularning ta'siri doirasiga to'liq kiradimi yoki yo'qmi, hali aniqlik kiritilmagan. Reglament Federatsiya bo'ylab bir xil emas.

## III bob bo'yicha savollar


1. Tez parchalanadigan substratlarga qaysilar kiradi?
2. Germaniyada biogaz olish uchun asosan qanday mahsulotlardan foydalaniadi?
3. Biogaz qurilmasi uchun oqava suvdan foydalanish uchun qachon ruxsat etiladi?
4. Biogaz olish uchun hayvon o'g'itlaridan foydalanishda ularning kavsh qaytarish xususiyatining tavsifi qanday?
5. Gaz hosil qilish nuqtai nazaridan energiyasi yuqori bo'lgan substratlardan qaysilar?
6. Biogaz olish uchun eng muhim hisoblangan ekin qaysi?
7. Biogaz qurilmalari uchun energetik o'simliklarni almaslab ekishni optimallash uchun necha guruhi muvofiqlashtirilgan?

### 4.1. Jarayonning xarakteristikalari

Biogaz hosil qilishning turli xil usullari, jarayonning texnik xarakteristikalari jihatidan ularni bir nechta variantlarga ajratish mumkin. Turli xil qurilmalarni ishlatish usullarining asosiy farqi substratni yuklash usuli (porsiya yoki oqava usulda), aralashdirish turi (to'liq aralashdirish yoki substratni tiqin kabi surish usuli), ishlash tizimi (bir yoki necha bosqichli), qo'llanilgan substrat konsistensiyasi<sup>25</sup> (qattiq yoki suyuq xom ashyo) orqali namoyon bo'ladi (4.1-rasm).

#### Davriy (porsiyalab) uzatish usuli


Substratni porsiyalab uzatish (yuklash) usuli fermentasiya kamerasini bir qadamda to'ldirish bilan tavsiflanadi. Belgilangan vaqt oxirigacha porsiya fermentlanadi, jarayon davomida substrat qo'shilmaydi yoki olib tashlanmaydi. Gaz ishlab chiqarish reaktor to'ldirgandan so'ng boshlanadi, maksimal quvvatga yetadi va keyin pasayishni boshlaydi (qarang. 4.2-rasm). Nihoyat, oldindan belgilangan fermentasiya vaqtı tugaganidan keyin fermentasiya kamerasi ham bir qadamda bo'shatiladi. Bu holda fermentasiya mahsulotining bir qismi yangi yuklangan bakteriyalarni "emlash" uchun qaytariladi.



4.1-rasm. Biogaz qurilmalarining turli xil konstruktsiyalarining farqlari va xususiyatlari

(**Perkolasiya (lotincha perculture – oqish, oqim)** – suyuqliklarning g'ovak materiallar orqali, elektr o'iazuvchani va o'iazmaydigan zarralar aralashmasi orqali oqishi yoki oqmasligi hodisasi va boshqa shunga o'xshash jarayonlardir).

<sup>25</sup> Konsistensiya – yuqori yopishqoq suyuqlik va yarim qattiq moddalarning (malhamilar, pastalar, xamir, bitum va boshqalar) zichligi, zichligi darajasi.



4.2-rasm. Biogaz olish usullarining sxematik sharti.

Porsiyalab yuklash usuli (4.3a va b-rasmlar) quyidagilar uchun xarakterlidir:

- suyuq substratlardan tashqari, quruq modda miqdori yuqori bo'lgan qattiq substratlarni ham qayta ishlash mumkin;
- fermentatorni profilaktik tekshirish va ta'mirlashni har bir sikldan keyin amalga oshirilishi mumkin;
- “emlash” uchun yetarli massa bo'lishi kerak, ba'zi hollarda katta porsiyalarga ham yetishi mumkin;
- bir nechta ketma-ket rezervuarlardan foydalanilmasa, gaz bir maromda ishlab chiqarilmaydi;
- ishonchli gigiyenik effekt.

### Oqim (oqava) usuli

Deyarli barcha qishloq xo'jaligi biogaz qurilmalari shu usul asosida ishlaydi. Bunda fermentatorlar doimo to'ldirilgan holda saqlanishi kerak. Yangi substrat uzatilganda fermentatordan unga teng bo'lgan miqdordagi eski substrat siqib chiqariladi. Oqim usuli quyidagicha tavsiflanadi:

- ketma-ket uzatish;
- doimiy parchalanish jarayoni;
- barqaror gaz hosil qilish;
- to'ldirilgan fermentatorni profilaktika qilish va ta'mirlashni to'liq amalga oshira olmaslik.

### To'liq aralashtirish usuli

Qozonxonadagi kabi substrati to'liq aralashtirilgan qurilmalar ko'pincha qishloq xo'jaligi amaliyotida uchraydi. Yangi kiritilgan material fermentatordagi massa bilan aralashtiriladi, shuning uchun uni alohida qo'shimchalar yordamida parchalashga hojat yo'q va jarayon substrat kiritilganidan so'ng darhol boshlanishi mumkin. Albatta, doimiy oqimli tizimlarda substratning fermentasiya vaqtiga o'rtaча hisobiy fermentasiya vaqtiga to'g'ri keladi, chunki aralashtirish tufayli yangi materialning ham bir qismi fermentatorni tark etadi. Rejalashtirishda ushbu omilni ham e'tiborga olish kerak bo'ladi. To'liq aralashtirishga ega qurilmalarining fermentasiya kamerasiga substratni kunlik yuklanishida organik quruq substrat miqdori har  $m^3$  hajmga 4 kg gacha bo'lishi mumkin.



### Substratni tiqin kabi surish usuli

Tugmachani bosish yordamida qurilmada substrat fermentator bo'ylab tiqin kabi uzunlamasiga suriladi. Bunday rezervuarning diametri uning uzunligidan ancha kichik bo'lishi kerak; diametri va uzunligining nisbati kamida 1:4 munosabatda bo'lishi zarur. Bu holda aralashtirgich kurakchalar oqim yo'nalishiga ko'ndalang o'rnatilishi kerak, shuningdek u oqimni qizdirishi mumkin. Aralashtirish asosan ko'ndalang yo'nalishda bo'ladi (q. 1.4-rasm. Roysh biogaz qurilmasi). Yangi substratning fermentlangan substrat bilan aralashtirilishi kurakchalar yordamida tartibga solinadi.


Bunday ish tartibi tufayli ushbu qurilmalarda yuqori gigiyenik effektga erishiladi. Muayyan sharoitlarda jarayonni iloji boricha tezroq ishga tushirish uchun maxsus qo'shimchalar yordamida parchalanishni tezlashtirishga ehtiyojlar tug'iladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu dizayn ko'p joyni egallalashi bilan ajralib turadi. Mikser (aralashtirgich) ning konstruksiyasiga qarab, ushbu turdag'i qurilmani to'liq aralashtirishli qurilmaga qaraganda ancha yuqori darajada substrat yuklanishi mumkin. Fermentator hajmiga kunlik 5-10 kg  $oQM/m^3$  yuklanishi amaliyotda ma'lum. Odatda, yuqorida ta'riflab o'tilgan asosiy fermentatordan keyin yana katta fermentasiya qurilmasi ("доброживатель") ham o'matiladi va bu esa yana qo'shimcha muddat bijg'itishga imkon beradi.

### Bir yoki ko'p bosqichli usul

Biogaz olishda fermentasiyalash jarayoni bir yoki ko'p bosqichli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. 2.1-bobda aytib o'tilganidek, bir bosqichli usuldan foydalanganda fermentasiya jarayoni bitta rezervuarda 4 etapda amalga oshiriladi, to'liq aralashtirish tizimlari uchun bu etaplar vaqt va hajm bo'yicha parallel ravishda, davriy (porsiyali) ish rejimidagi qurilmalar uchun bu jarayonlar ketma-ket vaqtarda sodir bo'ladi. Substrati tiqin kabi harakatga keluvchi qurilmalarda siljish ma'lum vaqt oraliq'ida kuzatiladi.



4.3a-rasm. Odatdag'i gaz ishlab chiqarish usullarining funktional diagrammasi.



4.3b-rasm. Asosiy fermentasiya qurilmasi ("o'dop'xirigamech") bilan jijo'zlangan biogaz

Ko'p bosqichli usulda esa substratni turli xil rezervuarlar yordamida yoki ularni fermentatorlarga ajratish orqali jarayonni turli kameralarda bosqichlarga bo'lishga harakat qilinadi. Shuni hisobga olish kerakki, kislotali muhit yaratish va metan hosil qilish uchun har xil sharoitlar talab qilinadi.

Ko'p bosqichli usullar qo'llaniladi:

- agar substrat gigiyenizatsiyadan o'tishi shart bo'lsa;
  - fermentasiya kamerasining hajmi kichik bo'lsa va biz gidroliz yoki parchalanish darajasini oshirishga intilsak;
  - agar substratni texnik jihatdan va fermentatorning juda yuqori yuklamasi tufayli aralashtirish qiyin bo'lsa, agar substratning tiginsimon harakati rejalaشتirilgan bo'lsa.

#### **4.1.1. Qattiq substratlar bilan ishlash usuli**

Qattiq moddalarning fermentasiyasi sodir bo'ladigan usul ko'pincha quruq fermentasiya deb noto'g'ri ataladi. Ushbu ta'rif noto'g'ri bo'lsa-da, lekin atama yashab qoldi va Evropa Ittifoqining Energiya to'g'risidagi yangi qonunida ham keltirilgan. Fermantasyanning har qanday shakli uchun namlikning mavjudligi muqarrar shart ekanligini yana bir bor ta'kidlash kerak, uning ishslash usuli esa faqat qurilma turiga qarab o'zgaradi. Fermentatorga qattiq substratlarni to'g'ridan-to'g'ri kiritishni taklif qiladigan ko'plab biogaz qurilmasi ishlab chiqaruvchilari o'z tizimini "quruq fermentasiya usuli" deb ataydilar. Biroq, o'z-o'zidan ma'lum boladiki, ushbu tizimlar ham nam (suyuq) fermentasiya usullaridan hisoblanadi.

Fermentasiya suyuqligi singdirilgan substrat butun fermentasiya davomida rezervuarda qoladi va jarayon oxirida fermentatorдан qo'shimcha manipulyatsiyalarsiz (masalan, ajratib olish) aynan o'sha holatda olinadi.

## **Qattiq moddalarga ketma-ket ishlov berish usuli**

Dastlabki paylattda qishloq xo'jaligi substratlarini qattiq holda, ya'ni qo'shimcha suyuqliksiz qayta ishlashga oid ko'p urinishlar qilingan. DRANCO (*Dry Anaerobic Composting* – quruq anaerob kompostlash), kompogaz, ATF (nemis tilida qisqartirilgan – anaerob quruq fermentasiya), shuningdek, bio-

chiqindilarni fermentasiyalash uchun A-3 (anaerob-aerob-anaerobik) kabi turli xil usullar ishlab chiqilgan.

Keyinchalik tajribalar Shveytsariyada 90-yillarda Velinger va Basserga tomonidan ANACOM usuli (inglizcha *Anaerobic-composting of manure* – go'ngni anaerob-kompostlash) yordamida amalga oshirildi (4.4-rasm). Unda qattiq xomashyoni qizdirilgan trubka orqali 10 m<sup>3</sup> hajmli fermentatorni yuqoridan to'ldirishshga murojaat qilindi.

Qayta ishlangan qilingan substrat fermentatorning pastki qismidan qirib chiqarish tranporteri va chiqarish shneki yordamida olib tashlanadi. Ammo bu usul ham, yaxshi niyatlarga qaramay, faqat eksperimental tarzda ishlab chiqilgan va amaliy foydalanish uchun mos holatda ishlab chiqilmagan.

Fermentasiyadan keyingi substrat fermentatorning pastki qismidan ostki tig'li surib chiqaruvchi tranportyori va surub chiqaruvchi shnek yordamida chiqarildi. Ammo bu usul ham, yaxshi maqsadlar uchun bolishiga qaramay, faqat eksperimental tarzda ishlab chiqilgan va amaliy foydalanish uchun mos holatda ishlab chiqilmagan.


#### **Qattiq moddalarga davriy ishlov berish usuli**

Qattiq moddalarni ketma-ket fermentasiyalash usullari qishloq xo'jaligida amaliy foydalanilmagani sababli, qattiq moddalarni qayta ishlashning davriy jarayonini qo'llashga ko'p urinishlar qilingan.

#### **Plyonkali quvurlar usuli**

Ushbu usul siloslash texnologiyasidan olingen bo'lib, qattiq modda plynoka quvur ichiga mashina yordamida kiritilib, yopiq, havo o'tkazmaydigan quvur ichkarisida chirtiladi. Bu holda fermentasiya suyuqligi perkolatsiyalanmaydi, shlang ham isitishni talab qilmaydi. Shuningdek, isitiladigan poddon (taglik) ustiga qattiq modda to'ldirilgan folgali shlang qo'yilishi mumkin. Ushbu usulning afzalligi qurilish va texnika jihozlari uchun juda kam sarmoyaviy xarajatlardir, chunki texnikalardan juda ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Lekin baribir plynka narxini hisobga olish kerak lozim. Yana bir muammoli tomoni quvurning atrof-muhit haroratiga kuchli bog'liqligidir. Bunda suv miqdori pastligi va substrat

ichidagi notekis konsentratsiyasiyaga ega bo'lishi muammoga sabab bo'ladi. Umuman olganda, boshqa qurilish/teknik choralar ko'rilmasa, fermentasiya florasi uchun yaxshi sharoit yaratib bo'lmaydi.



4.4-rasm. Qattiq go'ngni portsyali fermentasiya qilish uchun biogaz qurilmasining fermentatori.

#### **Konteyner usuli**

90-yillarning oxirlarida prof. Trisdorf/Mittelfrankenlik Xofmann qattiq moddalarni fermentasiyalash borasida intensiv ishladi. Birinchi tajribalar Gamburg-Bergedorfdagi Xolsten Jamiyatining eksperimental qurilmasiga tegishli

yopiq bokslar ichida harakatlana oladigan konteynerlar yordamida amalga oshirildi. Fermentasiya suyuqligi sirkulyatsiyalovchi yopiq konteynerlarga uzatiladi. Ushbu texnika ishonchli, istiqbolli natijalar berdi va kichik fermentorlar foydalanish rejalshtirildi (maksimal konteyner hajmi 30 m<sup>3</sup>). Ammo yaqin vaqtgacha yillik mahsulot aylanmasidagi bir tonnasi uchun narx natijalari juda yuqori edi.

### *Qutili fermentasiyalash usuli*


Gollandiyadagi kompost zavodida 14 ta beton qutilarda qattiq moddalarni fermentasiyalash bo'yicha amaliy tajriba 1997 yildan buyon ma'lum bo'lgan. Qurilishiga ko'ra o'xhash bunday qurilmalar Germaniyada ko'plab firmalar tomonidan taklif etiladi. Bu yerda gap ko'rinishi garajga o'xhash quti fermentatorlar haqida bormoqda (shuning uchun uni ko'pincha garaj fermentatorlar deb ham atashadi). Qutilar g'ildirakli yuklagich yordamida gaz o'tkazmaydigan qabul qilgich orqali to'ldiriladi. Fermentasiya paytida pastga tushadigan quyuq massa (atala, perkolat) idishlarga yig'iladi, isitiladi va substrat ustiga sepiladi. Bundan tashqari, polni ham isitiladi. Hohenheim universiteti hamda Vaenshtefan qishloq xo'jaligi texnologiyalari instituti tomonidan amaldagi qurilmalarda o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, bu usul qattiq substratlarni fermentasiyalashda ishlatalishi mumkin. Fermentatorda kuchli zichlanishga moyil bo'lgan substratlar (yetarli strukturaviy materialsiz holatda) mono-fermentasiya uchun mos emas. Bundan tashqari, ushbu usul yetarli miqdordagi bijg'ituvchi modda bo'lgan taqdirdagina yaxshi gaz ko'rsatkichini berishi aniqlandi (4.5-rasm).

### *Harakatlamluvchi, ko'chma (silosli) bunker usuli*


#### *(Chiemgau Biogaz qurilmalari)*

Ushbu usul bilan biogaz texnologiyalari va qurilmalari rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yildi desa ham bo'ladi. Ushbu chindan ham sodda konstruksiyaga ega va gaz o'tkazmaydigan membranalı beton havzalardan iborat. Hovuzlar shunday tayyorlanganki, ularni g'ildirakli yuklagich (mashina) yoki boshqa turdag'i yuklagichlar bilan to'ldirilishi/bo'shatilishi mumkin. To'ldirgandan so'ng hovuz cheti perkolat quyiladi va chetlari ustiga chiqadigan substrat ustiga

perkolat bilan oziqlantiriladi. Fermentator pastki qismidan isitish qurilmasi bilan jihozlangan. Gaz membranasi sirtining yuzasi katta bo'lgani tufayli substratdan issiqlik yo'qotilishini izolyatsion pylonka yordamida minimallashtirilishi kerak.



### *Perkolyasiyasiz quvurli metod*



4.5-rasm. Qattiq xom-ashyoda ishlaydigan biogaz qurilmasi (yuqorida), plenkali quvurda biogaz hosil qilsish (pastda).

Bir vaqtning o'zida nam va quruq usul: Look Consultants (Gamburg) tomonidan patentlangan ushbu usul qattiq va suyuq moddalarni qo'shib fermentasiyalashni o'z ichiga oladi. Qattiq moddalarning fermentasiyasi qutili fermentatorlarida amalga oshiriladi shuningdek parallel ravishda suyuq substratlar nam ishlov berish uchun mos fermentatorlarga joylashtiriladi. Ikkala tizim o'rtaсидиgi perkolatsiya suyuqligining almashinuvি jarayon suvining aylanishi tufayli садир bo'ladi.

#### **4.1.2. Suyuq substratlar bilan ishlash usuli**

##### **Suyuq substratlarda porsiyalab ishlash**

Porsiyali fermentatorlar nam muhitda bijg'itish uchun hozirda hech qanday muhim rol o'ynamaydi. Porsiyali fermentatorini bir yo'la to'ldirish va bo'shatish uchun, fermentasiya kamerasidan tashqari, substratni dastlabki saqlash rezervuar va ishlab chiqqan substratni saqlash uchun omborga ham ega bo'lish kerak. Ularning har birining o'lchamlari teng bo'lishi kerak, lekin bu albatta ushbu texnologiyaning biroz qimmatga tushishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, gaz ishlab chiqarish miqdor jihatidan notejis bo'lib, bir vaqtning o'zida ikkita kichik fermentatorlar bilan ishlab buni tekislash mumkin. Bu esa substratning rezervuar ichida odatdag'i bo'lish vaqtining yarmiga teng bo'lgan muddatda bo'lishini ta'minlagan holda navbat bilan to'ldirish va bo'shatish orqali amalga oshiriladi. Bunday ish sxemasiga ega qurilma ancha qimmatga tushadi, chunki ikkita kichik rezervuar bitta katta rezervuarga qaraganda qimmatroqdir. Bundan tashqari, yana bir kamchiligi shundaki, substrat fermentatorga quylgunga qadar dastlabki saqlanadigan rezervuarda uzoq vaqt saqlanishi tufayli parchalanish jarayonlari allaqachon boshlanadi va buning natijasida azot va metan yo'qotilishi ham kuzatiladi. Shu sabablarga ko'ra bunday qurilmalar keng ko'lamda ishlatalmaydi. Idenga shahridagi WISA kompaniyasi porsiyali prinsipga asoslanib ishlovchi va o'rnatilgan ob'yektlarga ega bo'lgan yagona ishlab chiqaruvchidir. Bundan kelib chiqadiki, qayta tiklanadigan xom ashylarni porsiyali fermentatorlar bilan ishlash tendensiyasi ham davom etmoqda.

Porsiyali prinsipga asoslangan texnologiyalar substratni yoki substratlar aralashmasini fermentatorda bo'lish holati va gazning chiqishi bo'yicha tahlil qilish zarurati bo'lgan hollarda doimo foydalaniladi. Shuning uchun ko'pgina laboratoriya tajribalari porsiyali rejimda amalga oshiriladi. Gaz chiqishi bo'yicha barcha tahlillar to'g'ridan-to'g'ri davriy tajribalar asosida amalga oshiriladi.

##### **Almashinuvchi rezervuarlar usuli**

Almashinuvchi rezervuarlar usuli 1.1-bobda allaqachon aytib o'tilgan edi, chunki u 1954 yildan boshlab birinchi qishloq xo'jaligi biogaz harakati paytida muhim rol o'ynadi. Ushbu usul 2 ta fermentator bilan ishlashga mo'ljallangan: 1-2 kunlik ish davomiyligi uchun substratni o'z ichiga olgan, oldindan saqlanadigan rezervuardan material fermentatorga asta-sekin, teng ravishda quyladi, ikkinchisida esa u yanada fermentasiyalanadi. Birinchisi to'ldirilishi bilanoq, fermentlangan material rezervuar-omborga quyladi, so'ngra esa yana dastlabki saqlash joyidan to'ldiriladi. Rezervuar-ombor vaqt-vaqt bilan qisman yoki to'liq bo'shatib turilishi kerak, ishlab chiqqan, foydalanilgan xom-ashyonini tegishli maydonlarga olib borish lozim. Shuning uchun uning hajmi qoldiq xom-ashyo yuklanadigan rezervuardan kattaroq bo'lishi kerak.

Ushbu usul juda yaxshi gaz ishlab chiqarish va yaxshi gigiyenik xususiyatlari bilan ajralib turadi, chunki butun fermentasiya davrida yangi substrat kiritilmaydi. Ushbu usulning kamchiliklari shundaki, xuddi porsiyalash usuli kabi bir fermentator qurishga nisbatan aytganda, qurilish xarajatlari katta va issiqlik yo'qotishlari ko'proqdir.

Bundan tashqari, almashinuvchi rezervuarlar usulidan foydalanishning muammoli jihat shundaki, rezervuardan olib tashlangan substratning o'rmini qayta to'ldirishda, toki u yetarli darajada to'ldirilgunga qadar gazgolderni shamollatib turish kerak.

##### **Oqim (oqava) usuli**

Dunyo bo'ylab biogaz qurilmalarining aksariyati oqava usulida: yoki sof holda yoki akkumulyatsiyalash usuli bilan kombinatsiyalashgan holda ishlaydi. Bu holda yoki akkumulyatsiyalash usuli bilan kombinatsiyalashgan holda ishlaydi. Bu usulning boshqalardan farqi shundaki, fermentasiya kamerasi har doim to'la

bo'ladi va faqatgina ta'mirlash yoki cho'kindilarni tozalash uchun bo'shatiladi. Suyuq yangi substrat dastlabki saqlash rezervuaridan, qattiq substratlar esa maxsus qurilmalar yordamida fermentasiya kamerasiga kun davomida ko'p marta kiritiladi, shu bilan birga kameraning chiqarish joyida avtomatik ravishda bir xil miqdordagi fermentlangan substrat rezervuar-omborga uzatiladi yoki unga chiqarib tashlanadi.

Oqava usulining afzalligi – gazni bir tekis ishlab chiqarish, fermentatorning stabil yuklamasi va natijada ixcham, yaxlit qurilish ob'yekti tufayli tejamkorlik va kam issiqlik yo'qotishlariga erishiladi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan to'ldirish tizimidan foydalanish mumkin, masalan, oldindan saqlash rezervuaridagi suzuvchi kalit yordamida yoki taymerli nasos yordamida.


Bu usulni porsiyali va almashinuvchi rezervuarlar usullari bilan taqqoslaganda kamchiliklari shundan iboratki, qo'llnilayotgan aralashtirgichlari va rezervuar turiga ko'ra yangi substrat fermentlangan (bijg'igan) material bilan aralashtirilishidir, bu gigiyenitsiya samarasini yomonlashtiradi.

### Saqlash (jamlash) usuli

Usbu usul bitta rezervuardan ham fermentator ham saqlash ombori sifatida foydalanish (jamlash) bilan tavsiflanadi (4.6-rasm). Ishlatilgan substratni olib tashlashda saqlash ombori deyarli to'liq bo'shatiladi, uning oz qismigina substratning keyingi qismini bijg'itish uchun qoldiriladi. Keyin fermentasiya qilish va saqlash ombori sifatida kombinatsiyalashgan rezervuar asta-sekin to'ldiriladi. Saqlash qurulmasining afzalliklari, birinchi navbatda, investitsiya fondlarini tejashdan iborat: bunda bitta katta va shu sababli nisbatan arzon rezervuar bo'lsa kifoya. Bundan tashqari, saqlash qurilmalari ekspluatatsiyasi oson va yengil boshqariladi.

Ochiq holda go'ngni saqlash uchun mo'ljallangan rezervuarlar osongina biogaz qurilmalariga aylanishi mumkin. Ularning kamchiligi esa, gaz ishlab chiqarishning rezervuarni to'ldirish darajasiga kuchli bog'liqligidir. Qattiq qoplamlali saqlash qurilmalari (4.6 c-rasm) gazgolderining shunday katta hajmiga ega bo'lishi kerakki, ishlatilgan substratni olish paytida havo kirib qolsa xavf deyarli yo'q darajada bo'lsin. Plyonka qoplamlali saqlash qurilmalarining

ishlashida katta issiqlik yo'qotishlar mavjudligi muammoli holatni yuzaga keltiradi. Amalda bugungi kunda bunday qurilmalar deyarli hech qanday rol o'ynamaydi.




#### *4.6-rasm. Odadagi saqlash-biogaz qurilmalari*

#### Kombinatsiyalashgan oqimli-saqlash usuli

Kombinatsiyalashgan oqimli-saqlash tizimlari (4.7-rasm) ko'pincha Germaniyada qo'llaniladi. Ular azot yo'qotishlarini minimallashtirish va qo'shimcha biogaz olish uchun oqimli fermentatorlarning ombor-rezervuarlari pylonka yoki qattiq qoplama bilan qoplama boshlaganda paydo bo'lган. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, birinchi navbatda to'liq yuklangan fermentatorlarda odatdiy 7 oygacha usoq vaqt saqlash muddatiga ega, umumiy miqdorda 20-40% gacha gaz hosil qilish mumkin. Odatda, ular yetarli darajada izolyatsiya qilinmaydi va isitilmaydi ham, shuning uchun yana qo'shimcha gaz ishlab chiqarish uchun xarajatlar qiymati juda kam bo'ladi.

Ushbu turdag'i yangi qurilmalarda saqlash omborlari, yuqori yuklamani ko'tarishi va qurilmaning potensialini oshirish maqsadida issiqlik izolyatsiyasi hamda isitgich bilan jihozlangan.

Maxsus holatlarda, ayniqsa fermentator kichik bo'lsa yoki ko'p miqdorda o'g'it kerak bo'lsa yoki bir vaqtning o'zida o'g'itni ko'p miqdorda qo'llash zarur bo'lsa, oqimli fermentator ham qisman bo'shatilishi mumkin. Bunday holda, albatta, bo'shatish paytida saqlash qurilmasidan olingan miqdordagi hajm o'mini bosadigan va ichkaridagi past bosim tufayli havo kirib borishini oldini olish uchun yetarli miqdordagi biogaz mavjudligiga ishonch hosil qilish kerak.



4.7-rasm. Kombinatsiyalashgan oqimli-saqlash usuli qurilmasi

## 4.2. Fermentatorning konstruksiyalari

### Gorizontall konstruksiya

Fermentator tik (vertikal) yoki yotiq (gorizontal) holda joylashtirilishi mumkin. Gorizontal joylashuvda quvvatli, ishonchli va energiyani tejaydig'an mexanik aralashtirgichlardan foydalanish hamda bu bilan katta afzalliklariga ega bo'lish mumkin. Shunday qilib, aniq oqim yo'nalishi bo'yicha aralashtirmay balki oqimga nisbatan vertikal ravishda yo'naltirilgan aralashtirish mexanizmi asosida samarali natijaga erishiladi.

Substratning tiqin (porshen) kabi surilishi natijasida jarayon uchun biologik nuqtai nazardan qulay sharoitlar yaratiladi. Fermentatorga katta yuklama yuklash ham mumkin bo'ladi. Fermentatorning yuklanish miqdori  $7\text{-}10 \text{ kg organik quruq modda/m}^3$  ga yetishi mumkinligi haqida ma'lumotlar ham mavjud.

Ularning kamchiliklari – bu rezervuarni joylashtirish uchun maydonga bo'lgan ehtiyojning kattaligi. Yotiq-gorizontal fermentatorlar hozirda hajmi 1000  $\text{m}^3$  gacha maydon egallashi bilan cheklangan. Hajmiga nisbatan sirtining yuzasi kattaligi (shunga mos ravishda issiqlik yo'qotilishi ham yuqori) va yangi substratni o'ta yuqori bijg'itilgan massa bakteriyalar bilan yetarli darajada "emlanmasligi" ham kamchiliklardan hisoblanadi. Suyuq yoki qattiq hayvon go'ngi uchun bu hech qanday rol o'ynamaydi, chunki bunday substratda dastlab yetarli miqdordagi metan hosil qiluvchi bakteriyalar mavjud bo'ladi. Oz miqdordagi anaerob bakteriyalarni o'z ichiga olgan yoki olmagan cho'chqa go'ngi, energetik o'simliklar yoki organik chiqindilar tiqin kabi surilish paytida yuqori fermentlangan substrat bilan "emlanishi" kerak. Buni dastlabki saqlash idishida yoki avtomatik emlash tizimi yordamida amalga oshirish mumkin. Yotiq fermentatorlar asosan silindrsimon metal idish shaklida tayyorlanadi va yer yuzasiga joylashtiriladi (4.8-rasm). Agar u betondan tayyorlanadigan bo'lsa ko'ndalang kesim kvadrat yoki to'rtburchak shaklga ega bo'lishi mumkin.



4.8-rasm. Bijg'itish rezervuari gorizontal joylashgan biogaz qurilmasi konstruksiyasi

## Vertikal konstruksiya

Vertikal tuzilish shaklidagi fermentatorlar, statika qonuniyatlariga ko'ra, asosan, ko'ndalang kesim yuzasi doira shakliga ega bo'ladi (4.9-rasm). Gorizontal variant bilan taqqoslaganda quyidagi afzalliklarga ega: ixchamroq, sirt yuzasi va hajmi nisbatan mutanosibroq, shuning uchun bu moddiy xarajatlar va issiqlik yo'qotilishini kamaytiradi. Ularning hajmlari gorizontal konstruksiyalar kabi cheklanmagan va bugungi kunda  $6000 \text{ m}^3$  gacha bo'lgan fermentatorlarni qurish mumkin. Aralashtirish texnologiyasiga talablar yuqori, chunki bu holda substratning gomogenlashuv (bir jinslilik) ga erishish uchun zarur bo'lgan kuchli oqimni hosil qilish kerak bo'ladi. Qurilma balandligi ortishi va shu bilan fermentasiyanuvchi substratining qatlamlar hosil qilish tendensiyasining oshishi tufayli aralashtirish mexanizmi yetarlicha vertikal aralashtirishni ta'minlashi kerak. Kamchilik shundaki, tiqin kabi surish jarayonini amalga oshirib bo'lmaydi. Fermentatorning mumkin bo'lgan yuklanish darajasi rezervuar hajmiga, mikser turiga va uning quvvatiga, shuningdek substrat turiga bog'liq. Fermentatorga 4 kg gacha *organik quruq modda / m<sup>3</sup>* yuklanishi mumkin.



4.9-rasm. Bija'iish rezervuari vertikal joylashgan biogaz qurilmasi konstruksiyasi

## Yer ustti yoki yer ostiga joylashtirish

Yer ustiga joylashtirish odatda yer osti suvlarinining yuqori darajasiga bog'liq holda tanlanadi. Bundan tashqari, u tuproq bilan bog'liq ishlarni tejaydi va qimmat tashqi izolyatsion materiallardan foydalanishga tog'ri keladi. Kamchiliklari –

qishda issiqlik yo'qotilishi yuqori va rezervuar balandligi 6 m dan yuqori bo'lganda sarmoyaviy xarajatlar ortishi.

Vertikal rezervuarlarni to'liq yoki qisman yer ostiga joylashtirish yer osti suvlari sathiga qarab tanlanadi (4.10-rasm). To'liq yer osti rezervuarlar katta ustunlikka ega, ular landshaftning umumiyligi ko'rinishini o'zgartirmaydi, joy egallamaydi va shu tariqa biogaz kompleksining markaziga joylashtirish ham mumkin. Bundan tashqari, ular tuproq ostida bo'lganligi sababli, tashqi haroratning keskin o'zgarishidan himoyalangan bo'ladi, bu jarayonni saqlab turish uchun esa kam energiya sarflanadi va bu ayniqsa, sovuq qish mavsumida sezilarli foyda keltiradi. Ushbu variantdan foydalanish uchun har doim gruntning ta'sirini hisobga olish kerak va butun rezervuar konturi qimmat, namlikka chidamli izolyatsion materiallar bilan himoya qilinishi kerak.



4.10-rasm. Fermentator rezervuari qisman yoki to'liq yer ostida joylashgan biogaz qurilmasi konstruksiyasi

## 4.3. Biogaz qurilmalari bo'yicha yakuniy umumlashtirilgan ma'lumotlar

### Biogaz haqida 12 ta qiziqarli fakt

Elektr va gaz uchun yuqori tariflar iste'molchilar o'zlarini va ishlab chiqarishni issiqlik bilan ta'minlashning yangi, muqobil usullarini izlashga majbur qiladi. Masalan, hovlingizdagи biochiqindidan olinadigan va metanga aylantirilishi mumkin. Misol tariqasida, Ukraina qonunlariga ko'ra, siz ishlab chiqargan "yashil energiya" ning ortiqcha miqdorini davlat sotib olishga majbur.


Ukraina misolida ko'radigan bo'lsak, u Yevropaning boshqa rivojlangan davlatlariga qaraganda ko'proq gaz iste'mol qiladi. Aytaylik, sizning qishlog'ingizda tabiiy gaz yo'q va u yaqin kelajakda kutilmaydi ham yoki agar bo'lsa ham, bugungi kunda gaz juda qimmatga tushadi, garchi bu elektr energiyasi bilan isitishga qaraganda arzonroq bo'lsa-da. Ko'mir bilan ta'minlovchi korxonalar, briket yoki granulalar ishlab chiqarish korxonalarini juda uzoqda bo'lsa, ularning mahsulotini uyga olib kelish juda qimmatga tushadi. Shuningdek, o'tinni ham. Shunday qilib, biogazni to'g'ridan-to'g'ri o'z shaxsiy fermangizda chorva go'ngi yoki begona o'tlarni qayta ishlash orqali hosil qilish qulay va "jozibali" hisoblanadi.

*1-fakt: Ukrainada bir necha o'n dona biogaz maimuasi ishlamoada*

Latifundist ma'lumotlariga ko'ra, Ukrainada bor-yo'g'i bir necha o'nlab biogaz qurilmasi qurilgan va ishlamoqda, ularning yarmi qishloq xo'jaligi chiqindilarida ishlaydi, qolgan yarmi chiqindixona gazini "tutib oladi" va utilizatsiya qiladi.

Taqqoslash uchun, Germaniyada 10 mingga yaqin shunga o'xshash qurilmalar mavjud (zavodlar bilan adashtirmaslik kerak). Umuman olganda, Yevropada 20,5 ming atrofida biogaz qurilmasi o'rnatilgan va ularning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda.

**Ukraina va Germaniyadagi biogaz qurilmalari**



#### *4.11-rasm. Ukraina va Germaniyadagi biogaz qurilmalari solishtirma diagrammasi*

Ukrainada elektr energiyasi ishlab chiqaradigan birinchi yuqori quvvatli biogaz stansiyasi 2003 yilda Dnepropetrovsk viloyatida qurilgan. 180 kW quvvatga ega zavod mahalliy go'shtni qayta ishlash korxonasi chiqindilari asosida ishlaydi.

Keyin "Ukraina sut kompaniyasi" loyihasi amalga oshirildi. Kiiev viloyatining Zgurovskiy tumanida qurilma to'rt ming sigirning go'ngi va makkajo'xori chiqindilarini qayta ishlaydi. Ishlab chiqarilgan energiya sut qayta ishlovchi korxona uchun ham, eng yaqin qishloq – Velikiy Krupol uchun ham yetarli edi. Bundan tashqari, Xerson viloyati, Ivano-Frankivsk viloyati, Poltava viloyati va hatto Volnovaxaning oldindi qismida biogaz stansiyalari mavjud.

*2-fakt: Ukraina uzum sigmasidan ham biogaz ishlab chiqaradi*

Ukrainada biogaz, shu jumladan uzum siqmasidan ham ishlab chiqariladi. Bunday xom ashyo makkajo'xori silosu bilan birga Nikolayev viloyatidagi Voznesensk shahridagi konyak zavodida ishlatiladi. Odatda meva, rezavor, sabzavot va uzum siqmasi biogaz ishlab chiqarish uchun iqlimi sharoiti eng qulay bo'lgan mamlakatlarda (Fransiya, Ispaniya, Bolgariya, Ukraina) ishlatiladi.

*3-fakt: Yetkazib berish uchun o'rtacha masofa suyuq xom ashyo uchun 20 km gacha, aurua chiqindilar uchun 50 km gacha.*

Biogazni keng miqyosda ishlab chiqarish uchun, masalan, korxona yoki qishloqni isitish uchun qoramol yoki tovuq go'ngi va galdeg'i qayta ishlashga tayyor o'simlik qoldiqlari bilan ta'minlaydigan agrofermalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish kerak. Shuni hisobga olish kerakki, yetkazib berish masofasi suyuq xom ashyo uchun o'rtacha 20 km gacha, quruq chiqindilar uchun 50 km gacha bo'lganda o'zini oqlaydi. Bundan tashqari, biogaz qurilmalari juda ko'p xom ashyo talab qiladi va uni bir necha fermerlar yoki agrofermalardan yig'ish zarur bo'ladi. Agar o'zingizda 50 km gacha radiusda xususiy agroferma yoki bir nechta qo'shimcha xom ashyo manbalari (otxona, chorvachilik fermasi, parrandachilik fermasi va boshqalar) bo'lsa, unda xom-ashyodan muammo yo'q. Ammo ellik kilometrdan ortiq radiusdagi xom-ashyo yoqilg'i, amortizatsiya va inson mehnatining amaldagi narxlari bilan o'zini oqlamaydi. Shuningdek, albatta, qancha

kam xom-ashyo sotib olinsa, qurilma harajatlari shuncha tez qoplanadi. Bu yerda yana shuni bilish kerakki, har qanday qishloq xo'jaligi korxonasida utilizatsiya qilinishi kerak bo'lgan chiqindilar mavjud bo'ladi va biogaz qurilmasini qo'llash utilizatsiya harajatlari/issiqlik/elektr energiyasi sarfi va hatto organik o'g'itlarni tejashi mumkin, chunki go'ng va boshqa chiqindilar qayta ishlangandan so'ng hosil bo'lgan bioo'g'it tuproq sifatini, hosildorlikni sezilarli darajada yaxshilaydi.

*4-fakt: Go'ngning sifati uning qanday saqlanishiga bog'liq*

Saqlash sharoitiga ko'ra uchta turi mavjud: *zich, g'ovak va birlashtirilgan (kombinatsiyalashgan)* usullar.

*Zich usul* sovuq deb ham ataladi va sifat jihatidan eng samarali hisoblanadi. Usul quyidagicha: go'ng eni to'rt metrgacha bo'lgan joyda qatlam qilib yig'iladi va umumiyligi qatlam balandligi ikki metr teng qilib tezda zichlanadi (uzunligi xom ashyo miqdoriga bog'liq). To'plangan qatlamni tuproq yoki somon bilan zudlik bilan qoplash orqali havoning kirishi bloklanadi va natijada parchalanish sekinlashadi. Bunday to'plamlar zichlash sifatiga qarab 3-5 oy ichida chirindiga aylanadi.

*G'ovak usul* deganda cheksiz kislorod yetkazib berishni nazarda tutadi. Bunday holda, uning sifati pasayadi. Fermentasiya tezligi va azotning yo'qotilishi esa havo haroratiga bog'liq. Bunday tashqari, ushbu turdag'i saqlashda go'ngni zichlash umuman amalga oshirilmaydi, shuning uchun u notejis parchalanadi.

*Birlashtirilgan (kombinatsiyalashgan) usul* (*g'ovak-zich*) ham issiq deb ataladi. Birinchidan, u bir metr balandlikda g'ovak qatlam sifatida yotqiziladi va maksimal bir haftaga qoldiriladi. Keyin uni zichlanadi. Bunday tizim tufayli azotning juda tez yo'qotilishi sodir bo'ladi, ya'ni tayyor mahsulot eng qisqa vaqt ichida ishlatilishi mumkin bo'ladi. Ko'pincha, ushbu turdag'i usul xom ashyo juda zarur bo'lgan favqulodda holatlarda qo'llaniladi.

*5-fakt: Xom ashyo biogaz miqdoriga ta'sir qiladi*

Qoramol go'ngi butun dunyoda biogaz qurilmalari uchun eng mashhur xom ashyo hisoblanadi. Shuningdek, cho'chqa va qo'y go'ngi, parranda go'ngi, go'sht ishlab chiqarish chiqindilari, o't, somon, zig'ir va kanop, jo'xori, pivo tayyorlash

chiqindilari, sabzavot, lavlagi va uzum siqmalarini muddati o'tgan mahsulotlar ham qayta ishlashga yaroqlidir. Bir tonna xom ashyo dan 40 dan 50 kubometrgacha biogaz olish mumkin. Agar uni somon bilan aralashdirilsa  $70 \text{ m}^3$ . Taqqoslash uchun, bir tonna go'sht mahsulotlari chiqindisidan yoki kartoshka poyasidan  $250-500 \text{ m}^3$  biogaz olish mumkin. Shuningdek, bir tonna kanopdan –  $360 \text{ m}^3$ , va bir xil miqdordagi lavlagi siqmasidan – atigi  $40 \text{ m}^3$ .

*6-fakt: Hatto bitta tosh yoki gayka uskunani butunlay o'chirib qo'yishi, quvur liniyasini yopishi yoki to'xtatishi mumkin*

Muammolarni oldini olish va uskunani imkon qadar kamroq ta'mirlash uchun asosiy qoidalarga riosa qilishga harakat qilish lozim. Demak, suyuq va qattiq xomashyo muvozanatini saqlash kerak, reaktordagi quruq moddalar 11% dan kam, organik moddalar esa 1 kubometr uchun 6 kg gacha bo'lishi kerak. Agrofermalarda qoramol va parrandalarni oziqlantirishda antibiotiklardan holi bo'lish, dala maydonlariga ishlov berishda nitratlar va fosfatlardan qochish kerak.

*7-fakt: Go'ng nafaqat biogazga, balki tabiiy o'g'itga ham aylanadi*

Biologik gaz organik moddalarning (asosan chiqindilar) metanli bijg'ishi natijasida hosil bo'ladi va yonuvchan gaz hisoblanadi. Ammo gaz umumiyligi massaning atigi 10% ni tashkil qiladi. Bijg'ish jarayonidan so'ng umumiyligi massaning 90% idan "digestate" – tabiiy o'g'it olinadi. Mineral o'g'itlar tuproqda atigi 35-50% ga so'rilsa, biologik o'g'itlar deyarli 100% ga o'zlashtiriladi va tuproqqa nitratlar kabi tushmaydi.

*8-fakt: Biometan qishloq xo'jaligi texnikasi yonilg'isi sifatida ishlatilishi mumkin*

Biogazdan olingan biometan avtomobillar va qishloq xo'jaligi texnikalari ehtiyojlari uchun yoqilg'i quyish shoxobchalarida sotilishi yoki gaz tarmog'i orqali foydalanuvchilarga yetkazilishi mumkin, lekin bu maxsus tozalashni talab qiladi.

*Kogeneratsiya* (atama elektr va issiqlik energiyasini *kombinatsiyalashgan* holda *generatsiyalash* so'zlaridan olingan) – elektr va issiqlik energiyasini birgalikda ishlab chiqarish jarayoni.

*9-fakt: Antibiotiklar metan hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi*

Yakuniy tarkib chorva mollari nima bilan oziqlanganiga yoki o'simliklar rivojlanishida qanday vositalar qo'llanilganiga bog'liq. Cho'chqa go'shtida antibiotiklarni, o'simliklarda esa kimyoviy moddalarni bo'lishi odatiy holdir. Shuningdek, ishlab chiqarishda omborlar binolari to'g'ri dezinfeksiya qilinishini nazorat qilish kerak. Oqibatda, qoramol yoki parrandachlik fermalarida ishlatalidigan yuvish, tozalash vositalaridan foydalanish tufayli chiqindi tarkibiga tushgan antibiotiklar metan hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

*10-fakt: Biogaz qurilmasi – o'zini oqlash muddati 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan loyiha*

Quruq/suyuq go'ng uchun o'z-o'zini qoplash muddati – o'rtacha 5-7 yil. Shakarni zavodlari qoshidagi qurilmalar esa uch yildan ko'proq vaqt ichida o'zini oqlaydi.

Baker Tilly NUSECO konsalting kompaniyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotni e'lon qildi va o'zini oqlash muddatini hisoblab chiqdi.

Demak, sut yetishtirish uchun boqiladigan 4000 bosh yirik shoxli qoramollarni o'z ichiga olgan loyiha 5 million yevroga tushadi va 4 yildan so'ng o'zini oqlaydi. Yiliga 150 000 tonna shakar xom-ashyosi pressdan keyin pulpasini iste'mol qiladigan va 12 million yevrolik shakar zavodi 3 yil ichida o'zini oqlaydi.

*11-fakt: Qurilmani umumiy tarmoqqa ulash jarayoni 6-8 oy davom etadi*

Qurilmani umumiy tarmoqqa ulanish jarayoni 6 oydan 8 oygacha davom etadi, shuning uchun bu jarayonni biogaz qurilmasini qurish bilan parallel ravishda boshlash kerak.

Dastlab, energiya kompaniyasidan ulanish shartnomasini va texnik shartlarni olish kerak, bu ikki haftadan bir oygacha davom etishi mumkin. Keyin loyiha hujjatlari ishlab chiqiladi va energiya kompaniyasi bilan kelishiladi (1 oydan 3 oygacha + ariza berilgan kundan boshlab 15-30 kun). Elektr tarmoqlarini qurish yoki rekonstruksiya qilish yana 2-3 oy davom etadi (muddatlar nisbiy xarakterga ega). Energetika korxonasiga elektr energiyasi yetkazib berish yoki undan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish va ob'ektini elektr tarmoqlariga ulash uchun besh ish kuni kerak bo'ladi. Ulanishni texnik-iqtisodiy asoslash ham vaqt talab

etadi. Bundan tashqari, ob'yktning elektr liniyalariga yaqinligiga bog'liq ravishda infratuzilma xarajatlari ham mavjud.

*12-fakt: Hukumat yashil elektr energiyasini sotib olishga majbur*

Qoidaga ko'ra (masalan, Ukrainada), korxonalarda katta miqdordagi biogaz mavjud va Ukrainianing "Elektr energetikasi to'g'risida" gi qonuniga ko'ra, muqobil yoqilg'idan elektr energiyasi ishlab chiqaradigan korxonalar uni sotishi mumkin va davlat uni "yashil" tariflarga asoslangan holda sotib olishga majbur.

"Yashil tarif" 2030 yilgacha yevro pul birligida belgilanadi va 0,05385 bazaviy stavkani tegishli koefitsientga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. 07.01.2015 dan 2,3 ball, 01.01.2020 dan 2,07 ball 01.01.2025 dan esa 1,84 ball.

Ayni paytda Ukrainianada "yashil tarif" 150 ga yaqin korxona uchun o'matilgan, ulardan 7 tasi biogaz uchun.

Korxona uchun "yashil tarif" olish qiyin emas. Bir necha bosqichlardan o'tish kerak, shu jumladan, kompaniyani yaratish yoki mayjudidan foydalanish; elektr stansiyasini qurish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish; tarmoqqa ulanish; elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi sifatida lisenziya olish; elektr energetikasi va kommunal xizmatlarni tartibga solish milliy komissiyasida "yashil tarif"ni tasdiqlatish; "Энергорынок" sho'ba korxonasi bilan elektr energiyasini sotish bo'yicha shartnoma imzolash.

Biogaz qurilmalari mamlakat iqtisodiyotini yangi cho'qqilarga ko'tarishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda ularning soni aql bovar qilmaydigan darajada ko'paymoqda. Qolaversa, mamlakatimizda elektr energiyasi, gaz va yoqilg'i doimiy ravishda qimmatlashib bormoqda. Agar biz gaz bilan bog'liq masalani ko'rib chiqqan va halqilgan bo'lsak, unda elektr energiyasi bilan vaziyat biroz boshqacha. Germaniya va Shvetsiyada aholiga elektr energiyasidan foydalanganlik uchun qo'shimcha haq to'lanadi, "yashil" energiya ishlab chiqarish uchun esa oldidan haq to'lanadi. Metan kelajak yoqilg'isi hisoblanadi! Shunday qilib, biogaz qurilmalari fuqarolarlarni davlatdan qisman mustaqil qilishi va mavjud xom-ashyo yordamida o'zlarini energetik jihatdan qo'llab-quvvatlashga imkon berishi mumkin.

#### IV bob bo'yicha savollar

1. Porsiyalab yuklash usuli qanday tavsiflanadi?
2. Oqim usuli xarakteristikasi qanday tavsiflanadi?
3. Substratni tizin kabi surish usulida rezervuarning diametri uning uzunligidan kamida qanday nisbatda bo'lishi kerak?
4. Ko'p bosqichli usullar qanday hollarda qo'llaniladi?
5. Almashinuvchi rezervuarlar usulining kamchiliklari qaysi jahhalarda ko'rindi?
6. Fermentatorning joylashuv usullarining qaysi biri samarali hisoblanadi?

#### MUNDARIJA

Kirish so'zi .....	2
<b>I BOB. BIOGAZ TEKNOLOGIYALARI ASOSLARI</b> .....	7
1.1. Biogaz kecha va bugun .....	7
1.2. Biogaz qurilmasini qurish kimga foyda keltiradi? .....	24
I bob bo'yicha savollar .....	28
<b>II BOB. BIOGAZ HOSIL KO'PISH JARAYONI</b> .....	29
2.1. Biogazning shakllanishi .....	29
2.2. Bakteriyalarning yashash muhiti .....	36
2.3. Substratlar va ularning parchalanish jarayoniga ta'siri .....	59
2.4. Jarayonni tavsiflovchi parametrlar .....	65
2.5. Jarayonni nazorat qilish va boshqarish .....	72
2.6. Biogazning tarkibi va sifati .....	75
II bob bo'yicha savollar .....	79
<b>III BOB. SUBSTRAT</b> .....	80
3.1. Substratlarni yaroqliligi bo'yicha tanlash .....	80
3.2. Substratlarning turi va tarkibi .....	82
3.3. Har xil turdag'i substratlarning xavflik potensiali .....	123
3.4. Quruq moddalar tarkibiga ko'ra substrat aralashmalarining tarkibi .....	124
3.5. Biogaz ishlab chiqarish tizimida ozuqa moddalarining aylanmasi .....	126
3.6. Fermentator yuklanmasi va saqlash joyiga bo'lgan talablar .....	130
3.7. Iqtisodiy nuqtai nazardan substratlarning muvofiqligi .....	132
3.8. Kofermentasiya – chiqindilarni qayta ishlash usuli .....	135
3.9. Substratni tanlash va huquqiy qoidalar .....	141
III bob bo'yicha savollar .....	147
<b>IV BOB. JARAYON TEKNOLOGIYASI</b> .....	148
4.1. Jarayonning xarakteristikalari .....	148
4.1.1. Qattiq substratlar bilan ishlash usuli .....	155
4.1.2. Suyuq substratlar bilan ishlash usuli .....	160
4.2. Fermentatorning konstruksiyalari .....	164
4.3. Biogaz qurilmalari bo'yicha yakuniy umumlashtirilgan ma'lumotlar .....	167
IV bob bo'yicha savollar .....	174
Foydalaniqan adabiyotlar .....	176

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Предловие .....	6	168
<b>ГЛАВА 1. ОСНОВЫ БИОГАЗОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ .....</b>	10	173
1.1. Биогаз вчера и сегодня .....	10	
1.2. Коиу выгодно строить биогазовую установку.....	28	
Вопросы по главе 1.....	31	
<b>II BOB. BIOGAZ HOSIL KO'PISH JARAYONI.....</b>	33	
2.1. Образование биогаза .....	33	
2.2. Благоприятная среда обитания бактерий .....	40	
2.3. Субстраты и их влияние на процесс разложения.....	64	
2.4. Характеризующие процесс параметры .....	71	
2.5. Контроль и управление процесса.....	78	
2.6. Состав и качество биогаза.....	81	
Вопросы по главе 2.....	85	
<b>ГЛАВА 3. СУБСТРАТ.....</b>	86	
3.1. Выбор субстратов на пригодность.....	86	
3.2. Вид и состав субстратов.....	88	
3.3. Потенциал опасности разных видов субстратов.....	130	
3.4. Состав смесей субстратов согласно содержанию сухого вещества..	131	
3.5. Оборот питательных веществ в системе образования биогаза.....	133	
3.6. Загруженность ферментатора и потребности в складском пространстве.....	137	
3.7. Пригодность субстратов с экономической точки зрения.....	139	
3.8. Коферментация – концепция переработки отходов.....	142	
3.9. Выбор субстрата и правовые предписания.....	148	
Вопросы по главе 3.....	154	
<b>ГЛАВА 4. ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЦЕССА.....</b>	156	
4.1. Характеристики процесса.....	156	
4.1.1. Метод работы на твердых субстратах.....	153	
4.1.2. Метод работы на жидкых субстратах.....	168	
4.2. Типы строения ферментаторов.....	173	
4.3. Итоговые обобщенные данные по биогазовым установкам.....	176	
Вопросы по главе 4.....	183	
Использованные литературы.....	184	

## Foydalaniłgan adabiyotlar

- Барбара Эдер, Хайнц Шульц. Биогазовые установки. Практическое пособие. Издано в 1996 г. Перевод с немецкого выполнено компанией Zorg Biogas в 2011 г. Под научной редакцией И. А. Реддих. <http://www.zorg-biogas.com>.
- Руководство по биогазу. От получения до использования. Германия: Агентство по возобновляемым ресурсам (FNR), 2010. - 215 с.
- Мирошниченко И.В., Линденер Й. Ф. «Утилизация отходов животноводства и птицеводства с получением биогаза в условиях Белгородской области России». Научная статья, журнал «Инновации в АПК: проблемы и перспективы». Номер: 2 (10). Год: 2016. Страницы: 95-100. УДК: 620.95:631.248:636(470.325). Издательство: Белгородский государственный аграрный университет имени В.Я. Горина (Майский). ISSN: 2311-9535. eLIBRARY ID: 29449739.
- Jeetah P., Reetoo N. "Biogas production potential from cow dung to be used in the Vedic farm". *International Journal of Global Energy Issues. (IJGEI)*. Vol. 39, No. 3/4, 2016, 241-252. <https://doi.org/10.1504/IJGEI.2016.076349>. Available from: [www.scopus.com](http://www.scopus.com).
- Коробко, В. И. «Твердые бытовые отходы. Экономика. Экология. Предпринимательство». Монография. В. И. Коробко, В. А. Бычкова. – Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 131 с.
- Тажибаев О., Барков В.И. «Технология процесса и конструктивно-технологические схемы для биогазовой установки с пластмассовым корпусом в анаэробном режиме». «*Изденістер, нағылжелер. Исследования, результаты*». Журнал 2015, 1-выпуск. Казахский национальный аграрный университет. Доступная ссылка: [https://izdenister.kaznau.kz/files/full/2015\\_1-1.pdf](https://izdenister.kaznau.kz/files/full/2015_1-1.pdf).
- Баадер, В. «Биогаз: теория и практика». В. Баадер, Е. Доне, М. Бренндерферз; пер. с нем. и предисловие М. И. Серебряного. – М.: Колос, 1982. – 148 с.

- Веденеев, А. Г. «Биогазовые технологии в Кыргызской Республике». А. Г. Веденеев, Т. А. Веденеева. – Бишкек: Типография «Евро», 2006. – 90 с.
- Diallo, T. M. O., M. Yu, J. Zhou, X. Zhao, S. Shittu, G. Li, J. Ji, and D. Hardy. 2019. "Energy performance analysis of a novel solar PVT loop heat pipe employing a microchannel heat pipe evaporator and a PCM triple heat exchanger". *Energy* 167,:866-888. <https://doi.org/10.1016/j.energy.2018.10.192>.
- Барбара Эдер, Хайнц Шульц. «Биогазовые установки». Практическое пособие. Издано в 1996 г. Перевод с немецкого выполнено компанией Zorg Biogas в 2011 г. Под научной редакцией И. А. Реддих. <http://www.zorg-biogas.com>

## Foydalaniłgan internet ma'lumotlari

- <https://lex.uz>. O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
- <http://zorg-biogas.com>
- <https://aggeek.net/ru-blog/12-zanimatelnyh-faktov-o-biogaze>
- Предварительная подготовка субстрата для биогазовых установок. URL:[https://nomitech.ru/articles-and-blog/predvaritel'naya\\_podgotovka\\_substrata\\_dlya\\_biogazovykh\\_ustanovok/](https://nomitech.ru/articles-and-blog/predvaritel'naya_podgotovka_substrata_dlya_biogazovykh_ustanovok/)
- Подготовка небезопасного сырья для получения биогаза. URL: [https://nomitech.ru/articles-and-blog/podgotovka\\_nebezopasnogo\\_syrja\\_dlya\\_polucheniya\\_biogaza/](https://nomitech.ru/articles-and-blog/podgotovka_nebezopasnogo_syrja_dlya_polucheniya_biogaza/)
- <https://ecodevelop.ua/ru/biogazovi-slovar/>

MURODOV MUZAFFAR XABIBULLAYEVICH

## BIOGAZ

# TEXNOLOGIYALARI VA QURILMALARI

Oliy o'quv yurtlarining 60711000 – Muqobil energiya manbalari ta'lif  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

Bichimi 60x84/16. "Times New Roman" garniturada  
raqamli bosma usulida bosildi. shartli bosma tabog'i 11,25.

Adadi 100 nusha. Buyurtma № 48

---

"FAZILAT ORGTEX SERVIS" hususiy korxonasi  
bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Namangan sh.  
Navoiy ko'chasi 72 uy. Tel: (+998) 91-346-44-43.



## **MURODOV MUZAFFAR XABIBULLAYEYICH**

texnika fanlari nomzodi. 1999 yili Namangan davlat universitetini tamomlagan. 2007 yilda 05.14.08. – “Qayta tiklanadigan energiya manbalari va ular asosidagi qurilmalar” ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ayni vaqtida Namangan muhandislik-qurilish instituti Energetika kafedrasи dotsenti lavozimida faoliyat yuritmoqda. Mutaxassisligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirib 60 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 4 ta monografiya va o'quv qo'llanmalar muallifi.